

Muqimova M.Z.

JINOYAT- IJROIYA HUQUQI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

JINOYAT – IJROIYA HUQUQI

Huquqshunoslik fakulteti talabalari uchun

Uslubiy qo'llanma

SAMARQAND - 2012

M.Z.Muqimova. Jinoyat-ijroiya huquqi. O'slubiy qo'llanma
(huquqshunoslik fakulteti talabalari uchun). – Samarqand: SamDU nashri. 2012. –
165 bet.

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya qonunchiligi asosida yozilgan bo'lib, u jinoyat-ijroiya qonunchiligi hujjatlari, mahkumlarning huquqiy holati, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiy jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari, ya'ni shartli hukm qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan choralarni ijro etish tartibi, shartlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'zlashtirishni maqsad qilib qo'ygan va bu borada qonunchilikka kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar e'tiborga olingan.

Qo'llanma oliy yuridik o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etiladi. Shuningdek, qo'llanmadan tadqiqotchi izlanuvchilar, jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etish tartibi va shartlari bilan qiziquvchi barcha shaxslar foydalanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

yuridik fanlari doktori, professor Z. Yu. Muqimov

Taqrizchilar:

TDYUI «Jinoyat huquqi» kafedrasining dotsenti S.Niyozova

SamDU «Davlat huquqi» kafedrasining dotsenti M.Qo'ldoshev

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2012

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida so'nggi vaqtlarda jazoni ijro etish tizimini liberallashtirish borasida chuqur islohotlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda¹. Ushbu jarayonning dastlabki davrlari O'zbekiston Respublikasining 1994 yilda Jinoyat kodeksi va 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksini qabul qilinishi bo'lib, aynan ushbu qonun hujjatlari jinoyat uchun jazo tayinlash va uni ijro etish, shuningdek boshqa huquqiy ta'sir choralarni ijro etish tartibi va shartlarini aks ettirdi.

Mustaqil O'zbekistonning Jinoyat-ijroiya kodeksi Respublikamizning jazoni ijro etishga oid muhim siyosatini belgilab berdi. Ushbu kodeks huquqiy demokratik davlat qurishda muhim bo'lgan insonparvalik g'oyalariga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Jinoyat ijroiya kodeksi normalarida aks etgan prinsiplar (6-modda), uning xalqaro-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi (4-modda), mahkumlar huquqiy holati (8-13 moddalar) buning isbotidir.

Ushbu qo'llanmada O'zbekiston Respublikasida jinoiy jazolarni ijro etish tartib-qoidalari, ularning huquqiy tartibga solinishi, mahkumlarning huquqiy holati, boshqa huquqiy-ta'sir choralarni ijro etish masalalari imkon qadar yoritib beriladi.

Uslubiy qo'llanma yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik fanlar blokidagi «Jinoyat ijroiya huquqi» fani o'quv dasturi asosida tayyorlangan va talabalarga ushbu fanni o'rganish borasida qulayliklar yaratish uchun yozilgan bo'lib, unda topshiriqlar, nazorat uchun savollar va mustaqil ishlash uchun test savollari keltirilgan.

Mazkur fanni o'rganish – o'qitishning an'anaviy va ilg'or uslublarini, jumladan, ekspress so'rovlar, dasturiy o'qitish, davra suhbatlarini o'tkazish,

¹ **Karimov I.A.** Adolat – qonun ustuvorligida // Xalq so'zi. 2001 y. 30 avgust; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Birinci marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslarning jazo o'tash sharoitlarini liberallashtirish to'g'risida»gi **Farmoni**; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida» gi **Farmoni**. 2005 yil 1 avgust; O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 30 avgustdagi Jinoyat-ijroiya qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi 2003 yil 12 dekabrda, 2007 yil 15 iyundagi **Qonunlari** va boshqa qonun hujjatlari.

kollokviumlar, muammoli o'qitish, texnik vositalarni qo'llash va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

1-MAVZU. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA VAZIFALARI

Reja:

1. *Jinoyat-ijroiya huquqi tushunchasi, uning maqsadi va vazifalari.*
2. *Jinoyat-ijroiya huquqining boshqa huquq tarmoqlari bilan bog'liqligi.*
3. *O'zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya huquqiga oid siyosati va prinsiplari.*
4. *O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-ijroiya qonuni.*
5. *Jinoyat-ijroiya qonuni normalarining tuzilishi.*

Darsning maqsadi: jinoyat-ijroiya huquqi to'g'risida umumiy tushuncha berish, uning boshqa o'xshash sohalardan farqini ochib berish va bu borada talabalarni fikrlashga undash, jinoyat-ijroiya huquqi prinsiplarining ahamiyatini ko'rsatish, tizimini tahlil qilish, uning bugungi kundagi ahamiyati haqidagi bilim ko'nikmalarini hosil qilish, jinoyat-ijroiya qonuni normalarining amal qilish mexanizmini ochib berish.

Dars o'tish vositalari: proyektor, jinoyat-ijroiya huquqi normalarining tuzilishini aks etgan sxemalar, darsliklar, o'quv qo'llanma va boshqa adabiyotlar.

Dars o'tish usullari: ushbu huquq sohasini boshqa sohalardan farqlash uchun qisqa savol-javoblar, ma'ruza materiallari bilan tanishtirish, seminar topshiriqlari berish, mavzu yuzasidan o'zaro tortishuvchanlikni yo'lga qo'yish, klaster usuli.

1. Jinoyat-ijroiya huquqi tushunchasi, uning maqsadi va vazifalari

Jinoyat-ijroiya huquqi mustaqil huquq tarmoqlaridan biri bo'lib², o'zining predmeti va uslubi bilan xarakterlanadi.

² **Izoh:** O'z navbatida ta'kidlash kerak, jinoyat-ijroiya huquqining mustaqil huquq sohasi sifatida ajralib chiqishi masalalasi munozarali bo'lib, ushbu davr 1920 yillarni qamrab oladi. Ba'zi bir mualliflar, jinoiy jazolarni ijro etish to'g'risidagi normalar, bu jinoyat huquqiga tegishli, jinoyat-ijroiya huquqi esa, jinoyat huquqining bir qismi deb hisoblasalar, boshqalari jazoni ijro etish masalalari jinoyat-prosessual huquqi, bir qismi esa mehnat huquqi bilan tartibga solinishi kerak deb hisoblaganlar. Hozirgi kunga kelib bu boradagi munozaralar o'z yakunini topgan,

Jinoyat-ijroiya huquqinng **predmeti** barcha jinoiy jazolarni va davlatning boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etish, o'tash mobaynida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir.

Mustaqil huquq tarmog'i sifatida jinoyat-ijroiya huquqining **metodi** (usuli) jazolarni va boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etish va o'tash mobaynida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi usullar bo'lib, bular ichida imperativ metod ustunlikka ega.³

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya huquqining **vazifalari** Jinoyat-ijroiya kodeksining 2-moddasida nazarda tutilgan bo'lib, undan jinoyat-ijroiya huquqining o'ziga xos *maqsadlari* kelib chiqadi, ya'ni jazo ijrosini ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun u jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etish tartibi va shartlarini belgilaydi, mahkumlarning huquqiy holati va himoya masalalarini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, JIK Jinoyat kodeksining 42-moddasida bayon qilingan jazoning maqsadini amalga oshirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan bo'lishiga qaramay, uning 2-moddasida jinoyat ijroiya qonunining vazifalari sifatida jinoiy jazoning ijrosini ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish nazarda tutiladi.

Mahkumlarni axloqan tuzatish O'z R JKda nazarda tutilgan har bir jazoning o'ziga xos xususiyatlarida aks ettiriladi. Mahkumga nisbatan ayrim huquqlardan mahrum qilish yoki ularni cheklash orqali bu cheklashlar uning o'zi sodir qilgan jinoyatining oqibati ekanligi ko'rsatilib, jazoni o'tash orqali tavba qilish va

chunki jinoyat-ijroiya huquqi, uni huquqning boshqa sohalaridan ajratuvchi o'ziga xos predmeti va metodiga ega. Ushbu munozaralar jinoyat ijroiya huquqini mustaqil huquq sohasi sifatida shakllanishiga asos bo'lib, 1924 yillarda bu borada ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, 1958 yillarga kelib esa, fan sifatida o'rganila boshlangan va 1960 yili huquqning ushbu sohasiga bag'ishlangan ilk darslik chop etilgan.

³ **Masalan**, jazoni ijro etuvchi muassasa boshlig'i, boshliq sifatida davlat nomidan mahkumlarning o'z majburiyatlarini bajarishini talab etish vakolatiga ega.

gunohni yuvish imkoniyati beriladi. Oddiy fuqarolarning o'z faoliyatini jamiyatning to'laqonli fuqarosi sifatida o'z xohish-irodasi va erki bilan amalga oshirishi, jazoga hukm qilinganlarning jinoyat hisoblanadigan qilmishlarni sodir qila olmasligi, o'z jinoiy yaqin o'tmishini baholash va undan tegishli xulosa chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Jazoni o'tab chiqqan shaxslarning yangi jinoyat sodir etishlarining oldini olish, ular ustidan ma'lum muddatga ma'muriy nazorat qoidalarini o'rnatish orqali amalga oshiriladi.

Axloqan tuzatish masalasi har bir jazoda belgilangani kabi aniq vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Bular Jinoyat-ijroiya qonunlarida har bir jazoni tartibga soluvchi tartib-qoidalarida ifodalanadi.

Jinoyat-ijroiya huquqi manbalari turli-tuman bo'lib, ularni yuridik kuchga ega ekanligi va amal qilish jihatidan tasniflash mumkin. Jinoyat-ijroiya huququqi manbalariga Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining qarorlari, jinoyat-ijroiya qonuni va xalqaro qonun hujjatlari kiradi.

2. Jinoyat-ijroiya huquqining boshqa huquq tarmoqlari bilan bog'liqligi

Jinoyat-ijroiya huquqining mustaqil huquq sohasi haqidagi muammoni hal qilish ushbu huquq sohasining boshqa sohalar bilan muvofiqligini aniqlashtirishni talab etadi, zero ular huquq tizimining yagonaligiga qaramay, o'zaro farq qiladi.

Jinoyat-ijroiya huquqi jinoyatchilikka qarshi kurash borasida jinoyat huquqi, jinoyat-prosessual huquqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jinoyat huquqi huquq tizimining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. *Jinoyat huquqi* jinoyat sodir etilishi munosabati bilan yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Jinoyat-ijroiya huquqi va *jinoyat protsessual huquqning* o'zaro muvofiqligini shakl va mazmun orasidagi muvofiqlikka taqqoslash mumkin, zero jinoyat-ijroiya huquqi odil sudlovning natijalarini namoyon qilib, sud hukmini ijro etish borasida muhim ahamiyat kasb etsa, jinoyat prosessual huquqi jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritish, jumladan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'lash to'g'risidagi ishlarni yuritish, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibini belgilaydi.

Jinoyat-ijroiya huquqi *kriminologiya* bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi, ularning ikkalasi ham jinoyachilikka qarshi kurash va uning oldini olishda ahamiyat kasb etadi.

Mehnat huquqi bu borada jinoyat-ijroiya huquqi bilan ham qamrab olinadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhimdir. YA'ni mahkumlarning mehnat qilish borasidagi munosabatlari: ularning mehnati, ish vaqti, dam olish vaqti, ish haqi kabi masalalar shular jumlasidandir.

Jinoyat-ijroiya huquqi va *konstitusiyaviy huquqlarning* o'zaro bog'liqligi ham shubhasizdir. Zero, jinoyat ijroiya huquqi, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga asoslangan. Masalan, mahkumlarga ba'zi bir cheklashlar bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar nazarda tutilgan (ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilishi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, yozishmalar olib borish va boshq.).

Jinoyat-ijroiya huquqi *oila va nikoh huquqi* bilan ham bog'liq. Oilaviy rishtalarni saqlab qolish, ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat-ijroiya huquqi va *fuqarolik huquqi*. Jazoni o'tash mobaynida mahkum mulkka egalik qilish, meros olish huquqlariga ega bo'lishi mumkin. Ammo ushbu huquqlar uning vakillari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyat-ijroiya huquqi *xalqaro huquq* bilan ham bog'liqdir⁴. O'zbekiston Respublikasi JIK 4-moddasiga ko'ra, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari xalqaro

⁴ **Masalan:** Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari. 1955 yil 30 avgust. Jeneva; Mahbuslar bilan muomala qilishning asosiy prinsiplari. 1990 yil 14 dekabr.; Mahbuslar yoki hibsga olingan shaxslarni qiynoq hamda jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatini kamsituvchi turlaridan

huquqning jazoni ijro etish va mahkumlar bilan muomalada bo'lishga taalluqli prinsiplari va normalarini inobatga oladi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari normalari mahkumlarni qiynoqqa solish va boshqa g'ayriinsoniy yoki kamsituvchi muomala turlaridan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro hujjatlarga zid bo'lishi mumkin emas. SHuningdek agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaning qoidalari qo'llaniladi.

3. O'zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya huquqiga oid siyosati va prinsiplari

Jinoyat-ijroiya huquqiga oid siyosat- bu jinoiy jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari ijro etish, mahkumlarni axloqan tuzatish, yangi jinoyatlar sodir etishning oldini olish borasida davlat faoliyatining prinsiplari, maqsad va yo'nalishlari, strategiyasi majmuidir.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov ko'rsatmalari asosida jinoyat uchun jazo tayinlash tizimi va shunga asosan jazoni ijro etish tizimini liberallashtirish borasidagi muhim islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Prezident o'z asarlarida va so'zlagan nutqlarida jinoyatga oid siyosatni va jazoni ijro etish tizimini erkinlashtirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni taklif qildi va buning aniq yo'llarini belgilab berdi.

Jinoyat-ijroiya huquqiga oid siyosat, huquqiy ijodkorlik, huquqni qo'llash va huquqiy tarbiya shakllarida amalga oshiriladi. Shuningdek, jinoyat ijroiya huquqiga oid siyosat jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi, zero, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati jinoyat, jinoyat prosessual qonunlari bilan birgalikda jinoyat ijroiya qonunlarini (penitensiar siyosat) ham qamrab oladi.

himoya qilishda sog'liqni saqlash xodimlarining, shifokorlarning rolga taaluqli tibbiyot etikasi prinsiplari. 1982 yil 18 dekabr; O'lim jazosiga hukm qilingan huquqlari himoya qilinishini kafolatlovchi choralar. 1984 yil 25 may.

Jinoyat-ijroiya huquqiiga oid siyosat insonparvarlik g'oyalariga singdirilgan maqsadni, ya'ni yuqorida ta'kidlanganidek, mahkumlarni axloqan tuzatishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-ijroiya kodeksi davlatning jazoni ijro etish tizimiga oid yangicha yo'nalishlarini belgilaydi. Bu borada, ayniqsa, JIK ning 6-moddasida mustahkamlangan **prinsiplar**⁵ juda muhimdir: qonuniylik, adolat, insonparvarlik, demokratizm, jazoni ijro etishda differensiasiya va individuallashtirishga rioya etish, majburlov vositalarini oqilona qo'llash va mahkumlarning qonunga itoatkor hulq-atvorini rag'batlantirish tamoyillariga asoslanadi. Bu tamoyillar JIKda berilgan bo'lishiga qaramay, qonunan yoritilmaydi. Ularning mohiyatini ilmiy va amaliy talqin qilish yo'li bilan yoritish lozim. Jinoyat-ijroiya qonuni tamoyillari amaldagi qonunchilikda batafsil berildi, avvalgi qonunchilikda faqat qonuniylik (ATMK 7-modda) tamoyili haqidagina gapirilgan edi. Boshqa tamoyillarning ayrim holatlari haqida jinoyat-ijroiya huquqi fanida fikr yuritilgan edi. Amaldagi qonunchilikda garchi ushbu tamoyillarning tushunchasi qonunda ochib berilmasa-da, ammo alohida moddada uning tamoyillari mustahkamlandi. Bu tamoyillar jinoyat ijroiya qonunchiligining mohiyatini belgilab beradi va ularga:

- huquqning bu sohasi o'z navbatida maqsadga muvofiq yunalishlarini belgilab beradi;
- jazolarni ijro etishdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yunalishlarini belgilaydi;
- jinoyat-ijroiya qonunlarining xalqaro qonunlarga muvofiqligini ta'minlash imkonini yaratadi;
- mahkumlarning jazolanish va ularning insoniylik munosabatlarini tartibga solish imkoniyatini yaratadi.

Qonuniylik tamoyili – O'z R Konstitusiyasining 14 va 15-moddalari va boshqa bir qator moddalarda o'z aksini topgan bo'lib, jinoyat-ijroiya qonunining

⁵ **Jinoyat-ijroiya huquqi prinsiplari** – huquqiy meъyorlarda mustahkamlangan va Jinoyat-ijroiya kodeksi vazifalaridan kelib chiqqan holda jazoni va boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etishning umumiy asoslarini, yo'nalishini va hajmini belgilovchi tayanch g'oyalardir.

normalarida u jinoiy jazo va boshqa majburlov choralarini ijro etishda qonun ustuvorligida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi JIKda mahkumlarning huquqiy holati (JIK 8-13 moddalari) to'g'risidagi normalarning belgilanishi ham qonuniylik prinsipining namunasidir. Ta'kidlash kerak, boshqa me'yoriy hujjatlarda emas, balki jinoyat-ijroiya qonunining o'zida mahkumlar huquqiy holatining mustahkamlanishi katta ahamiyatga ega. Bu boradagi normalarning qonunda mustahkamlanishi, o'z navbatida jinoiy jazo va davlatning boshqa majburlov choralarini ijro etishda qonunbuzarlikka yo'l qo'ymaslik borasida muhimdir. Bu esa JIKda nazarda tutilgan jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyatini davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan tekshirish, prokuror nazorati to'g'risidagi normalari (JIK 16-18 moddalari) orqali ta'minlanadi.

Adolat tamoyili har qanday mahkum garchand jinoyat sodir etgan bo'lishiga qaramay, adolat tamoyili asosida jazodan ozod qilinish imkoniyatiga ega bo'la oladi. Adolat tamoyilining qonunga tatbiq etilish qoidalarini davlatning jinoyat sodir etgan mahkumlarga nisbatan ijtimoiy munosabatini anglatadi. Bu borada JIKda nazarda tutilgan jinoyat sodir etgan shaxslarni afv etish to'g'risidagi normalarning nazarda tutilishining o'zi adolat tamoyilidan dalolat beradi. Shuningdek, JIK normalarida mahkumlarning axloqan tuzatish yo'liga o'tganligi, mehnatga halol munosabatda bo'lganligini hamda qonunlarini hurmat qilish va ularni bajarish ruhida bo'lganligini isbotlay olishi, ularga nisbatan rag'batlantiruvchi normalarni qo'llashda namoyon bo'ladi⁶.

Insonparvarlik tamoyili Jinoyat-ijroiya qonunchiligining ko'pgina institutlari va moddalarida, shuningdek xalqaro huquqiy hujjatlarda va mahkumlar bilan muomala qilish qoidalarida o'z aksini topgan bo'lib, u turli xil yo'nalishlar va shakllarda namoyon bo'ladi. Jumladan, «Mahbuslar bilan muomala qilishning asosiy Prinsiplari» da (1990 yil 14 dekabr') «Barcha mahbuslar inson sifatida qadr-

⁶ *Ba haqida qarang: Jinoyat-ijroiya huquqi.* Darslik. Masъ. Muh. B.Ahrorov. – Toshkent, 2002. B. 5-15.; *Jinoyat-ijroiya huquqi.* Darslik. Mas. Muh. B.Ahrorov. – Toshkent, 2008. B. 5-15.;

qimmat va ahamiyatga ega bo'lganliklari uchun o'zlariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'linishidan foydalanadilar.

Mahbuslarni ularning irqi, tanasi rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, tug'ilish yoxud boshqa belgisiga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmaydi» deb ta'kidlanadi. Fuqarolik va Siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktning 10-moddasida (1966 yil 19 dekabr) «Ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslar insonlarcha muomala qilinishi va inson shaxsiga xos bo'lgan qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega»⁷. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining ko'pgina moddalarida ham bu boradagi qoidalar mustahkamlangan bo'lib, xususan JIKning 4-moddasida «Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining normalari mahkumlarni qiynoqqa solish va boshqa g'ayriinsoniy kamsituvchi muomala turlaridan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro hujjatlarga zid bo'lishi mumkin emas»ligi ta'kidlanadi.

Insonparvarlik prinsipi, shu jumladan, davlatning jinoiy jazo va boshqa ta'sir choralarini ijro etishdan nazarda tutilgan maqsadlari bilan, ya'ni mahkumlarni axloqan tuzatish, ularni jamiyatni to'laqonli a'zosi sifatida jamiyatga qaytarish bilan bog'liqdir. Insonparvarlik tamoyilining asosiy g'oyalarini, shuningdek, JIKning 130-moddasi (Mahkuma homilador ayollar va bolasi bor ayollar uchun qo'shimcha huquqlar berish), 82-modda (Mahkumlarning alohida hollarda muassasa doirasidan chetga chiqishi), 76-modda (Mahkumlarning uchrashuvlari), 78-modda (mahkumlarning posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalari olish) va boshqa moddalarida ko'rish mumkin.

Demokratizm tamoyili. Jinoyat-ijroiya huquqining ko'pgina institutlari va normalari ushbu tamoiylga asoslangan bo'lib, u avvalo mahkumni huquqning ushbu sohasining sub'ekti deb tan olinishi bilan amalga oshiriladi. Ushbu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, mahkum (ayniqsa, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash mobaynida) jazoni o'tash mobaynida muayyan huquqlardan mahrum bo'lib, ijtimoiy himoyaga muhtojdir. Bu borada Jinoyat-ijroiya kodeksining 16-moddasiga ko'ra, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari

⁷ Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar. – Toshkent, 2004. – 24 b.

jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartiblarda tekshiradilar. YA'ni jinoyat-ijroiya tizimida davlat hokimiyati va boshqaruv hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtirok etishi, bu albatta jazolarni ijro etish tizimida demokratizm tamoyilining namunasidir. JIKning 99-moddasiga binoan «korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni tarbiyalashda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ishtirok etadilar» deb qayd etilgan, ya'ni jamoatchilik va fuqarolarning mahkumlarni tarbiyalashda ishtirok etishlari qonunda nazarda tutilganligi, shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish joylarida mahkumlarni otryad, brigada yoki kameralarga ajratilgan holda saqlash va o'zlarini o'zlari boshqarish tizimining joriy etilganligi asosida mahkumlar ma'muriyatga o'zlarining fikrlari va talablarini bayon qilish imkoniyatlari ham yaratilgan bo'lib, jazoni ijro etish muassasalarida homiy tashkilotlarning ishtirokiga ham yo'l qo'yiladi. Bu masala, ayniqsa, ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlikda ish yuritilishi ham aynan demokratizm tamoyilini namoyon etadi. Bundan tashqari, JIKning 79-moddasida mahkumlarning prokuror nomiga taklif, ariza va shikoyatlari ko'zdan kechirilmaydi hamda bir sutkalik muddat ichida tegishlilik bo'yicha jo'natiladi, deyilgan.

Jazoni ijro etishda differentsiatsiya⁸ va individuallashtirishga rioya etish tamoyili. *Jazoni ijro etishda differentsiatsiyalash* – sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, muqaddam sodir etgan jinoyatlarning xavfliligi, sodir etgan qilmishda aybning shakli, jazoni o'tash borasida xulqini e'tiborga olib, muayyan cheklashlar va ta'sir choralari qo'llashdir.

Jazoni ijro etishda individuallashtirish chorasi ham mahkumni axloqan tuzatishga qaratilgan bo'lib, mahkumning jazoni o'tash mobaynida individual, ya'ni alohida xususiyatlariga asoslanadi. Ushbu tamoyilga asosan JIK 7-moddasining 3-qismida, bu borada axloqan tuzatish vositalari jazo turini, sodir

⁸ Differetia- lotinchadan tarjima –qilinganda farqlash maʼnosini bildiradi. Lugʻatlarda ushbu tushuncha «butunni turli xil shakl va bosqichlarga ajratish», ayirish, qatamlarga ajratish sifatida tariflanadi.

etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, shuningdek, mahkumning shaxsi va xulq-atvorini inobatga olgan holda qo'llanilishi ta'kidlangan.

Jazoni ijro etishda individuallashtirish prinsipi mahkumning huquqiy holati, xulqi, olgan rag'batlantiruvchi va intizomiy jazo choralari orqali amalga oshiriladi.

Majburlov vositalarini oqilona qo'llash tamoyili. Ushbu prinsipga ko'ra, har bir mahkumga nisbatan majburlov choralari alohida-alohida qo'llaniladi. Uning xususiyati va vositalarini to'g'ri belgilash asosida mahkumlarni axloqan tuzatishga erishish mumkin bo'ladi. Majburlov vositalari har bir mahkumning kimligi, uning yoshi, jinsi, ijtimoiy dunyoqarashi, bilimi va hokazolarga nisbatan qo'llaniladi.

JIKning 7-moddasiga ko'ra: «Mahkumni axloqan tuzatish – unda qonunga itoatkor hulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, jimiyat turmush qoidalari va an'analariga hurmat munosabatini shakllantirishdan iborat».

Mahkumlarning qonunga itoatkor bo'lishi va hulq-atvorini rag'batlantirish tamoyili. JIKga binoan, mahkumlarning namunali xulqi, mehnatga halol munosabatda bo'lishligi, ichki tartib-intizomga rioya qilishi qonun bilan rag'batlantiriladi. (JIKning 44, 102–104, 113–135, 141–160-moddalari.) Agar mahkumning biror ijobiy xususiyatlari ijobiy rag'batlantirilmasa, u holda mahkumni axloqan tarbiyalashga erishib bo'lmaydi. Bunday rag'batlantirish turli xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Bularga tashakkur e'lon qilish, ilgari qo'llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash, kundalik sayr vaqtini bir soatga uzaytirish, mahkumlar sharoitini yaxshiroq sharoitlarga o'zgartirish, hatto boshqa engilroq jazolar bilan almashtirish va boshqalar bo'lishi mumkin.

4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-ijroiya qonuni

Jinoyat-ijroiya qonuni – jinoiy jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etish borasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni va mahkumlarni axloq tuzatish choralarini qo'llashni nazarda tutuvchi qonunlar tizimidir.

Amaldagi JIK qabul qilingunga qadar, 1970 yil 24 iyunda qabul qilingan ATMK (Axloq tuzatish mehnat kodeksi) amalda bo'lib, unda jinoiy jazolarning faqat axloq tuzatish bilan bog'liq bo'lgan turlarini ijro etishning huquqiy asosi nazarda tutilib, jinoiy jazolarning axloq tuzatish ishlari nazarda tutilmagan boshqa jazo turlari turli xildagi huquqiy aktlar bilan tartibga solinar edi.

Amaldagi Jinoyat-ijroiya qonunchiligi tizimi ancha vaqt mobaynida shakllandi va rivojlandi.

Ma'lumki, Turkistonda turmalar islohoti asosan 1919 yilda, ya'ni TurkMIKning 1918 yil 13 dekabr qarori bilan «Ozodlikdan mahrum etish jazo chorasi va uni o'tash tartibi to'g'risida» gi muvaqqat yo'riqnoma qabul qilinganidan so'ng amalga oshirila boshlandi.

Muvaqqat yo'riqnoma ozodlikdan mahrum qilishni ijro etish tizimining huquqiy asosi bo'lgan birinchi normativ hujjat edi. Ushbu me'yoriy hujjatda ozodlikdan mahrum etish joylarining quyidagi tizimi belgilangan edi:

- 1) umumiy qamoq joylari (turmalar);
- 2) tarbiyaviy-jazolash muassasalari bo'lmish reformatoriylar va ziroatchilik koloniyalari, bu ayniqsa yosh jinoyatchilar uchun mo'ljallangan edi;
- 3) saqlash rejimini yumshatish yoki muddatidan oldin ozod etish asos bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan sinov muassasalari;
- 4) sezilarli ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan tibbiy jazo muassasalari;
- 5) turma shifoxonalari.

1918-25 yillarda O'zbekistonda axloq tuzatish-mehnat qonunchiligi tizimi mustaxkam qaror topdi, ammo u hali kodifikasiyalanmagan edi.

Axloq tuzatish mehnat qonunchiligini kodifikasiyalash bo'yicha faol ishlar 1925 yilda boshlandi. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Sovetlari MIK, to'rtinchi sessiyasi **1926 yil 16 iyunda** O'zbekistonning birinchi Axloq tuzatish-mehnat kodeksini tasdiqladi. U umumiy Qoidalar hamda 231 ta moddani o'z ichiga olgan 10 ta bo'limdan iborat edi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turganidek, O'zbekiston Respublikasining 1926 yilgi ATMKda asosan bitta axloq tuzatish-mehnat muassasasi doirasida mahkumlarni saqlashning huquqiy holati va sharoitlarini o'zgartish bilan bog'liq progressiv sistema bo'yicha axloq tuzatish rejimini nazarda tutgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining Axloq tuzatish-mehnat kodeksi jazoni ijro etish va o'tashni huquqiy tartibga solish ishini qonunlashtirdi. Uning qabul qilinishi natijasida jazoni o'tash idoraviy normativ hujjatlar bilan emas, balki qonun bilan tartibga solinadigan bo'ldi.

Kodeks jazo o'tashning progressiv tizimini o'rnatdi, jamoatchilikning taqsimlash, kuzatish komissiyalari shaklidagi ishtirokini, shuningdek, mahkumlarga va qamoqdan bo'shatilganlarga yordam ko'rsatish qo'mitalarining faoliyatini tartibga soldi.

1934 yil 19 iyunda O'zbekiston Respublikasi AXK tashabbusi va MIKning qarori bilan O'zbekistonning ikkinchi Axloq tuzatish-mehnat kodeksi qabul qilindi. Kodeks faqat Adliya komissarligiga qarashli axloq tuzatish-mehnat muassasalarining faoliyatini tartibga solardi.

1958 yil 8 dekabrda Ittifoq Ministrlar Sovetining farmoyishi bilan Ittifoq IIV axloq tuzatish-mehnat koloniyalari va turmalari to'g'risidagi nizom e'lon qilindi.

Sakkizinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1970 yil 24 iyunda bo'lib o'tgan ettinchi sessiyasi O'zbekiston Respublikasi Axloq tuzatish-mehnat kodeksining loyihasini tasdiqladi va uni **1970 yil 1 noyabrdan** boshlab amalga kiritish haqida qaror chiqardi. Ushbu kodeks 27 yil amal qildi.

1997 yil 25 aprelda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan va **1997 yil 1 oktyabridan** amalga kiritilgan Jinoyat ijroiya kodeksida jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etish bo'yicha ilg'or qoidlar o'z aksini topdi, ya'ni ushbu kodeks (JIK) mustaqil O'zbekiston Respublikasida nafaqat jinoiy jazolarni, balki boshqa huquqiy ta'sir choralarini⁹ ham

⁹ **Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini deganda** – JIKning 174-moddasiga ko'ra, shartli hukm qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini, voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralarini kiradi.

ijro etishning huquqiy asosini yaratib berdi va aynan shunday qonun-qoidalarini bilan ilgari jazoni ijro etish qonunchiligidan tamomila farq qiladi.

5. Jinoyat-ijroiya qonuni normalarining tuzilishi

Jinoyat ijroiya huquqi normalari – bu jinoiy jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari ijro etishda yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalardir.

O'zbekiston Respublikasi JIKning 1-moddasiga ko'ra, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, shuningdek Jinoyat ijroiya kodeksi va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Jinoyat ijroiya kodeksi ikki qismdan iborat: Umumiy va Maxsus qism. JIKning Umumiy qismi bir bo'lim, 4 bob, 18 moddadan iborat. JIKning Maxsus qismi esa 8 bo'lim, 30 bob, 179 moddadan iborat. Jami bo'lib, O'zbekiston Respublikasining JIK 9 bo'lim, 34 bob, 197 moddadan iborat.

JIKning Umumiy qismi jinoyat ijroiya huquqiga oid umumiy qoidalar, ya'ni jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari, prinsiplari, amal qilish doirasi, manbalari, mahkumni axloqan tuzatish vositalari (JIK 1–7 moddalari), mahkumlarning huquqiy holati (JIK 8–13 moddalar), jazolarni va boshqa huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlar (JIK 14–15 moddalar), shuningdek ushbu muassasa va organlar faoliyatini nazorat qilish masalalari (JIK 16-18 moddalari).

JIKning Maxsus qismi barcha jinoiy jazolar va boshqa huquqiy ta'sir choralari ijro etish tartibi va shartlarini mustahkamlaydi. Jumladan, kodeksning *ikkinchi bo'lim* 19-20 moddalarida jarima jazosini ijro etish tartibi, 21-25 moddalarida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibi, 26-32 moddalarida axloq tuzatish ishlari jazosini ijro etish tartibi va shartlari, *uchinchi bo'lim* 33-44 moddalarida qamoq jazosini ijro etish masalalari, *to'rtinchi bo'lim* 45-135 moddalarida ozodlikdan mahrum qilish jazaosini ijro etish tartibi va shartlari, *beshinchi bo'lim* 136-140 moddalarida umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etish tartibi va shartlari, *oltinchi bo'limi* harbiy xizmatchilarga

qo'llaniladigan jazolarni ijro etish masalalari (JIK 141-160 moddalar), *ettinchi bo'lim* qo'shimcha jazolarni ijro etish tartibini (JIK 161–162 moddalar), *sakkizinchi bo'lim* jazoni o'tashdan ozod qilish masalalari (163–173 moddalar), *to'qqizinchi bo'lim* boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etishni nazarda tutadi.

Jinoyat-ijroiya qonuni normalari o'z tuzilishiga ko'ra, boshqa huquq sohalaridan farq qilmaydi.

Jinoyat-ijroiya kodeksi normalari: gipoteza, dispozisiya va sanksiyadan iborat.

Gipoteza – jinoyat ijroiya huquqiga oid normaning bir qismi bo'lib, u jinoyat-ijroiya qonuni normasini amalda qo'llanish usuli va vaqtini namoyon qiladi. Masalan, JIK ning 82-moddasida mahkumning muassasa hududidan tashqariga chiqishi asoslari, 129-moddasida mahkumning 21 yoshga to'lganidan keyin umumiy tartibli koloniyaga o'tkazilishi nazarda tutilgan.

Dispozisiya – jinoyat-ijroiya huquqi munosabatlari sub'ektlarining huquqlari, majburiyatlarini belgilovchi qismidir.

Sanksiya – jinoyat-ijroiya qonuni normalarining dispozisiyasida nazarda tutilgan talablarni bajarmaganligi uchun kelib chiqadigan huquqiy oqibatlardir. Masalan, JIK ning 105-moddasida ogohlantirish, hayfsan, engillashtirilgan saqlash sharoitini bekor qilish, intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi sanksiyalar nazarda tutilgan. Ular jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlarining faqat bir sub'ektiga, ya'ni mahkumga qo'llanilishi mumkin.

Ushbu mavzu bo'yicha *xulosa* qilib shuni ta'kidlash mumkinki, jinoyat – ijroiya huquqi huquq sohasining mustaqil tarmog'i, u o'ziga xos predmet, metod, maqsad va vazifalar, prinsiplarga ega.

Nazorat uchun savollar

1. Jinoyat-ijroiya huquqi boshqa qanday huquq tarmoqlari bilan bog'liq?
2. Jinoyat-ijroiya huquqi qanday ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi?

3. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya huquqi tizimini liberallashtirishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-ijroiya kodeksining tizimi qanday?
5. Jinoyat-ijroiya huquqi prinsipi sifatida qanday tamoyillar nazarda tutilgan?
6. Kimlar jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlarning sub'ektlari bo'lishi mumkin?
7. Jinoyat-ijroiya huquqining «maxsus prinsiplari» qanday ma'noni anglatadi?
8. Mahkumlarni axloqan tuzatish nima va u qaysi aspektlar orqali aniqlanadi?

Topshiriqlar:

I topshiriq. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha daftaringizda jinoyat-ijroiya huquqining boshqa huquq tarmoqlari bilan bog'liqligini sxema tarzida ishlab chiqing.

II topshiriq. Jinoyat-ijroiya huquqining manbalari sifatida xalqaro huquq hujjatlari bilan tanishib chiqing va mohiyatini tahlil qiling.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. Karimov I. Adolat – qonun ustuvorligida // Xalq so'zi. 2001 y. 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Birinch marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslarning jazo o'tash sharoitlarini liberallashtirish to'g'risida»gi Farmoni // 2003 y. 26 sentyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent, 2008. - 1-7 moddalar.
5. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Ma'. Muh. B.Ahrorov. – Toshkent, 2008.-B. 7-19.
6. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo. Kurs leksiy. – Tashkent: Akademiya MVD, 2002. – S. 5-28.
7. M.A.Abduxalikov va boshq. Jinoyat-ijroiya huquqi: Albom sxemalar. – Toshkent, 2005. – B. 5-8.
8. Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar.-Toshkent: TDYUI, 2007. 5-17-bet.

2-MAVZU. MAHKUMLARNING HUQUQIY HOLATI

Reja:

1. *Mahkumlarning huquqiy holati tushunchasi.*
2. *Yuridik yordam olish va shaxsiy xavfsizlik huquqi.*
3. *Mahkumlarning majburiyatlari.*
4. *Ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tayotgan mahkumlarning huquqiy holati.*

Darsning maqsadi: mahkumlarning asosiy huquqlari, shaxsiy xavfsizlik huquqi, yuridik yordam olish huquqi va ularning o'ziga xos xususiyatlari, mahkumlar huquqiy holati va oddiy fuqarolar huquqiy holatidagi farqlarini ochib berish, mahkumlarning huquqlari to'g'risida bilim ko'nikmalarini hosil qilish.

Dars o'tish vositalari: mahkumlar huquqiy holatini ifoda etuvchi sxemalar, statistik ma'lumotlar, bu boradagi xalqaro huquqiy-hujjatlari tahlili, sud amaliyoti materiallari, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, proyektor.

Dars o'tish usullari. Ma'urza matnini tayyorlash, mavzuga oid qonun hujjatlaridan foydalanish, muammoli ta'lim, talabalarga seminar mashg'ulotlari mavzularini berish, ularning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, aqliy hujum.

1.Mahkumlarning huquqiy holati tushunchasi

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mahkumlarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya va hurmat qiladi, shu bilan birgalikda jazoni ijro etish davomida ularga axloqan tuzatish vositalarini qonunga rioya qilgan holda qo'llash, shaxsiy xavfsizlik huquqini ta'minlashni nazarda tutadi. Jazolarni va boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etish davomida ayrim cheklashlar bilan ularning Konstitusiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklari kafolatlanadi. Ya'ni shaxs jinoyat sodir etganligi uchun jazoni o'tayotganiga qaramasdan, unga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi maqomi amalda bo'ladi. Lekin jinoiy jazo muayyan oqibatlarni keltirib chiqarishini inobatga olib, mahkumlarning maxsus huquqiy holati to'g'risida gapirish mumkin.

Mahkumlarning huquqiy holati – bu ularning jazoni o'tash davomida ega bo'lgan asosiy (konstitusiyaviy), fuqarolik maxsus huquq va majburiyatlari bo'lib hisoblanadi. Mahkumlarning huquqiy holati hamisha munozarali va dolzarb bo'lib kelgan. Muqaddam qabul qilingan ATMKdan farqli ravishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi JIKda alohida bob bag'ishlangan bo'lib (2-bob, 8-13 moddalar), u hozirgi kunda mahkumlarning huquqiy holati me'yoriy aktlar bilan emas, balki qonun normalari bilan tartibga solinganligini ko'rsatadi¹⁰.

Mahkumlar huquqiy holatining qonun darajasida belgilab olinishi alohida ahamiyatga ega. Birinchidan, u mahkumlik holatini belgilab bersa, ikkinchidan, ularning manfaatlarini himoya qilish uchun ham zarur bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, jazoning turi va muddati qanday ekanligiga nisbatan JIKning Maxsus qismida ham bu masala yanada aniqlashtirib berilgan. Mahkumlar huquqiy holatining qonunda belgilanishining amaliy ahamiyati, jazoning maqsadini amalga oshirishning usuli va vositalarini anglatadi. SHuning uchun ham mahkumlar huquqiy holatlarining siyosiy va amaliy ahamiyati bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Jazoni o'tayotgan mahkumlar ularga qanday jazo tayinlangan bo'lishidan qat'i nazar, o'z majburiyatlarini bajaradilar hamda qonunda mustahkamlangan doirada sud hukmida belgilangan tartib bilan bog'liq bo'lgan huquqlardan foydalanadilar. Ya'ni ushbu holda, jazoning turi va mazmunidan kelib chiqqan holda, mahkum o'zining asosiy huquq va majburiyatlaridan, jamiyat a'zolidan mahrum qilinmaydi. Ularda huquq layoqati, muomala layoqati, fuqarolik huquqiy munosabatlarining sub'ekti bo'lib qolish huquqi saqlanadi. Ammo mahkumlar huquqiy layoqati boshqa barcha fuqarolarning huquqiy holatidan farq qiladi. Bu farq mahkumga jazo qo'llash, ruhiy va moddiy jafo keltirish bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi JIKning 8-moddasida: «Mahkumlar, JIK va boshqa qonunlarda belgilangan istisno hamda cheklashlar inobatga olingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga

¹⁰ Bu haqida batafsil qarang: **Inog'omov Sh. H.** Ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilinganlarning jazoni o'tash sharoitlarini tasniflash va diffferensiyalash. – Toshkent: Adolat, 2001. – B.23-36.

ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar», deyilgan. Ta'kidlash kerak, fuqarolarning huquq va erkinliklari jinoyat qonunchiligi yoki Jinoyat-ijroiya qonunida nazarda tutilgan asoslarda faqat sudning hukmi bilangina chegaralanishi mumkin. Bunday chegaralanish jazoning aniq turi mohiyatidan kelib chiqadi. Mahkumning qolgan huquq va erkinliklari boshqa fuqarolar qatori qonun bilan himoya qilinadi. Davlat mahkumni jazolash bilan jazoning mohiyatidan kelib chiqadigan huquq va erkinliklardan mahrum qiladi va boshqa huquq va manfaatlarini qanday bo'lishidan qat'i nazar himoya qilishga majburdir. Boshqa huquq va manfaatlar deganda, jamiyat a'zoli, fuqarolik va oilaviy munosabatlari, mulkiy va boshqa huquqlari va hokazolar nazarda tutiladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, mahkumlarning huquqiy holatini cheklashni quyidagicha tasniflash mumkin:

- jinoyat-huquqiy choralarning turlariga qarab;
- huquq sohalari bo'yicha;
- qonunchilikda nazarda tutilgan cheklashlarga qarab;
- ijtimoiy mohiyatiga ko'ra.

Jinoyat-huquqiy choralarning turlariga ko'ra quyidagi cheklashlarni ajratish mumkin:

- jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lgan jazolar (qamoq, ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish);
- jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar (jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash;
- mahkumni umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

Huquq sohalari bo'yicha mahkumning huquqiy holati quyidagicha cheklanishi mumkin:

- konstitusiyaviy huquqlari (saylash va saylanish huquqi);
- fuqarolik-huquqiy cheklashlar (mulkka egalik saqlanadi, ammo foydalanish ta'qiqlanadi);
- oila huquqi (farzandlar tarbiyasida to'la ishtirok eta olmaydi);

- mehnat huquqi (oddiy fuqarolardan farqli ravishda JIK 88- moddasiga ko'ra, ayrim istisnolardan tashqari, mehnat majburiy sanaladi);

Qonunchilikda nazarda tutilgan cheklashlar:

- bevosita, to'g'ridan-to'g'ri me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan cheklashlar (masalan, O'z R Konstitusiyasida ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tayotgan shaxslar saylash va saylanishi mumkin emasligi mustahkamlangan);

- bilvosita cheklashlar (me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilmagan, ammo jazoning mohiyatidan kelib chiqadigan cheklashlar (farzand tarbiyasi bilan shug'ullanma olmasligi, mulkidan foydalana olmasligi va boshq.);

Ijtimoiy mohiyatiga qarab:

- shaxsiy (shaxsiy daxlsizlik, tintuv, xat-yozishmalarning sir saqlanishi, erkin harakat qilish, yashash joyini erkin tanlash);

- siyosiy (namoyishlar va mitinglarda ishtirok eta olmasligi);

- ijtimoiy-iqtisodiy (mulk huquqi, mehnat huquqi va boshq.)

JIK ning 8-moddasiga ko'ra, «Mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquqlar, erkinliklarga ega bo'lishlari va majburiyatlarni bajarishlari mumkin.

JIKning 9-moddasiga ko'ra, mahkumlar quyidagi *asosiy huquqlarga* ega:

- jazoni o'tash tartibi va shartlari to'g'risida, o'z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot olish;

- jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatiga, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga o'z ona tilida yoki boshqa tilda taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat etish;

- o'z taklif, ariza va shikoyatlariga murojaat etilgan tilda javob olish;

- tarjimon xizmatidan foydalanish;

- o'quv, badiiy va boshqa xil axborot materiallaridan foydalanish;

- sog'liqni saqlash, shu jumladan tibbiy xulosaga ko'ra ambulatoriya-poliklinika va stasionar sharoitda tibbiy yordam olish; ijtimoiy ta'minot, shu jumladan pensiya olish.

2. Mahkumlarning yuridik yordam olish va shaxsiy xavfsizlik huquqi

Mahkumlar advokatlardan malakali yuridik yordam olish huquqiga ega. Yuridik yordam olish uchun advokatlar bilan uchrashuv mahkumlar arizasiga ko'ra beriladi. Mahkumlarning advokatlari bilan uchrashuvlari mahkumning qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashish sonlariga kirmaydi, ya'ni mahkum cheklanmagan mikkdorda advokat bilan uchrashishi mumkin.

Ta'kidlash kerak, amaldagi Jinoyat-ijroiya qonuni birinchi marta mahkumlarning shaxsiy xavfsizlik huquqini ta'minlashni qonunda nazarda tutgan. Mahkumning butun jazoni o'tash davomida shaxsiy xavfsizlik huquqini ta'minlash, jazoni ijro etuvchi muassasalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. JIKning 11-moddasiga ko'ra, «qamoq jazosiga, intizomiy qismga jo'natish yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning xavfsizligiga tahdid yuzaga kelgan taqdirda, u o'z shaxsiy xavfsizligini ta'minlash haqida iltimos bilan jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organning har qanday mansabdor shaxsiga murojaat etishga haqli. Mahkum murojaat etgan mansabdor shaxs darhol uning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishga majbur. Tahdid turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin, masalan, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, tan jarohati etkazish, qiynash, besoqolbozlik va boshq.

Ushbu hollarda mahkum boshqa muassasaga ko'chirilishi yoki boshqa kameraga o'tkazilishi yoxud tahdid qilayotgan mahkumlarga nisbatan intizomiy jazolar qo'llanilishi, turmaga o'tkazilishi mumkin. Bu borada JIK 57-moddasining 2-qismida «mahkumni bir koloniyadan aynan shu turdagi boshqa koloniyaga jazoni o'tashni davom ettirish uchun o'tkazishga uning xavfsizligini ta'minlash maqsadida uning roziligini olgan holda, shuningdek mahkumning

mazkur muassasada qolishiga to'sqinlik qiluvchi boshqa hollarda yo'l qo'yilishi» nazarda tutilgan.

3. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarning huquqiy holati

Mahkumning huquqiy holatining dastlabki cheklanishi unga belgilangan jazoning turiga bog'liq bo'ladi. Jazo mahkumning ozodligiga qaratilgan bo'lsa, u ozodlikdan mahrum qilinib, jamiyatdan ajratiladi, uning erkin harakatlanishini, o'z xohishi buyicha ish tanlash, yashash joyini tanlash huquqidan to'la (jazoni o'tash mobaynida va sudlanganlik muddati tugallanmagan hollarda) mahrum etiladi. Keyinchalik, jazoni o'tash joyining turiga qarab yana boshqa huquqlari ham cheklanishi mumkin. Jazoni o'tash joylarida ozod shaxslardan farqli ravishda umumjamoat qoidalarini bajarish majburiyatlari kelib chiqadi. Jumladan, o'zining yotish va yurish joylarini ozoda saqlash, shaxsiy ozodalikka rioya qilish, ichki tartib-qoidalariga buysunish kabi majburiyatlar yuklatiladi.

Mahkumlarga shuningdek, jazoni o'tash tartibi va shartlari bilan bog'liq bo'lgan qonunlarni bajarish majburiyati yuklatiladi.

Mahkumning huquqiy holati o'zgarib turishi mumkin, ya'ni agar mahkum ichki tartib-qoidalarga rioya qilgan, ijobiy tavsifga ega bo'lsa, yengillashtirilgan rejimdagi koloniyaga o'tkazilishi yoki mahkumga intizomiy jazo qo'lanilganda (engillashtirilgan saqlash sharoitini bekor qilish, intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish) yoki koloniya turi o'zgarishiga sabab bo'luvchi intizomiy jazolanganda (mehnat manzil-koloniyasidan umumiy yoki qattiq tartibli koloniyaga, qattiq, tartibli koloniyadan maxsus tartibli koloniyaga, koloniyadan turma qamog'iga o'tkazilganida) bo'lishi mumkin. Bunday o'zgarishlar mahkumning axloqan tuzalganida rag'batlantirish holatlarida ham sodir bo'lishi mumkin. Mahkumni umumiy yoki qattiq tartibli koloniyadan manzil-koloniyaga o'tkazilganida, uning huquqiy holatida juda katta o'zgarish ruy beradi. Chunki manzil-koloniyada mahkumlarni saqlash tartibi boshqa koloniyalarga nisbatan ancha engil bo'lib,

mahkum ushbu holda boshqa koloniyalardan farqli ravishda, erkin yurishi, cheklanmagan miqdorda pul olib yurishi, sirdan o'qishi, fuqarolik namunasidagi kiyimda yurishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir fuqaroning fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi kafolatlanadi. Shunga asosan JIKning 12-moddasiga ko'ra, *mahkumlarga vijdon erkinligi* kafolatlanadi. Ular har qanday dinga e'tiqod qilishga yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikka haqli. Qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan shaxslar huzuriga, ularning iltimosiga ko'ra, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan diniy birlashmalarning ruhoniylari taklif etiladi. Mahkumlarga diniy rasm-rusumlarni ado etishga, ibodat uchun kerakli narsalarni va diniy adabiyotlardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Diniy rasm-rusumlarni ado etish ixtiyoriy bo'lib, bu narsa jazoni ijro etuvchi muassasaning ichki tartib qoidalarini buzmasligi, shuningdek boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitmasligi kerak.

Yuqoridagilarga ko'ra ta'kidlash mumkinki, **mahkumlarning huquqiy holati** – bu muayyan jazoning mohiyati, maqsad va vazifalaridan kelib chiquvchi asosiy (konstitutsiyaviy), fuqarolik maxsus huquq va majburiyatlaridir.

Nazorat uchun savollar

1. Mahkumlar huquqiy holati nima va u nimalarga asoslanadi?
2. Mahkumlar huquqiy holatida qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkin va nimaga asosan amalga oshiriladi?
3. Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan mahkumlarning huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari qanday?
4. Mahkum ajnabiy fuqarolarning huquqiy holati qanday?
5. Jinoyat-ijroiya qonunchiligini liberallashtirish jarayonida mahkumlarning huquqiy holatida qanday o'zgarishlar nazarda tutildi?

I topshiriq. Mahkum fuqarolar bilan oddiy fuqarolar huquqiy holatining o'zaro farqlarini sxematik tarzda ifoda eting va mahkumlar huquqiy holatidagi cheklashlarni aniqlang.

II topshiriq. Qaysi xalqaro hujjatlarda mahkumlar huquqiy holati to'g'risidagi qoidalar mustahkamlanganligini aniqlang.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. Karimov I. Adolat- qonun ustuvorligida // Xalq so'zi. 2001 y. 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Birinch marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslarning jazo o'tash sharoitlarini liberallashtirish to'g'risida»gi Farmoni // 2003 yil 26 sentyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent, 2008. - 8-13 moddalar.
5. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Ma'. Muh. B.Ahrorov. – Toshkent, 2008. 19-31-b.
6. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo. Kurs leksiy. – Toshkent: Akademiya MVD, 2002.- S. 42-52.
7. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo Rossii. – Moskva: YUrist. – S. 114-133.
8. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi: Umumiy qism. Darslik. – Toshkent, 2005. – B. 370-437.
9. M.A.Abduxolikov va boshq. Jinoyat-ijroiya huquqi. Albom sxemalar. – Toshkent, 2005. – B. 9-11.
10. Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar.-Toshkent:TDYUI, 2007. 17-28-b.

3-MAVZU. JARIMA, MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH VA AXLOQ TUZATISH ISHLARI, QAMOQ TARIQASIDAGI JAZOLARNI IJRO ETISH

Reja:

1. *Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi organ va muassasalar.*
2. *Jarima va muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etish.*
3. *Axloq tuzatish ishlari jazosini ijro etish.*
4. *Qamoq jazosini ijro etish.*

Darsning maqsadi. Jazolarni va boshqa majburlov choralari ijro etuvchi organ va muassasalarni aniqlash, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish tartibi va shartlarini ochib berish, qamoq jazosini ijro etish tartibi borasidagi bilim ko'nikmalarini hosil qilish.

Dars o'tish vositalari. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish tizimini ifoda etuvchi sxemalar, sud amaliyoti materiallari, Jinoyat-ijroiya kodeksi, darslik, o'quv qo'llanmalar, IIVning yuqoridagi jazolarni ijro etish bo'yicha Yo'riqnomasi, proyektor.

Dars o'tish usullari. Darsning mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fanlarning yutuqlaridan foydalangan holda erkin tahlil qilish va mavzuga oid ma'ruza matni, seminar mavzulari bilan tanishtirish, mavzuga oid qonun hujjatlarini seminar mashg'ulotlarida keng tahlil qilish, munozarali jihatlar yuzasidan ekspress so'rovlar, munozara.

1. Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalar

O'zbekiston Respublikasi JIK ning 14-moddasida jazolarni ijro etuvchi muassasa va organlar tizimi mustahkamlangan bo'lib, jazolarni ijro etuvchi organ va muassasalarning vazifalari har doim bir xil bo'la olmaydi. U jazoni o'tash davomidagi ichki tartib-qoidalariga ham bog'liq hisoblanadi. Jumladan, Ichki ishlar organlari tizimiga nafaqat ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan

mahrum qilish jazosini ijro etish, shu bilan birgalikda, axloq tuzatish ishlari, qamoq, muayyan huquqdan mahrum qilish jazolarini ijro etish masalasi ham yuklatiladi. Bundan tashqari, Ichki ishlar organlarining maxsus inspeksiyalariga shartli hukm qilinganlar ustidan nazorat qilish ham yuklatiladi.

Jinoyat-ijroiya kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi 30 avgust 2003 yildagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan jarima tariqasidagi jazo sud tomonidan emas, balki O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sud faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti tomonidan ijro etiladi (JIK 14-modda).

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi jazo, endilikda ushbu qonunga asosan mazkur unvonni bergan organ tomonidan ijro etiladi.

Harbiy jazolardan – xizmat bo'yicha cheklash jazosini harbiy xizmatchi xizmatni o'tayotgan harbiy qismning qo'mondonligi tomonidan, harbiy xizmatchiga qo'llanilgan qamoq jazosi Mudofaa vazirligi tomonidan tashkil qilinadigan garnizon gaupvaxtalari tomonidan, intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazo maxsus tashkil etilgan harbiy qismlar tomonidan ijro etiladi.

Jazoni ijro etish muassasalari ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni ijro etish uchun tashkil etiladi. Ichki ishlar organlarining inspeksiyalari axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish, qamoq, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolarini ijro etadi. Ular shuningdek shartli hukm qilinganlar ustidan nazorat o'rnatadilar, hisobga oladilar.

Yuqorida ta'kidlanganlardan tashqari, jazoni ijro etish muassasalari qamoq, ozodlikdan mahrum etilgan yoki qamoq jazosiga hukm qilingan alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarning jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ham ijro etadilar.

O'zbekiston Respublikasi JIKning 15-moddasiga ko'ra, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan ruhiy kasallarga nisbatan-sog'liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan ijro etiladi. Alkogolizm, giyovandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarga nisbatan –

sog'liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan, ular ozodlikdan mahrum etish yoki qamoqqa hukm qilingan taqdirda esa – ichki ishlar organlarining tibbiy muassasalari tomonidan ijro etiladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari, ya'ni jabrlanuvchidan uzr so'rash, etkazilgan zararni to'lash yoki bartaraf etish majburiyati – sud tomonidan, maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish esa – xalq ta'limi organlari tomonidan ijro etiladi.

Bundan tashqari, sudning qaroriga ko'ra tanosil yoki OITS kasalligiga, shuningdek, ochiq shakldagi sil kasalligiga chalingan mahkumlarga ham majburiy davolanish qo'llaniladi. Ba'zi bir jazolarni (muayyan huquqdan mahrum qilish) ijro etish buyicha ayrim tashkilot, muassasa yoki ularning mansabdor shaxslari ham jalb qilinadilar. Jumladan, sudning muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining ijrosiga mahkum mehnat qiladigan muassasa yoki korxona rahbariga jazoning ijrosi yuklatilishi mumkin.

JIKda jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalar tomonidan jazolarni ijro etishini tekshirish hamda nazorat qilish tartibini ham belgilab beradi. Bunday tekshirish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan (JIK, 16-modda).

Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organlar faoliyati ustidan doimiy prokuror nazorati o'rnatiladi. Bunday nazorat qonunga (JIK 17-moddasi) binoan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga buysunuvchi prokurorlar tomonidan doimiy nazorat tarzida amalga oshiriladi.

2. Jarima va muayyan huquqdan mahrum qilish jazolarini ijro etish asoslari va tartibi

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunida ozodlikdan mahrum qilishdan boshqa jazolar nazarda tutilgan bo'lib, uning 43-moddasiga ko'ra, quyidagi jazolar jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar hisoblanadi: jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 44-moddasiga binoan, *jarima* eng kam oylik ish haqining besh baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda mahkumdan davlat foydasiga pul hisobida undiriladigan mablag'dir. Jarima muqobil jazo tariqasida faqat asosiy jazo sifatida tayinlanadi, u oylik maoshi hisobidan yoki boshqa jamg'armadan ham to'lanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida» gi qaroriga ko'ra, jarimani sud mahkumning sodir qilgan jinoyatining ijtimoiy xavfliligini hamda uning moddiy ahvolini hisobga olgan holda tayinlaydi. Mahkum sud tomonidan tayinlangan jarimani to'lash imkoniyatiga ega bo'lishligi kerak.¹¹

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jarima faqat uning mustaqil oylik ish haqi mavjud bo'lgan taqdirdagina tayinlanishi mumkin. Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jarimaning miqdori eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda belgilanishi mumkin.

Jarima jazosini ijro etish sudning hukmi qonuniy kuchga kirgan kunning ertasi kunidan boshlanadi. Jarima jazosining ijro etilishi sud ijrochilari departamentiga yuklatilgan. Sud hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan mahkumga *uch oy muddat* ichida ixtiyoriy ravishda to'lash uchun imkoniyat beradi. Jarimani ixtiyoriy to'lash muddati 1 oy, majburiy to'lov muddati esa 2 oy hisoblanadi. Uni to'lash manbai nafaqat oylik maoshi, balki pensiyalar, nafaqalar, va jamg'armalar ham bo'lishi mumkin. Jarima sudning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yoki naqd pul to'lash yo'li bilan ham to'lanishi mumkin. Mahkum to'lov hujjatini sudga taqdim qiladi.¹²

Jinoyat-ijroiya qonunchiligiga binoan (19-moddasining 2-qismi), jarimani qonunda belgilangan muddat mobaynida to'liq to'lash imkoni bo'lmasa, sudning qarori bilan *bo'lib-bo'lib to'lashga* yoki *kechiktirib to'lashga* ruxsat berilishi

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2006 yil 3 fevraldagi «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida» gi 01-sonli qarori.// Qarorlar to'plami, 2003.

¹² *Bu haqida batafsil qarang: Payzullaev Q.* Jarima jazosini ijro etish muammolari. O'quv qo'llanma – Toshkent, 2007.

mumkin. Jinoyat-prosessual kodeksining 533-moddasiga binoan, kechiktirish muddati olti oydan oshib ketmasligi lozim.

Agar mahkum jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda to'lashdan bo'yin tovlasa yoxud qarzdorda undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulk mavjid emasligi tufayli majburiy ijro etish uchun belgilangan muddat mobaynida jarimani ijro etishning iloji bo'lmasa, xuddi shuningdek kechiktirish muddati tugaganidan keyin jarima to'lanmagan yoki bo'lib-bo'lib to'lash shartlari buzilgan taqdirda, sud uning to'lanmagan miqdorini axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari bilan almashtirishi mumkin.

Bunday holda axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo'yicha cheklash yoxud , ozodlikdan mahrum qilishning har bir oyi eng kam oylik ish haqining 16 baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga, qamoqning har bir oyi esa, eng kam oylik ish haqining 100 baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, olti oydan ko'p bo'lmagan muddatga tayinlanadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish O'zbekiston Respublikasi JKning 45-moddasida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra «muayyan huquqdan mahrum qilish, bu shaxsni sud tayinlagan muddat davomida korxonalar, muassasalar yoxud tashkilotlarda u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishini taqiqlashdan iboratdir. Muayyan huquqdan mahrum qilish jinoyat qonunida asosiy jazo sifatida bir yildan besh yilgacha, qo'shimcha jazo tariqasida bir yildan uch yilgacha tayinlanishi belgilangan. Muayyan huquqdan mahrum qilish jinoyat qonuni Maxsus qism sanksiyasida asosiy jazo tariqasida ko'rsatilgan bo'lsa, qo'shimcha jazo sifatida tayinlanishi mumkin emas. Sud bu jazoni qo'shimcha jazo tariqasida qonunda ko'rsatilmagan hollarda ham tayinlashga haqlidir. Sud o'z hukmida mahkum qanday huquqlardan mahrum qilinganligini aniq ko'rsatib o'tishi lozim bo'ladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etish. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining ijrosi qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga (ajrimiga) muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu jazoga hukm qilinganlar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida va sud hukmida ko'zda tutilgan cheklashlardan tashqari

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun qonunlarda belgilangan barcha huquqlardan foydalanadilar.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi axloq tuzatish ishi, intizomiy qismga jo'natish yoki qamoq jazosiga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan bo'lsa, asosiy jazoning butun muddatiga, bundan tashqari sud hukmi bilan tayinlangan muddatga joriy etiladi va uning muddati hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtidan boshlab hisoblanadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan hollarda asosiy jazoni ijro etayotgan muassasa ma'muriyati uning tugashiga 20 kun qolganda, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilganda yoki jazo engilroq jazo bilan almashtirilganda, ozod etish kuni u yashagan turar joydagi ichki ishlar bo'limiga hukmning nusxasini yuboradi. Ozod etilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomada ham qo'shimcha jazo mavjudligini ko'rsatilishi talab etiladi.

Ushbu jazo ijrosini nazorat qilishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi IIV ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijrosini nazorat qilish boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIB ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijrosini nazorat qilish bo'lim va bo'linmalari zimmalariga yuklatiladi. Joylarda (shahar va tumanlarda) sud hukmlarining ijrosini mahkumlarning turar joylari bo'yicha IIB jazoni ijro etish inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

O'z R JIKning 22-moddasida jazoni ijro etish inspeksiyasining *majburiyatlari* bayon etilgan bo'lib, jazoni ijro etish inspeksiyasi muayyan huquqdan mahrum qilingan mahkumlarni ruyxatga oladi; mahkum ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyatiga yoki muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organga hukm talablarini ijro etish haqida xabarnoma yuboradi; mahkumning hukmda ko'rsatilgan taqiqlarga rioya etishini tekshiradi; mahkum ishlaydigan korxona, tashkilot, muassasa ma'muriyati, shuningdek, muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organlar tomonidan hukm talablari qanday bajarilayotganligini tekshiradi. Bundan tashqari,

jazoni ijro etish inspeksiyasi mahkumga jazoni o'tash muddati mobaynida hukm talablarini buzmaslik haqida tushuntirish ishlari ham olib boradi.¹³

Qonunda jazoni ijro etish inspeksiyasining majburiyatlari bilan birgalikda mahkum ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyatining hukmni ijro etish borasidagi majburiyatlari ham bayon qilingan (JIK ning 23-moddasi). Jumladan, ma'muriyat o'z navbatida mahkumni hukmda ko'rsatilgan jazoga ko'ra uch kun ichida egallash yoki shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan lavozimdan yoki mehnat faoliyatidan ozod qiladi; jazolarni ijro etish inspeksiyasiga hukm talablari ijro etilganligi haqida tegishli hujjatlar bilan birga xabar yo'llaydi; agar mahkum boshqa ishga o'tgan yoki u bilan tuzilgan shartnoma bekor qilingan taqdirda bu haqda jazolarni ijro etish inspeksiyasiga xabar qiladi.

Shuningdek, ilgari qonundan farqli ravishda mahkum jazoni ijro etish mobaynida harbiy xizmatga chaqirilgan taqdirda, jazoni ijro etish inspeksiyasining vazifasi ham belgilab beriladi. Unga ko'ra inspeksiya hukmning nusxasini mudofaa ishlari bo'limiga yoki mahkum xizmatni o'tayotgan joyga yuboradi.

Muayyan huquqdan mahrum qilingan korxona ma'muriyati mahkumning jazosi o'tashi buyicha ham nazorat olib borishi kerak. Jumladan, mahkum hukm talablarini buzishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini oladi, uni ogohlantiradi va tushuntirish ishlari olib boradi.

Muayyan huquqdan mahrum qilingan mahkum hukm talablarini hukmda ko'rsatilgan muddat mobaynida bajarishi shart. U jazoni ijro etish inspeksiyasi talablarini bajarishi, chaqirig'iga ko'ra darhol borishi, ish joyidagi o'zgarishlari haqida xabardor qilishi lozim bo'ladi. Mahkum hukm talablarini buzib, mahrum qilingan faoliyat bilan shug'ullanishni davom ettiradigan bo'lsa, u holda bu jazoni o'tash muddatiga qo'shilmaydi. Lekin, bu faoliyatni to'xtatish haqidagi inspeksiya bayonnomasi taqdimidan keyin ham davom ettiradigan bo'lsa, hukm talabini

¹³ **Bu haqida batafsil qarang:** Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid **Yo'riqnoma**. /O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2001 yil 298-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. <http://www.norma.uz>

bajarishdan buyin tovlagan deb hisoblashga asos bo'la oladi (JIK ning 25-moddasi).

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining muddati tugashi bilan jazoni ijro etish inspeksiyasi bu haqda bayonnoma tuzadi va bu bayonnomani mahkumga taqdim etadi. Mahkum bu bayonnomani o'z ish joyiga topshirishi mumkin. Bundan tashqari, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosidan muddatidan avval ozod qilinishi ham mumkin. Bunday ozod qilish jazoning kamida yarmi o'tganidan keyin inspeksiyaning taqdimnomasiga binoan, sud tomonidan hal qilinadi.

3. Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni ijro etish asoslari va tartibi

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 46-moddasiga ko'ra, axloq tuzatish ishlari jazosi asosiy jazolardan biri bo'lib, u shaxs ish haqining 10 dan 30 foizgacha bo'lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda mahkumni mehnatga jalb qilishdan iborat bo'lib, jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning ish joyida yoki jazoning ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan joyda o'taladi.

Axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanadi. SHuningdek, axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga etganlarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, yosh bolasini boqish uchun ta'tilda bo'lgan ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Mahkumni tarbiyalash nuqtai nazardan jazoni o'zi ishlab turgan joyida belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jazoni ijro etish joyi turli mulk shakllaridagi korxona, muassasa va tashkilot bo'lishi mumkin.

Hukm chiqarish vaqtida hech qaerda ishlamaydigan yoki doimiy ish joyi bo'lmagan shaxslarga axloq tuzatish ishlarining umumiy asoslarda o'tash tartibi belgilangan¹⁴.

¹⁴ **Bu haqida batafsil qarang:** Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid **Yo'riqnoma**. /O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2001 yil 298-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. <http://www.norma.uz>.

Jinoyat ijroiya kodeksining 7 bob, 26-32 moddalari axloq tuzatish ishlari jazosini ijro etish tartibi va shartlarini o'z ichiga oladi.

Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning ijrosi qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga (ajrimiga) muvofiq mahkumning o'z ish joyida yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladi.

Ushbu jazoga hukm qilingan shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida va sud hukmida ko'zda tutilgan cheklanishlardan tashqari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan barcha huquqlardan foydalanadilar va majburiyatlarni bajaradilar. Bu qoida O'zbekiston Respublikasi hududida shunday jazoni o'tayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Axloq tuzatish ishlari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o'taladi.

Jazoni o'z ish joyida o'tash sharti bilan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar sudlangunga qadar ishlagan joylarida va egallagan lavozimlarida o'taydilar. Bunday shaxslarni boshqa ishga yoki lavozimga o'tkazish mehnat qonunlarida belgilangan umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Axloq tuzatish ishlarining nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladigan turi respublika hududi doirasida respublika «Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijrosini nazorat qilish boshqarmasi» tomonidan belgilangan tartibda o'taladi.

Ularni mehnatidan ish joyidan tashqari zarurat tug'ilganda turar joy bilan ham ta'minlash imkoniyati bor bo'lgan korxonalarda shartnoma asosida foydalanilishiga yo'l qo'yiladi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan axloq tuzatish ishlari o'z ish joyida, aybdor hech qaerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan, ammo o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'taladi.

Jazolarni ijro etish inspeksiyalari:

- axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarni ruyxatga oladi;
- mahkumga jazoni o'tashning tartibi va shartlarini tushuntiradi;

- boshqa joylarda o'taladigan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarni ishga jo'natadi;

- mahkumlar tomonidan jazoni o'tash shartlariga rioya etilishini tekshiradi va qonunda ko'rsatilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi (JIK 27-moddasi).

JIK ning 28-moddasiga ko'ra mahkum ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati quyidagilarga majbur:

- mahkumning ish haqidan to'g'ri va o'z vaqtida chegirib qolinishini hamda chegirib qolingan summa davlat foydasiga o'tkazilishini ta'minlash;

- mahkumga nisbatan qo'llanilgan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari haqida, uning jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganligi, boshqa ishga o'tkazilganligi haqida, mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqida jazolarni ijro etish inspeksiyasini xabardor qilish.

Ish joyida o'tash uchun axloq tuzatish ishiga hukm qilinganlarning jazo muddati korxona ma'muriyati jazoni ijro etish inspeksiyasidan xabarnoma olgan kunidan boshlab, ushbu jazoni boshqa joylarda o'tashga hukm qilinganlar esa, jazo muddatini o'tash uchun jo'natilib, korxonada ish boshlangan kundan boshlab hisoblanadi. Sud hukmi nusxasi (ajrimi) korxonaga yuborilgan vaqtda, mahkum navbatdagi mehnat ta'tilida bo'lsa, axloq tuzatish jazosi muddatini o'tash hisobi ta'tildan qaytib kelib, birinchi ish boshlagan kunidan hisoblanadi.

Axloq tuzatish ishining muddatini hisoblash kalendar hisobida olib boriladi, hisoblash amaldagi qonunchilik tomonidan jazo uchun muddatiga qo'shilishi lozim bo'lgan kunlar soni asosida olib boriladi. Ko'rsatilgan kunlar hisobi korxona uchun belgilangan oylik ish jadvali kunlaridan kam bo'lmasligi kerak. Jazo o'tash muddatiga qo'shilishi kerak bo'lgan kunlar soni jadvalda belgilangan oydagi ish kunlaridan oshib ketgan taqdirda ortiqcha ishlagan kunlar hisobga olinmay, bir oy ishlagan deb hisoblanadi.

Agar mahkum sud tomonidan belgilangan jazo muddati davomida ish kunlari sonini kerakligicha ishlab bermagan bo'lsa va ishlamagan ish kunlari sonini axloq tuzatish ishi muddatiga qo'shishi uchun asos bo'lmasa, axloq tuzatish ishlarini

o'tash mahkum belgilangan ish kunlari miqdorini to'liq ishlab bergunga qadar davom etadi.

Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash muddatiga mahkumning ishlagan va uning ish haqidan ushlab qolingan vaqti (oylar, kunlar) qo'shiladi.

Shuningdek, mahkumning axloq tuzatish ishi jazosini o'tash muddatiga quyidagilar ham qo'shiladi:

a) mahkum uzrli sabablarga ko'ra ishlamagan va unga qonunga asosan ish haqi to'lanayotgan hamda qo'shimcha ta'tilda bo'lgan vaqti;

b) kasallik hamda kasalga qarash uchun berilgan vaqtlar;

v) hukm qilingan qishloq ho'jalik a'zolariga ob'ektiv shart-sharoitlar tufayli ish berilmagan bo'lsa va agar ularning ishlagan jami kunlari xo'jalik bo'yicha ho'jalik a'zolari uchun belgilangan yillik minimumdan yoki yilning ayrim davrlariga oid minimumlardan kam bo'lmasa, shu ishlamagan davrdagi vaqt;

g) sud hukmi (ajrimi) ga asosan mahkumning shu jinoyatni sodir etganligi munosabati bilan ehtiyot chorasi sifatida dastlabki qamoqda bo'lgan vaqtining har bir kuni axloq tuzatish ishi jazosining 3 kuniga teng holda jazo o'talgan hisoblanadi;

Quyidagi hollatlar jazo muddatiga *qo'shib hisoblanmaydi*:

a) boshqa jinoyat sodir etganligi sababli qamoqda saqlangan vaqti hamda ma'muriy jazo tariqasida hibsda bo'lgan vaqti;

b) oylik ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lgan vaqti;

v) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganligi yuzasidan nafaqa to'lanmaydigan kasallik vaqti;

g) kasalga qarash uchun berilgan vaqtdan tashqari mahkum ishlamaganligi sababli unga oylik ish haqi to'lanmagan hamma boshqa vaqtlar.

Axloq tuzatish ishiga hukm qilinganlarning oylik ish haqidan ushlab qolish mahkumning jazo muddatini o'tashni boshlagan kunidan amalga oshiriladi.

Ushlab qolish, jami ish haqidan soliq va boshqa to'lovlarni istisno qilmagan holda, shuningdek mahkumlarga ijro hujjatlari bo'yicha da'volar mavjudligidan

qat'iy nazar amalga oshiriladi va har oyning ikkinchi yarmi uchun to'langan ish haqidan, ishdan bo'shaganda esa oyning ishlagan qismi uchun olinadi.

Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta tartibida olinayotgan nafaqa va yordam pullaridan, ish haqi tizimida nazarda tutilmagan to'lovlardan va bir marta to'lanadigan pul mukofotlaridan (foydalanilmagan ta'til uchun beriladigan), ish jadvalidan ortiq ishlagan oylik ish haqidan, ishdan bo'shaganda qonunga muvofiq beriladigan puldan, yangidan ishga tushganda, boshqa ishga o'tganda, safarga borganda beriladigan pullardan, ishchining shaxsiy asboblardan foydalanganligiga va berilmagan maxsus kiyimlar va poyabzallar uchun to'lanadigan pullardan va boshqa badal to'lovlaridan ushlanmaydi. Harbiy o'quv yig'inlariga chaqirilgan mahkumlarning ish haqidan ushlab qolish ish joyida amalga oshiriladi.

Mahkumlarning ish haqidan davlat foydasiga ushlab qolinayotgan pullarni korxona ma'muriyati har oyda oylik ish haqini bergan kuni tegishli davlat banklarining hisob-kitob raqamiga o'tkazib boradi. To'lov qog'ozlari bilan birgalikda bank muassasalariga ushlab qolingani ajratmalar haqida hisob ma'lumoti yuboriladi. Hisob ma'lumotlari odatda to'lov qog'ozlarining orqasida ko'rsatiladi.

Ish haqidan ushlab qolingani pul miqdorini naqd pul bilan yoki pochta orqali o'tkazish yo'li bilan olish qat'iyan man qilinadi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimlari hisob varaqalari bo'yicha oyma-oy ushlangan pullarning tushganligini tekshiradi va o'tkazib berishning to'xtab qolganligi aniqlangan holda darhol undirish choralarini ko'radi.

Mahkumlarni ish haqidan to'g'ri va o'z vaqtida chegirib qolinishini hamda chegirib qolingani ajratmalarni davlat foydasiga o'tkazilishini ta'minlamagan, shu bilan birga ularning ishlagan davri, oyligi va chegirib qolingani ajratmalar to'g'risidagi hisob ma'lumotini doimiy ravishda noto'g'ri yoki o'z vaqtida bermagan hollarda jazoni ijro etish inspeksiyasi tegishli aybdor mansabdor shaxslarga qonunda belgilangan javobgarlikka tortish choralarini ko'radi.

Mahkumlarning ishlagan kunlari va oyligidan ushlanib o'tkazilgan pullar to'g'risidagi ma'lumotlar bank muassasalarining joriy schyotlari ko'chirmalariga

asosan ularni hisob varaqalariga uch kun mobaynida kiritilishi kerak. Hisob ma'lumotlari va to'lov qog'ozlari maxsus jildlarga tikiladi.

Sud hukmi bekor qilingan hamma holatlarda oylik ish haqidan ushlab qolingani hamma pullar mahkumga qaytarib beriladi. Hukmning o'zgartirilishi yoki bekor qilish haqidagi sudning ajrimi (qarori) pullarning qaytarib berilishiga asos bo'lib hisoblanadi.

Axloq tuzatish ishiga hukm qilingan shaxslar quyidagi asoslarda jazoni o'tashdan ozod qilinadi va hisobdan chiqariladi:

- a) sud hukmi bilan belgilangan jazo muddatini o'tab bo'lganda;
- b) amnistiya akti qo'llanganda;
- v) avf etilishi sababli;
- g) sud hukmi bekor bo'lgani uchun jinoiy ish yotqizilgan taqdirda;
- d) hukm bo'yicha belgilangan jazo turi o'zgartirilganda;
- e) O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining tegishli moddalari asosida muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilganda;
- j) qonunda ko'rsatilgan boshqa asoslarda.

Jazo o'tashdan ozod qilinganlardan tashqari quyidagi hollarda ham mahkumlar hisobdan chiqariladi:

- a) yashash joyini o'zgartirganligi sababli jazoni ijro etish inspeksiyasi xizmat qilayotgan hududdan tashqariga chiqib ketgan shaxslar;
- b) vafot etganlar;
- v) axloq tuzatish ishini o'tashdan qasddan bosh tortganligi uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan shaxslar;
- g) yangi jinoyat sodir etib, ozodlikdan mahrum etilganlar.

4.Qamoq tariqasidagi jazoni ijro etish

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 48-moddasiga ko'ra, **qamoq**-shaxsni batamom ajratga sharoit ostida saqlashdan iborat bo'lib, u bir oydan olti oygacha, voyaga yetmaganlarga esa, bir oydan uch oygacha tayinlanishi mumkin.

Qamoq jazosini ijro etish tartibi Jinoyat ijroiya qonunining uchinchi bo'lim, sakkizinchi bob, 33-44 moddalari bilan belgilanadi. JIKning 33-moddasiga ko'ra «qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar jazoni hukm chiqarilgan joydagi maxsus qamoq uylarida o'taydilar».

Jazoning butun muddati odatda bitta qamoq uyida o'talishi kerak. Mahkumni bir qamoq uyidan boshqasiga uning xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'tkazilishi mumkin. Mahkum kasal bo'lib qolgan taqdirda uni tibbiy xulosa asosida davolash muassasasiga o'tkazish mumkin.

Mahkumlar jazoni o'tash joylariga tergov hibsonasi ma'muriyati hukm qonuniy kuchga kirganligi to'g'risidagi sud xabarnomasini olgan kundan uch kunlik muddat ichida jo'natiladi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar ikki kishilik, to'rt kishilik yoki umumiy kameralarda saqlanadilar. Mahkumlar fuqarolik namunasidagi kiyimda jazoni o'taydilar. Ularga har kuni muddati bir soatlik, voyaga yetmaganlar, homilador ayollar va bolasi bor ayollarga esa – bir yarim soatlik sayr qilish imkoniyati beriladi.

JIK ning 35-moddasiga ko'ra, qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarga alohida holatlardan tashqari boshqa hollarda telefon orqali so'zlashuvlar, uchrashuvlar (voyaga yetmaganlar bundan mustasno, ularga yaqin qarindoshlari bilan har oyda bir marta uch soatgacha bo'lgan qisqa muddatli uchrashuv beriladi) posilkalar olish, oziq-ovqat sotib olish uchun ruxsat berilmaydi, ammo davolanishga va kuchli ovqatlanishga muhtoj mahkumlarga tibbiy xulosa asosida ularning shaxsiy hisob varag'idagi mablag'lardan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga ruxsat etiladi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar eng zarur narsalarni pul o'tkazish yo'li bilan belgilangan eng kam ish haqining o'ttiz foizidan oshmaydigan summaga sotib olishlari mumkin. Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar eng zarur narsalardan iborat bitta banderol yoki yo'qlov olishlari, shuningdek, JIK ning 40-moddasiga ko'ra, ular cheklanmagan miqdorda xat olishlari va jo'natishlari mumkin.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslarning maishiy-yashash sharoitlari gigiena va sanitariya qoidalariga mos bo'lishi shart.

Bir mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi ikki yarim kvadrat metrdan kam bo'lishi mumkin emas. Unga yotish uchun alohida joy, ko'rpa-to'shak, choyshab beriladi. Mahkumlar mehnatga jalb qilinmaydi, ammo qamoq uyining xo'jalik xizmatiga oid ishlarga haftasiga to'rt soatgacha bo'lgan muddatga haq to'lamagan holda jalb etilishi mumkin.

Mahkumlarni boshqa qamoq uylariga ko'chirishning boshqa favqulodda holatlari bo'lib, qamoq uyini suv bosishi, yong'in sodir bo'lishi, er qimirlashi natijasida avariya holatining kelib chiqishi, ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqishi va boshqa holatlar bo'lishi mumkin. Qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarga ham bir qator *rag'batlantirish* (tashakkur elon qilish, oldin qo'llanilgan intizomiy jazoni olib tashlash, sayr vaqtini bir soatga ko'paytirish) va *intizomiy choralari* (ogohlantirish, hayfsan, karserga kiritib qo'yish) qo'llaniladi.

Nazorat uchun savollar

1. Jazoni ijro etuvchi organ va muassasalarga qaysi organ va muassasalar kiradi?
2. Jarimani o'tashdan bo'yin tovlash nima va uning huquqiy oqibatlari qanday?
3. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etishda mahkum uchun qanday majburiyatlar nazarda tutilgan?
4. Qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarning huquqiy holati qanday?
5. Qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarga qanday intizomiy jazolar qo'llanilishi mumkin?

I topshiriq. Axloq tuzatish ishlari jazosini ijro etishda mahkumning majburiyatlarini tahlil qiling.

II topshiriq. Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslarning huquqiy holatini tahlil qiling.

III topshiriq. JIKning 19-44 moddalari bilan tanishib chiqing va tahlil qiling.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
2. Karimov I. Adolat – qonun ustuvorligida // Xalq so'zi. 2001 y. 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent, 2005. -19-44-moddalar.
4. Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. –Toshkent:TDYUI, 2007. 36-77-b.
5. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Ma'. muh. B.Ahrorov. – Toshkent, 2008.-B. 31-62-b.
6. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo. Kurs leksiy. – Tashkent: Akademiya MVD, 2002. –S. 52-69.
7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2011. - 44-48 moddalar.
8. Usmonaliev M. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida axloq tuzatish ishlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2003. - 44 b.
9. Abduxoliqov M.A. va boshq. Jinoyat-ijroiya huquqi. Albom sxemalar. – Toshkent, 2005 - B. 12-26.
10. Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid *Yo'riqnoma* //O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2001 yil 298-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. . <http://www.norma.uz>

4 - MAVZU. OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISH

Reja:

- 1. Ozodlikdan mahrum qilish tushunchasi, belgilari va ahamiyati.*
- 2. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etuvchi muassasalar.*
- 3. Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni tasniflash tushunchasi va mohiyati.*
- 4. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil qilish.*

Darsning maqsadi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishning asosiy qoidalarini ochib berish, ushbu jazoni ijro etuvchi muassasalar to'g'risida ma'lumotlar berish, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlarni tasniflash tizimini ishlab chiqish.

Dars o'tish vositalari. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tizimini ifoda etuvchi sxemalar, sud amaliyoti materiallari, jinoyat-ijroiya kodeksi normalarining tahlili, ko'rgazmali qurollar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, O'z R Oliy Sudi Plenum qarori, xalqaro-huquqiy hujjatlar, O'z R IIV ning 2001 yil 08 maydagi 118-sonli «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari», proyektor.

Dars o'tish usullari. Mavzuga oid ma'ruza matni, seminar mavzulari bilan tanishtirish, mavzuga oid qonun hujjatlarini seminar mashg'ulotlarida keng tahlil qilish, munozara tarzda jonli muloqot tashkil qilish va bu borada ekspress so'rovlar, test so'rovlari o'tkazish, koloniyalar turini ochib berishda klaster usuli.

1. Ozodlikdan mahrum qilish tushunchasi, belgilari va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 50-moddasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo'lib, u jazo tizimida nazarda tutilgan eng og'ir jazolardan biridir. Ozodlikdan mahrum qilish mahkumni sud belgilagan muddat davomida jamiyatdan ajratib, jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga

joylashtirishdan iboratdir. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi asosiy jazo hisoblanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi sud tomonidan shaxsning sodir etilgan jinoyati uchun olti oydan yigirma yilgacha tayinlanishi mumkin. Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish esa yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga belgilanadi va faqat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-moddaning ikkinchi qismi) va terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) uchun tayinlanishi mumkin. Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas.

Mahkumni ozodlikdan mahrum qilinganida unga qo'llaniladigan majburlov choralarining xususiyatlariga ko'ra mahkumga bo'lgan davlat siyosati, jamiyat siyosati o'z ifodasini topadi¹⁵.

Ozodlikdan mahrum qilish jazo tariqasida, odatda, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan shaxslarga, alohida hollarda esa, sudlanuvchining shaxsini inobatga olib, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan, agar bunday shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatish imkoni bo'lmasa, qo'llaniladi.

Bugungi kunga kelib, ozodlikdan mahrum qilish jazosi tub isloh qilinmoqda va ushbu jazoni ijro etishni, ayniqsa, birinchi marta ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlarni jazoni o'tash sharoitlarini liberallashtirish borasidagi islohotlar shular jumlasidandir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2003 yil 26 sentyabrdagi «Birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslarning jazo o'tash sharoitlarini liberallashtirish to'g'risida»gi Farmoni shular jumlasidandir.¹⁶

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida» gi Qarori // Qarorlar to'plami. – Toshkent, 2006 y. 3 fevral. № 1.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2003 yil 26 sentyabrdagi «Birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslarning jazo o'tash sharoitlarini liberallashtirish to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Axborotnomasi. – Toshkent, 2003 № 3. – B. 3-5.

Ma'lumki, birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga sudlanganlarni nisbatan chegaralangan sharoitda va shu bilan birga muqaddam sudlangan shaxslar bilan birga saqlash ko'pincha ularning tuzalishi va qayta tarbiyalanishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslar odatda ularni ozodlikdan mahrum etish joylarida axloqan tuzalishiga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan, nisbatan mustahkamroq oilaviy va boshqa foydali ijtimoiy aloqalarga ega bo'ladilar. Ammo qattiq tartibli koloniyalarda jazo o'tayotib, ular amaldagi qonunchilikka binoan umumiy tartibli koloniyalarda jazo o'tayotganlarga nisbatan qarindoshlari va yaqinlari bilan bir muncha kam muloqotda bo'ladilar. Ushbu holatlarni inobatga olib, sud-huquq islohotlari va liberallashtirishning navbatdagi bosqichi jarayonida uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etib, birinchi marta sudlangan shaxslar ozodlikdan mahrum etish jazosini manzil koloniyalarda, o'ta og'ir jinoyat sodir etib, birinchi marta sudlanganlar esa umumiy tartibli koloniyalarda o'tashlari maqsadga muvofiq deb topildi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining samaradorligini, odatda ilgari shu jazo bilan jazolanganlarning yana yangi jinoyat sodir etishi bilan aniqlanadi. Mahkumning og'ir qismati boshqa shaxslarni jinoyat sodir etishining oldini olishi, ularni ogohlantira olishi, jazoning samaradorligini belgilab beradi.

2. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etuvchi muassasalar

O'zbekiston Respublikasi JIK ning to'rtinchi bo'lim, 9-23 boblari, 45-197 moddalari ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi va shartlari to'g'risidagi normalarni nazarda tutadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etish muassasalari, ya'ni ijro etuvchi muassasalar jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari va turmalar, tergov hibsonalari, davolash muassasalarida ijro etiladi. Jazoni ijro etish muassasalari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyruqlari bilan tashkil qilinadi va tugatiladi. Mahkumlarni yangi ochilayotgan jazoni ijro etish muassasalariga yuborish zaruriy turarjoy va maishiy sharoitlari mavjud bo'lgan taqdirda odatdagidek, O'zbekiston

Respublikasi Ichki Ishlar vazirining buyrug'i bilan tayinlangan maxsus hay'atlar tomonidan barcha ob'ektlarni foydalanish uchun qabul qilib olinganidan so'ng amalga oshiriladi.

Tergov hibsonalari ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasalari vazifasini bajaradi.

Jazoni ijro etish koloniyalarida voyaga etgan mahkumlar jazoni o'taydilar. Voyaga yetmagan mahkumlar ozodlikdan mahrum qilish jazosini tarbiya koloniyalarida o'taydilar. O'zbekiston Respublikasi JIKga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi 2003 yil 12 dekabrda Qonuniga ko'ra tarbiya koloniyalari endilikda umumiy va kuchaytirilgan tartiblarga bo'linishi nazarda tutilmagan. Bunday o'zgartirish albatta, voyaga yetmaganlarni ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash tartibini liberallashtirish natijasidir.

Turmalar o'z navbatida faqat voyaga yetgan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan (JIK 45-moddasi).

Jazoni ijro etish muassasalari namunaviy loyihalar asosida quriladi. Muassasa hududi odatda bir-biridan ajratilgan, uchastka-sektorlarga bo'linadi (manzil koloniyalar va turmalar bundan mustasno). Jazoni ijro etish koloniyalarida va tarbiya koloniyalarida ikkita bir-biridan ajratilib qo'yilgan zonalar bo'lib, bular mahkumlarning yashashi uchun turarjoy va ishlashi uchun ishlab chiqarish zonalaridir.

Turarjoy zonasida turarjoy binolari, muassasa boshlig'i va uning o'rinbosarlari, tezkor va tartibot xodimlarining xizmat xonalari, ma'muriy bino, harbiy naryad kontrolerlari uchun mo'ljallangan xonalar, navbatchilik xizmati binosi, oshxona-emaxxona, magazin (do'kon), maktab, mahkumlarning kasb-hunar ta'limi hamda kasbiy tayyorgarlik binolari, klub, kutubxona, stasionari mavjud tibbiyot bo'limi, kir yuvish xonasi va dezkamerasi bor hammom, sartaroshxona, almashtiriladigan ko'rpa-to'shak, choyshab, maxsus kiyim, kundalik foydalaniladigan shaxsiy buyumlar, asbob-uskuna va inventarni saqlash uchun imoratlar, shuningdek, kiyim va poyabzalni ta'mirlash ustaxonalari, suv

qaynatiladigan kubxona, sanitariya uzeli joylashgan. Oshxona–emakxona qoshida nonvoyxona jihozlanishi mumkin¹⁷.

Jazoni ijro etish koloniyalari manzil-koloniyalarga, umumiy, qattiq, maxsus tartibli koloniyalarga bo'linadi.

Manzil koloniyalar quyidagilarga bo'linadi:

- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniyalar;

- umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan, shuningdek tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniyalar.

Umumiy tartibli koloniyalar quyidagilarga bo'linadi:

- og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

- o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

- og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan ayollar saqlanadigan koloniyalar (muqaddam ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan, shuningdek o'ta xavfli retsdivist ayollar bundan mustasno).

Qattiq tartibli koloniyalar quyidagilarga bo'linadi:

- ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

- ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, o'ta xavfli retsdivist ayollar saqlanadigan koloniyalar.

¹⁷ **Bu haqida batafsil qarang:** «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari. –Toshkent,2001. 3-bet, 17-band.

Maxsus tartibli koloniyalar ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan, o'ta xavfli retsidivist deb topilgan erkaklarni saqlash uchun mo'ljallangan. SHuningdek, maxsus tartibli koloniyalarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlar ham saqlanadi.

Turmalar turma qamog'iga hukm qilingan shaxslarni, shuningdek umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzganligi uchun o'tkazilgan shaxslarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Qasddan sodir etilgan og'ir jinoyati uchun birinchi marta sakkiz yilgacha va sakkiz yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxslar alohida hollarda mahkumning yozma roziligi bo'lgan taqdirda, muassasa boshlig'ining qaroriga binoan xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun tergov hibsonasi yoki turmada qoldirilishi mumkin.

Ushbu mahkumlar jazoni qulflab qo'yilmaydigan umumiy kameralarda, boshqa shaxslardan batamom ajratilgan holda umumiy tartibli koloniyalarda nazarda tutilgan sharoitlarda jazoni o'taydilar.

Voyaga yetmagan shaxslar, ajnabiy mahkumlar va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining sobiq xodimlariga mansub mahkumlar xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilmaydilar.

3. Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni tasniflash tushunchasi va mohiyati

Ma'lumki, jinoyat-ijroiya qonuni prinsiplari ichida jazoni ijro etishda differensiasiya va individuallashtirish prinsiplari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu prinsip xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan qoidalarni o'zida aks ettiradi. Jumladan, «Mahbuslar bilan muomala qilish to'g'risidagi Minimal standartlar qoidalar»ning 67-moddasiga ko'ra, mahkumlarni tasniflashning maqsadlari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

-mahbuslarni jinoiy o'tmishi yoki fe'l-atvorining salbiy tomonlari tufayli yomon ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lganlardan ajratish;

- jamiyatdagi hayotga qaytarish borasidagi ishlarni engillashtirish uchun ularni toifaga bo'lishdan iboratdir.

Mahkumlarni tasniflashning vazifalari:

- jazoni ijro etish muassasalariga to'g'ri joylashtirish;
- jazoni ijro etish koloniyalarida bir kategoriyadagi mahkumlarni boshqa kategoriyadagi mahkumlardan ajratish;
- mahkumlarga axloqan tuzatish vositalari va usularini diferensial va individual tartibda tatbiq etish hisoblanadi.

Shunga ko'ra, Mahbuslar bilan muomala qilish to'g'risidagi Minimal standart qoidalarining 68-moddasiga ko'ra, "Turli toifadagi mahbuslar bilan ishlashni imkon qadar boshqa-boshqa muassasalarda yoki aynan bir muassasaning boshqa-boshqa bo'limlarida olib borilishi lozim» deyiladi.¹⁸

Nisbatan uzoq muddatga hukm qilingan har bir mahbus qabul qilinib, uning fe'l-atvori o'rganilgandan keyin qisqa muddat ichida u bilan ishlash dasturini tayyorlash, bunda individual ehtiyojlari, qobiliyati va moyilligiga asoslanish kerak.

Jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligida nazarda tutilgan mahkumlarni tasniflash masalalari avvalo jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni tasniflash bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi JK 15-moddasida jinoyatlarni tasniflash masalalari nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, jinoyatlar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Jinoyatlarni tasniflash orqali mahkumlarni tasniflash jarayoni amalga oshirilishi mumkin. O'z navbatida jinoyat sodir etgan shaxslar quyidagi gurhlarga bo'linadi:

A) sodir etilgan jinoyatning og'irlik darajasiga qarab:

-ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxslar;

¹⁸ **Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari.** 1955 yil 30 avgust. Jeneva // Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar. - Toshkent, 2004. - 132 b.

-og'ir, o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslar;

B) jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab:

-birinchi marta sudlanganlar;

-birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlar;

- muqaddam o'ta xavfli retsidivist deb topilgan shaxslar.

Yuqorida ko'rsatilganidek, tasniflash masalalari sudga jazo tayinlash qoidalarini alohidalashtirishga imkon beradi. Ammo tasniflashning ushbu ikki turi jazoni ijro etish vazifalarini amalga oshirishga imkon bermaydi. Agar jazoni ijro etish muassasalariga faqat jinoyatning og'irlik darajasiga qarab taqsimlanganda edi, ushbu holda birinchi marta og'ir jinoyati uchun sudlangan va bir necha marta sudlanib, oxirgi marta uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sudlanganlar jazoni birgalikda o'tashlariga to'g'ri keladi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarni tasniflash biologik (ijtimoiy), yuridik, psixologik va pedagogik mezonlariga ko'ra amalga oshiriladi.

Biologik mezon (ijtimoiy) mahkumlarning jinsi va yoshini nazarda tutadi. Ushbu belgilarga ko'ra, voyaga yetmaganlar voyaga etganlardan, shuningdek, ayollar erkaklardan alohida saqlanadi.

Yuridik (huquqiy) mezon jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, jinoyatning og'irligi, muqaddam sudlanganligi, jazoning muddati, aybning shakli, fuqaroligini nazarda tutadi.

Mahkumlarni tasniflashning ushbu qoidalariga ko'ra, sudlangan ayollar va erkaklar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- birinchi marta og'ir bo'lmagan jinoyat uchun 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar;
- muqaddam ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar, ammo o'ta xavfli retsidivist deb topilmaganlar;
- o'ta xavfli retsidivistlar;
- umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilganlar;

- O'zbekiston Respublikasiga qarshi, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlar;
- ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etganlar;

Mahkuma ayollar quyidagi guruhlarga bo'linadi;

- o'ta xavfli retsdivistlar;
- ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan boshqa guruhdagi mahkumlar.

Erkak jinsidagi voyaga yetmagan mahkumlar:

- ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlar uchun sudlanganlar;
- birinchi marta qasddan uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatlar uchun sudlanganlar;
- og'ir jinoyatlari uchun sudlanganlar;
- muqaddam ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqanlar.

Shaxsni biologik va yuridik mezonlariga ko'ra tasniflash faqat sud tomonidan ayblov hukmi e'lon qilinishida amalga oshiriladi va ko'rsatib o'tilgan mahkumlarning barchasi alohida saqlanadi. SHuning bilan birgalikda, JIK 58-moddasiga ko'ra,

- mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;
- sud va huquq – tartibotni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar;
- turli yuqumli kasalliklarga chalingan mahkumlar.

Tarbiyaviy (pedagogik) mezonga ko'ra tasniflash deganda, mahkumning jazoni ijro etish muassasasidagi axloqi darajasiga qarab, ya'ni mehnat, ta'lim, jamoaga munosabati va boshqa holatlar e'tiborga olinadi.

Axloqan tuzalish darajasiga qarab, mahkumlar

- ijobiy tavsifga ega bo'lgan (yaxshi xulqi, mehnatga vijdonan munosabati, tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etishi);
- saqlash rejimini ashaddiy buzuvchilarga bo'linadi (JIK ning 112-moddasi).

Aynan yuqoridagi holatlarni e'tiborga olib, jazoni ijro etish muassasasi mahkumlarni muddatidan ilgari jazodan shartli ravishda ozod qilish jazoni engilrog'i bilan almashtirish, engillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish masalalarini qarab chiqishi mumkin.

Psixologik mezon (ruhiy) – bu mahkumlarni shaxsiga oid xususiyatlardan kelib chiqib, (ya'ni temperamenti, xarakteri va boshq.) muayyan guruhlariga bo'lish.

Pedagogik va psixologik mezonlar jazoni ijro etish tizimida emas, balki jazoni ijro etish koloniyalari ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi.

Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarning axloqan tuzalishini to'g'ri belgilash va jazoning samaradorligini oshirish uchun, albatta mahkumlarni to'g'ri tasniflash lozim bo'ladi.

Mahkumlarni tasniflashning keyingi bosqichi, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash joylarining kimlarga mo'ljallanganligi va ularni joylarga yuborilishini hal qilish jarayoni davrida amalga oshirishdir. O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish uchun mo'ljallangan 49 ta muassasalar mavjud bo'lgan. Ulardan 37 tasi jazoni ijro etish va tarbiya koloniyalarini, 1tasi turma va 11tasi tergov hibsonasini tashkil etadi. 37 ta koloniyalardan 12 tasi manzil koloniyalarni, 3 tasi umumiy tartibli, 2 tasi qattiq tartibli, 1tasi maxsus tartibli, 1 tasi ozodlikdan mahrum qilingan xotin-kizlarni saqlash uchun mo'ljallangan koloniyalarni, 1tasi sud va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning mahkum etilgan sobiq xodimlarini saqlash uchun mo'ljallangan koloniyalarni, 2 tasi sil kasalligi bilan kasallangan mahkumlarni saqlash uchun tashkil etilgan koloniyalarni, 1 tasi boshqa turdagi og'ir kasallarni davolash uchun mo'ljallangan ko'p tarmoqli shifoxona, 2tasi tarbiya koloniyalari hamda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan mahkumlar saqlanishi nazarda tutilgan manzil koloniyalari, umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan o'tkazilgan mahkumlar uchun nazarda tutilgan 12 manzil koloniyalar mavjud.¹⁹

¹⁹ **Jinoyat-ijroiya huquqi.** Darslik. Masul muharrir. B.Ahrorov. – Toshkent, 2008. 67-bet.

4. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishni tashkil etish

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining ijro etilishi Ichki ishlar vazirligining Jazolarni ijro etishning Bosh Boshqarmasi tomonidan tashkil etiladi. Bosh boshqarma jazolarni ijro etish muassasalarini tashkil etadi, ularni boshqaradi, o'zgartiradi va tugallash vazifalarini ham amalga oshiradi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar tergov hibsonasining ma'muriyati hukm qonuniy kuchga kirganligi to'g'risidagi sud xabarnomasini olgan kundan boshlab o'n kunlik mudat ichida jazoni o'tash uchun jo'natiladi (JIK 54-moddasi).

Mahkumga hukm qonuniy kuchga kirganidan so'ng, jazoni o'tash uchun jo'natilguniga qadar yaqin qarindoshlari yoki oila a'zolari bilan qisqa muddatli diydor ko'rishishiga ruxsat beriladi. Mahkumning qaerga jo'natilayotganligi haqida uning oila a'zolariga xabar qilinadi. Xabar berish, mahkum tegishli joyga jo'natilganidan so'ng, uch kunlik muddat ichida amalga oshiriladi. Xabarda muassasa manzili va qachon jo'natilganligi ma'lum qilinishi lozim.

Mahkumni jazoni o'tash joylariga jo'natish Ichki ishlar vazirligining maxsus yo'riqnomalariga binoan amalga oshiriladi. Jumladan, konvoy belgilanadi, bu konvoy mahkumni, uning shaxsiy hujjatlarini qabul qilib oladi, belgilangan koloniyaga olib borib topshiradi, konvoy mahkumni olib borish va topshirish qoidalariga binoan amalga oshiradi. Mahkumni olib borishda avtotransport yoki temir yo'l xizmatidan foydalaniladi. Ushbu holda erkaklar, ayollar, voyaga yetmaganlar, retsidivistlar alohida-alohida olib boriladi. Shuningdek, sog'lom va kasal mahkumlar ham alohida-alohida olib borilishi lozim.

Mahkumlarni koloniyaga olib borishda ular maxsus mavsumga muvofiq kiyim-bosh bilan ta'minlanadilar va maxsus ta'minot belgilanadi. Sarflanadigan yo'l xarajatlar davlat hisobiga ko'ra amalga oshiriladi.

Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilish muassasa ma'muriyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan

belgilan tartibda amalga oshiriladi. Muassasaga etib kelgan mahkumlarning shaxsini o'rganish maqsadida va sharoitga moslashib olishlari uchun 15 sutkagacha qabul bo'limiga joylashtiriladi, jazoni o'tash tartibi va shartlari bilan tanishtiriladilar. Odatda mahkum jazoni bir muassasada o'taydi, ammo uning shaxsiy xavfsizligiga tahdid tug'ilganda, kasal bo'lib qolganda boshqa muassasalarga ko'chirilishi mumkin.

Mahkumlarni ko'chirish vaqtida qamoq jazosiga hukm qilingan va tergov qilinayotgan mahkumlar, shuningdek, homilasi yigirma to'rt haftadan oshgan yoki uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar, mahkum bemorlar alohida-alohida ko'chiriladi.

Ixtisoslashgan davolash muassasalarida har xil turdagi jazoni ijro etish muassasalaridan kelgan mahkumlar birga saqlanishi mumkin.

Jazolarni ijro etish tizimida maxsus tanosil yoki boshqa yuqumli kasallarni saqlash uchun mo'ljallangan joylar tashkil etiladi. Bunday joylarga aynan turli xildagi yuqumli kasallarni ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash uchun yuboradilar.

Nazorat uchun savollar

1. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishning huquqiy asosi nima?
2. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalariga qaysi muassasalar kiradi?
3. Mahkumlarni tasniflash qanday mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi?
4. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishda mahkumlarning huquqiy holati qanday?
5. Turli toifadagi mahkumlar qanday asoslarga ko'ra, birga saqlanishi mumkin?

I topshiriq. Mahkumlarni tasniflash mezonlarini tahlil qiling.

II topshiriq. Konspekt daftaringizda ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etuvchi muassasalar sxemasini chizing. Sxemada ushbu muassasalarning turlari, rejimini ifoda eting.

III topshiriq. JIKning 46-53 moddalari bilan tanishib chiqing va tahlil qiling.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.
2. Karimov I. Adolat- qonun ustuvorligida // Xalq so'zi. 2001 y. 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Birinch marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslarning jazo o'tash sharoitlarini liberallashtirish to'g'risida»gi Farmoni // 2003 yil 26 sentyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent, 2008. 45-62 moddalar.
5. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mas'. Muh. B.Ahrorov. – Toshkent, 2008. 62-87-b.
6. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo. Kurs leksiy. – Toshkent: Akademiya MVD, 2002. – S. 83-104.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining «Jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi 2006 yil 3 fevraldagi Qarori // Qarorlar to'plami. – Toshkent, 2006.
8. Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari. 1955 yil 30 avgust. Jeneva // Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar. - Toshkent, 2004. - 132 b.
9. Abduxalikov M.A. va boshq. Jinoyat -ijroiya huquqi. Albom sxemalar. – Toshkent, 2005. – B. 26-34.
10. Inog'omov Sh.H. Ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilinganlarning jazoni o'tash sharoitlarini tasniflash va differensiyalash: muammolar va ularni hal etish yo'llari. – Toshkent: Adolat, 2001. – 183 b.
11. Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari // O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2001 yil 08 maydagi 118- buyrug'i.

5 - MAVZU. KOLONIYA VA TURMALARDA JAZONI O'TASH

Reja:

1. *Koloniya va turmalarda jazoni o'tash tushunchasi va asoslari.*
2. *Manzil koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari.*
3. *Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari.*
4. *Qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari.*
5. *Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari.*
6. *Turmalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari.*
7. *Tarbiya koloniyalarida jazoni o'tash.*
8. *Ayrim toifadagi mahkumlar tomonidan jazoni o'tash shartlari.*

Darsning maqsadi. Koloniyalar va turmalarda jazoni o'tash tartibi va shartlarini ochib berish, o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, ayrim toifadagi mahkumlar tomonidan jazoni o'tash shartlarini ko'rsatib, ular to'g'risida axborotlar tizimini ishlab chiqish.

Dars o'tish vositalari. Koloniyalar, ularning rejimini va farqini ifoda etuvchi sxemalar, sud amaliyoti materiallari, jinoyat-ijroiya kodeksi normalarining tahlili, ko'rgazmali qurollar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, xalqaro hujjatlar, O'z R IIV ning 2001 yil 08 maydagi 118-sonli «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari», proyektor.

Dars o'tish usullari. Mavzuga oid ma'ruza matni, seminar mavzulari bilan tanishtirish, mavzuga oid qonun hujjatlarini seminar mashg'ulotlarida keng tahlil qilish, munozarali jihatlar yuzasidan savol-javoblar, aqliy hujum.

1.Koloniya va turmalarda jazoni o'tash tushunchasi va asoslari

Jinoyat ijroiya kodeksining 17-23 boblari, 113-135 moddalari ozodlikdan mahrum qilish jazosini koloniyalar va turmalarda o'tash tartibi va shartlarini belgilaydi.

Oldingi mavzuda ta'kidlanidek, va JKning 50-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi jazoni ijro etish tizimida to'rt turdagi koloniyalar nazarda tutilgan: manzil, umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalar.

Jazoni ijro etish koloniyalarining turlariga qarab u erlardagi sharoitlari ham bir-biridan farqlanadi. Koloniyalarda, asosan, ikki xil sharoitdagi saqlash joylari tashkil etiladi: *oddiy, yengillashtirilgan va og'irlashtirilgan* sharoitlarga bo'linishi mumkin. Bunday sharoitlarni tashkil etish mahkumlarni saqlash yotoqxonalarining alohida tashkil etilishi bilan tartibga solinadi.

Oddiy sharoitdagi - koloniyaga odatda, mahkum sudning hukmi bilan keltirilganda kiritib qo'yiladi. Keyinchalik bunday sharoitdagi koloniyaga engillashtirilgan yoki og'irlashtirilgan sharoitdan o'tkazilgan mahkumlar ham kiritilishi mumkin. Bunday sharoitdan engillashtirilgan sharoitga o'tkazish mahkumning JIK 104-moddasida belgilangan qismini o'tashi mobaynidagi xulq-atvoriga qarab ma'muriyat tomonidan tashkil etilgan komissiyaning xulosasiga binoan o'tkaziladi. Bu komissiyaning mahkumga berilgan intizomiy yoki rag'batlantirish choralari o'rganib chiqishga ko'ra hal qilinadi. *Engillashtirilgan sharoitga* o'tkazish mahkumni ijobiy tarbiyalashning asosi bo'lib hisoblanadi va yana uning xulq-atvorining yaxshilanishi natijasida jazoni muddatidan avval bekor qilish yoki engilrog'i bilan almashtirish haqida uqtiriladi.

Mahkumni intizomiy jazolash turi sifatida *og'irlashtirilgan sharoitga* o'tkazib qo'yilishi mumkin, ushbu holda uning huquqlarini cheklangan sharoitga o'tkazib qo'yish mahkumning olgan intizomiy jazo choralari qarang emas, balki uning ashaddiy tartibbuzar deb hisoblanganida bo'lishi mumkin. Bunday sharoitga o'tkazib qo'yish oddiy sharoitdagi yoki engillashtirilgan sharoitda saqlanayotgan mahkumlarda ham o'tkazilishi mumkin.

Huquqlari cheklangan sharoitda saqlanayotgan mahkumlarni ijobiy xulqi, mehnatga halol munosabatini hisobga olib, bunday huquqiy cheklash yoki karserda saqlash muddati tugashi bilan mahkumga belgilangan intizomiy chora bekor qilinib, mahkum yana ilgari huquqlariga ega bo'ladi. Bunday huquqiy cheklashlarni muddatidan oldin ham olib tashlanishi mumkin. Bu masalani ham

ma'muriyat komissiyasi tomonidan hal qilinadi. Bu qoida mahkum jazoni o'tab bo'lguniga qadar yoki muddatidan avval jazodan ozod qilingani yoki engilrog'i bilan almashtirilguniga qadar tatbiq etiladi.

Mahkumlarga belgilanadigan sharoitlar koloniyaning rejim turiga qarab bir-biridan farqlanadi.

2. Manzil koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari

JIKning 113-115 moddalari manzil koloniyalarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibini va shartlarini nazarda tutadi.

Unga ko'ra, manzil-koloniyalar mazkur muassasaga sud hukmiga binoan keltirilgan, shuningdek, umumiy va qattiq tartibli tarbiya koloniyalaridan sudning ajrimi asosida o'tkazilgan voyaga etgan mahkumlar jazo o'taydilar.

Shuningdek, jazoni ijro etish tizimini liberallashtirish borasida bu borada muhim o'zgarishlar ro'y berib, endilikda manzil-koloniyalarga ijobiy tavsifga ega bo'lgan va:

- og'ir jinoyat, shuningdek qasddan jinoyat sodir etganlik uchun sud tayinlangan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismini o'tagan mahkumlar, agar shaxs muqaddam qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa;

- muqaddam jazodan shartli ravishda muddatidan ilgari ozod etilgan shaxslar;

- sud tomonidan engilrog'i bilan almashtirilgan shaxs o'ta og'ir jinoyat, shuningdek, jazo muddatining o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganlik uchun tayinlangan jazoning kamida *uchdan bir qismini* o'tagan mahkumlar o'tkaziladi.

Yuqoridagilar bilan birga quyidagi shaxslarni manzil-koloniyalarga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi:

- o'ta xavfli retsdivistlar;

- uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar;

- yuqumli kasallikka chalingan bemorlar;
- majburiy davolanishdan o'tayotgan mahkumlar;
- mehnatga qobiliyatsiz mahkumlar.

Manzil-koloniyaning turarjoy zonasi hududi nazorat o'tkazish punkti mavjud bo'lgan yaxlit sidirg'a devor bilan o'ralib, uning tarkibiga quyidagi binolar kiradi: xodimlarning xizmat xonalari mavjud bo'lgan ma'muriy bino, mahkumlar uchun yotoqxonalar, navbatchi naryad uchun mo'ljallangan xonasi bor navbatchi xizmati binosi, oshxona, magazin, ambulatoriya, kutubxona, ommaviy-madaniy va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish uchun bino, kirxona va dezinfeksiya kamerasi mavjud hammom, mahkumlarning shaxsiy buyumlarini saqlanishi uchun omborxona, intizomiy bo'linma, mahkumlar bilan uchrashuvga kelganlar uchun vaqtincha yashashga mo'ljallangan uy (mehmonxona). Boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik omborxona ob'ektlari manzil koloniyalarning ma'muriy hududida joylashadi.

Manzil-koloniyaning intizomiy bo'linmasida hibsxonanining har biri 4-6 o'ringa mo'ljallangan kameralari va navbatchi uchun alohida xona jihozlanadi.

Bitta manzil koloniyada koloniyalarning boshqa turlaridan farqli ravishda erkaklar va ayollar saqlanishi mumkin.

Bugungi kunda Respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida manzil koloniyalar tashkil etilgan bo'lib, bu mahkumga yashash joyida jazoni o'tash imkoniyatlarini beradi. Manzil-koloniyalarda mahkumlar, soqchisiz, ammo nazorat ostida yuradilar, fuqarolar kiyadigan kiyimda yuradilar va ertalab o'rinda turishdan kechki yotishgacha bo'lgan vaqt mobaynida koloniya hududi doirasida erkin yurish huquqiga ega, shuningdek, ba'zi bir hollarda ular muassasa hududidan tashqarida (masalan, sirtidan o'qishga borgan davrlarda) nazoratsiz yurishlari mumkin. Manzil-koloniyalardagi mahkumlarga boshqa turdagi koloniyalardan farqli ravishda yonlarida cheklanmagan miqdorda pul va qimmatli buyumlarni

saqlashlari, puldan cheklanmagan holda foydalanishlariga, cheklanmagan miqdorda telefon orqali so'zlashuvlar, yo'qlov²⁰ va banderollar olishlariga, cheklanmagan miqdorda uchrashuv olishga ruxsat beriladi.

Mahkumlar xonalarga bo'lingan yotoqxonalarda yashaydilar, o'z navbatida qonunga ko'ra (JIK 114-modda) saqlash rejimini buzmagani, oilasi bor mahkumlarga muassasa boshlig'i qaroriga binoan manzil-koloniya hududida yoki undan tashqarida oilasi bilan yashashga ruxsat berilishi mumkin.

Mahkumlar manzil-koloniyalarda mehnatga jalb etiladi, masalan qishloq ho'jalik ishlari, ishlab chiqarish va boshq.

3.Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari

JIKning 18-bob, 116-117 moddalari ozodlikdan mahrum etishni umumiy tartibli koloniyalarda ijro etish tartibini nazarda tutadi.

JIKning 116-moddasiga ko'ra, umumiy tartibli koloniyalarda jazoni

- muassasaga sud hukmiga binoan kelganlar;
- tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar;
- sud tomonidan manzil-koloniyalardan intizomiy jazo tarzida o'tkazilgan mahkumlar;
- ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan mahkumlar o'taydilar (masalan, axloq tuzatish ishlarini o'tashdan bo'yin tovlagan hollarida shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini belgilanishi mumkin).

Tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar jazoni engillashtirilgan sharoitda o'taydilar.

Umumiy tartibli koloniyalarda mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar. Ular belgilangan eng kam ish haqining ikki baravarigacha bo'lgan

²⁰ **Posilka** - bu, kiyim-kechak, yuvinish anjomlari, chekish sigaretlari va hokazolar joylashtirilgan qopchalar; **Yo'qlov** - oziq-ovqat mahsulotlari joylashtirilgan yashikalr; **banderol** - turli xildagi kitob, oynoma va gazetalar o'ralgan jo'natmalardir. Bu jo'natmalarning hajmi va og'irligi pochta qoidolari bilan tartibga solinadi.

summaga oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishlari, yil mobaynida 4 marta qisqa muddatli va 4 marta uzoq muddatli uchrashuv, 6 marta telefon orqali so'zlashuv, 6 ta posilaka yoki yo'qlov, 6 ta banderol olishlari mumkin.²¹

4. Qattiq tartibli koloniyalarda jazoni ijro etish

Qattiq tartibli koloniyalarda jazoni ijro etish masalalari JIKning 118-119 moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga ko'ra, amalga oshiriladi.

JIKning 118- moddasiga ko'ra. Qattiq tartibli koloniyalarad jazoni-

- muassasaga sudning hukmiga binoan kelgan mahkumlar;
- turmalar va maxsus tartibli koloniyalardan rag'batlantirish tarzida o'tkazilgan mahkumlar;
- sud tayinlagan turma qamog'i muddatini o'tagandan so'ng turmalardan o'tkazilgan mahkumlar;
- sud tomonidan manzil-koloniyalardan intizomiy jazo tarzida qaytarilgan mahkumlar o'taydilar.

Qattiq tartibli koloniyalarda, shuningdek, o'ta og'ir jinoyati uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum qilingan va xafvli retsidivist deb topilgan ayollar ham saqlanadilar.

Qattiq tartibli koloniyalarda ham umumiy, engillashtirilgan va og'ir sharoit qoidalari joriy etiladi. Lekin qattiq tartibli koloniyalardagi sharoitlar ham umumiy rejim koloniyalarining sharoitlaridan og'irligi bilan farq qiladi. Qattiq tartibli koloniyalarda mahkumlar umumiy turar joylarida yashaydilar. Mahkumlarni axloqan tuzatish va halol mehnatga o'rgatish uchun uni ham engil sharoitga o'tkazish yoki intizomni ashaddiy buzuvchi deb topilganida esa og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazish bilan ogohlantiriladi va shu qoidaga rioya qilinadi. Odatda, koloniyaga kelib tushgan mahkum JIKning 104-moddasining 1-qismida

²¹ O'zbekiston Respublikasi JIK o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi *2003 yil 30 avgustdagi Qonuni* qabul qilingunga qadar, umumiy tartibli koloniyalarda har oyda eng kam oylik ish haqining 40% bo'lgan qiymatda oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilishlariga ruxsat berilgan. Bundan tashqari, yil mobaynida to'rt marta qisqa muddatli va uch marta uzoq muddatli uchrashuv, to'rt marta telefon orqali so'zlashuv, to'rtta posilka yoki yo'qlov, to'rtta yo'qlov olish huquqi berilgan.

belgilangan muddat o'tgunga qadar sharoitini o'zgartirish qoidasi tatbiq etilmaydi. Bu muddat o'tganidan keyingina uni engillashtirilgan sharoitga o'tkazish masalasi ko'rib chiqilishi mumkin. Mahkumni yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilganda o'tkazish muddati belgilanmaydi. Faqat mahkumning xulqi yomonligi va tartibbuzarligi natijasida uni oddiy sharoitga yoki og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazib qo'yilishi ham mumkin. Mahkumni og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazish muddati esa belgilanadi. Ko'pi bilan olti oyga og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazilishi mumkin. Engillashtirilgan yoki huquqlari cheklangan sharoitlarda ham maxsus ichki tartib-qoidalar mahkumni majburiy mehnatga jalb qilish tartibi, ularga huquq va majburiyatlarni belgilash qoidalari joriy etiladi.

Oddiy sharoitdagi mahkumlar qattiq tartibli koloniyalarda bir oyda eng kam oylik ish haqining bir yarim baravarigacha bo'lgan summaga ozik-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishga ruxsat beriladi. Shuningdek, bir yilda ko'pi bilan uch marta qisqa muddatli va uch marta uzoq muddatli uchrashuv, to'rt marta telefon orqali so'zlashuv, to'rtta posilka yoki yo'qlov, to'rtta banderol olish huquqi beriladi.²² Bu imtiyozlar mahkumning sharoitining o'zgartirilishi bilan o'zgarishi mumkin. Jumladan, qo'shimcha pul sarflash, qo'shimcha posilka, yo'qlov yoki yo'qlov olish huquqlari telefon orqali so'zlashuv huquqi bilan ta'minlanishi mumkin.

5. Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni ijro etish

JIKning 120-121-moddalari maxsus tartibli korloniyalarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish to'g'risidagi qoidalarni mujassamlashtirgan bo'lib, unga ko'ra, maxsus tartibli koloniyalarda:

- sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;

²² 2003 yil 30 avgustdagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan shunday o'zgartirish nazarda tutilgan bo'lib, ungacha, qattiq tartibli koloniyalarda bir oyda eng kam oylik ish haqining qirq foizigacha bo'lgan qiymatda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishga ruxsat berilgan. Shuningdek, bir yilda ko'pi bilan uch marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli uchrashuv, uch marta telefon orqali so'zlashuv, uchta posilka yoki yo'qlov olish huquqi nazarda tutilgan.

- umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar;

- sud tomonidan qattiq tartibli koloniyalardan intizomiy jazo tarzida qaytarilgan mahkumlar o'taydilar.

Ijobiy tavsifga ega bo'lgan mahkumlar engillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazilishi mumkin.

Maxsus tartibli koloniyalar quyidagi xususiyatlarni inobatga olgan holda jihozlanadi:

a) turarjoy zonasi ikki qismga: kamera tipidagi xonalari hamda oddiy turarjoylari mavjud bo'lgan hududlarga bo'linadi;

b) oddiy turarjoylari mavjud hududda boshqa turdagi koloniyalarda bo'lgani kabi xizmat va kommunal-maishiy ob'ektlar joylashadi. Bunday turar joylar ma'muriy va xo'jalik-maishiy binolardan batamom ajratilgan holda joylashtiriladi. Tibbiyot bo'limi hamda stasionar binosi yaxlit sidirg'a devor bilan o'raladi.

v) intizomiy bo'linma kamera tipidagi xonalar mavjud bo'lgan hududga joylashtiriladi, unda hibsxona va karserning kameralari jihozlangan bo'lib, karser kameralari mahkumlarni yakka-yolg'iz saqlash uchun mo'ljallangan. Bu binolar yaqinida sayr qilish maydonchalari jihozlanadi.

Mahkumlar belgilangan eng kam ish haqi miqdori summasigacha oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari, yil mobaynida ikki marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli uchrashuv, uch marta telefon orqali so'zlashuv, uch marta posilka yoki yo'qlov, uchta banderol olishlari mumkin.²³

Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar sharoiti og'irlashtirilganligi bilan ajralib turadi. *Umumiy sharoitdagi* maxsus rejimli koloniyalarda ham mahkum sharoitining alohida og'irlashtirilganligini ko'rish mumkin. SHuning uchun ham maxsus tartibli koloniyalarda faqat o'ta xavfli retsidivistlar yoki o'lim jazosi afv

²³ O'z R ning 2003 yil 30 avgustdagi Qonunining Maxsus tartibli koloniyalarda qabul qilinishiga qadar, saqlanayotgan mahkumlarga bir oyda eng kam oylik ish haqining qirq foizigacha miqdorda oziq-ovqat va eng zarur buyumlar xarid qilishlariga ruxsat berilgan. Ular bir yilda ikki marta qisqa muddatli va bir marta uzoq muddatli uchrashuv, ikki marta telefon orqali so'zlashuv, ikkita posilka yoki yo'qlov olish huquqiga ega bo'lganlar.

etilib ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan mahkumlargina saqlanishi mumkin. Maxsus tartibli koloniyaga ayollar yuborilmaydi. Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar kameralarda saqlanadilar va ularni bir kunda ko'pi bilan bir soatga ochiq havoga olib chiqiladi. *Yengillashtirilgan sharoitga* o'tkazilganda mahkum kamera tipidagi yashash joylaridan umumiy tipdagi yashash joylariga o'tkaziladi. Maxsus tartibli koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlarga bir oyda eng kam oylik ish haqining qirq foizigacha miqdorda oziq-ovqat va eng zarur buyumlar xarid qilishlariga ruxsat berilishi mumkin. Ularga bir yilda ikki marta qisqa muddatli va bir marta uzoq muddatli uchrashuv, ikki marta telefon orqali so'zlashuv, ikkita posilka yoki yo'qlov, ikkita yo'qlov olish huquqiga ega.

Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tash mahkumlarning kamera tipidagi xonalari maxsus maishiy talablarga binoan jihozlanganligi bilan farqlanadi. Kamerada mahkumga yotishga taxta karavot, ovqatlanish va o'tirish uchun taxta stol, stul, yuvinish va hojat joylari bo'lishligi talab etiladi.

Yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazilgan mahkumlar maxsus tartibli koloniyalarda kameralardan umumiy turarjoylarga o'tkazish hamda yil mobaynida qo'shimcha ravishda bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, bitta banderol olish mumkin.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan mahkumlar odatda alohida saqlanadilar.

Kameralarda saqlanayotgan mahkumlar mehnati ham kamera sharoitlariga mos ravishda tashkil etiladi. Maxsus tartibli koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlar har kuni bir yarim soatgacha, engillashtirilgan sharoitga o'tkazilganida esa ikki soatgacha sayrga olib chiqilishlari mumkin.

6. Turmalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari

JIKning 122-123 moddalari turmalarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashning tartiblarini belgilaydi. Unga ko'ra, turmalarda jazoni:

- sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;

- sud tomonidan jazoni ijro etish koloniyalaridan o'tkazilgan jazo o'tash tartibini ashaddiy buzuvchilar o'taydilar.

Homilador ayollar va yonida emizikli bolasi bor ayollar, shuningdek I va II guruh nogironlari turmalarda jazoni engillashtirilgan saqlash sharoitida o'taydilar.

Turmada mahkumlar doimiy kameralarga qamalgan holda saqlanadilar va ularni jamiyatdan ajratishning eng og'irlashgan holatlarini belgilaydi.

Turma joylarining tashkil etilishi va tuzilishi jihatidan jiddiy farqlanadi. Turmalar koloniyalarga o'xshab rejim turlariga bo'linmaydi. Lekin turma joylarida mahkumlarning *oddiy sharoitdagi, yengillashtirilgan sharoitdagi yoki intizomiy jazolash* shaklidagi huquqlarga o'tkazilganligini ko'rish mumkin. Bular oddiy sharoitdagi kameralar va mahkumni og'irlashtirilgan sharoitlarga o'tkazilganida saqlanadigan kameralar. Turma joylarida mahkumlarning xo'jalik xizmatlari mahkumlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday ishlarni maxsus shunday ishlar uchun koloniyalardan qoldirilgan mahkumlar amalga oshiradi.

Mahkumlar faqat o'zlari saqlanayotgan kameradagina erkin harakatlanishi va yonidagi boshqa mahkum bilan muloqot qilishi mumkin. Agar mahkumni alohida saqlash zarurati tug'ilsa yoki xavfsizlik holatlari vujudga kelsa, bir kishilik kameralarga ham kiritib qo'yilishi mumkin. Mahkumlarni bir kishilik kamera qiritib qo'yish og'irlashtirilgan sharoitni anglatmaydi, faqat uning xavfsizligini ta'minlash chorasi hisoblanadi.

Turma joylarida (kamera) mahkumlar uchun barcha zarurat sharoitlari yaratiladi. Turma joylarida mahkumlarni ochiq havoda sayr qilish uchun olib chiqishga mo'ljallangan maxsus joylar tashkil etiladi. Mahkumni kunlik sayrga olib chiqilishidan tashqari maxsus tashkil etilgan ishchi kameralariga olib chiqilishlari ham mumkin. Bunday kameralarda mahkumlar foydali mehnatga jalb qilinadilar. Bu kameralar mahkumlarning mehnatlarini tashkil etish uchun maxsus kerakli jihozlar bilan jihozlangan bo'ladi.

Turma hududi rejim, ma'muriy va xo'jalik zonalariga bo'linadi. *Rejim zonasi* hududida mahkumlar saqlanadigan korpuslar, oshxona, kir yuvish xonasi, hammom, stasionar tibbiyot bo'limi, sayr qilish maydonchalari, ishlab chiqarish

binolari (kameralar) joylashgan bo'ladi. Sayr qilish maydonchalari odatdagidek, korpuslarning yuqori qavatlarida barpo etiladi. O'z navbatida sayr qilish maydonchalirining yuqori qismiga sinch bo'ylab 12x20 sm o'lchamli panjara o'rnatilib, metall simto'ri tortib qo'yiladi.

O'rnatilgan qoidaga ko'ra ishlab chiqarish korpuslari boshqa binolardan batamom ajratilgan holda joylashtiriladi. Turar joy korpuslari odatda ishlab chiqarish, kommunal maishiy va boshqa ob'ektlar bilan tonellar yoki er ustidagi yopiq o'tish joylari orqali tutashgan bo'ladi.

Ma'muriy zona hududida xizmat xonalari, soqchilik xonasi mavjud nazorat o'tkazish punkti, alohida ajratilgan xonalari, tergov xonalari, uchrashuv xonalaridan va boshqalardan iborat bo'ladi.

Xo'jalik zonasi esa omborxonalar, sabzavot saqlash omborlari, garaj, xo'jalik ustaxonalari va boshqa yordamchi xonalar tashkil etadi.²⁴

Turmalaridagi kameralar derazasining eni 1.3-1.4 metr va balandligi 1.15 - 1.2 metr bo'ladi, karserlaridagi deraza o'lchami esa 0,5-0,5 metrni tashkil etadi. Ular payvandlashgan panjaralar bilan jihozlanadi. Ichki tomondan oynaga qo'l etmaydigan qilib, panjara bilan muhofaza etilgan bo'ladi²⁵.

Kameralarning eshiklari 6 sm qalinlikda bo'lib, ichki tomonidan tunuka bilan qoplangan, uning o'rtasida 1.4-1.5 metr balandlikda kuzatish tuynugi bo'ladi. Eshikning o'rta qismida poldan hisoblaganda 95 sm balandlikda mahkumlarga oziq-ovqat, kitob, yo'qlov va boshq. berish uchun 18x22 o'lchamdagi darcha o'rnatiladi. Darchaning eshikchasi yo'lak tomonga yo'naltiriladi²⁶.

Turmalarda mahkumlar bilan tarbiyaviy ish bevosita kameralarda guruh-guruh qilib va yakka tartibda olib boriladi. Turmalarning kameralarida har 50 mahkumga bitta gazeta beriladi. Turmalarning karserlarida mahkumlarni yakka-yolg'iz saqlash joriy etiladi.

²⁴ **Bu haqida batafsil qarang:** «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari. - Toshkent, 2001. 6-bet.14-paragraf, 44-bandi.//O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2001 yil j-08 maydagi buyrug'i.

²⁵ **O'sha joyda.**5-bet.

²⁶ **O'sha joyda.**6-bet. 45-band.

Kameralar inventar hamda boshqa buyumlar bilan ta'minlanadi. Ularda bir qavatli yoki ikki qavatli vagon tipidagi metall koykalar, ovqatlanadigan stol bitta, stolni bo'yaydigan o'rindiqli ikkita, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun devorni enlaydigan shkaf yoki bo'lmalar, ichimlik suvi solinadigan bak bitta krujkasi bilan, stolda o'ynaladigan o'yinlar – shaxmat, shashka, domino, nard beriladi, chelak, hokandoz, supurgi tozalash vaqtida beriladi, ustki kiyimlar uchun veshalka beriladi.

Turma joyida mahkumga eng zarur narsalar yoki oziq-ovqat sotib olish uchun bir oyda eng kam oylik ish haqining etish besh foizigacha miqdorda ruxsat etiladi.²⁷

Turma joylarida saqlanayotgan mahkumga bir yilda ikki qisqa muddatli uchrashuv va bir marta uzoq muddatli uchrashuv, ikki marta telefon orqali so'zlashuv, ikkita yo'qlov, ikkita banderol olishga ruxsat etiladi. Engillashtirilgan sharoitga o'tkazilgan mahkumga eng kam ish haqining bir yarim baravari miqdorida qo'shimcha pul sarflashga, qo'shimcha bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bitta posilka yoki yo'qlov olish huquqi beriladi.

7. Tarbiya koloniyalarida jazoni ijro etish tartibi va shartlari

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida jazoni ijro etish tizimini liberallashtirish borasida amalga oshirilgan muhim islohotlardan biri, 2003 yil 12 dekabrda qabul qilingan JIKga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonuni bo'ldi. Chunki ushbu qonun jazoni ijro etish tizimida muhim ahamiyat kasb etgan tarbiya koloniyalarini tubdan isloh etishni nazarda tutadi.

²⁷ Turmada mahkumga O'zbekiston Respublikasining JIKga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi **2003 yil 30 avgustdagi** Qonuni qabul qilingunga qadar, eng zarur narsalar yoki oziq-ovqat sotib olish uchun bir oyda eng kam oylik ish haqining o'ttiz foizigacha miqdorda ruxsat etilgan. Agar mahkum engillashtirilgan sharoitga o'tkazilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik foizigacha qiymatda sarflashga ruxsat etilgan. Shuningdek, turma joylarida saqlanayotgan mahkumga bir yilda bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, ikkita yo'qlov olishga ruxsat etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 22-bob, 124-129-moddalari tarbiya koloniyalarida ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibi va shartlarini belgilaydi.

JIKning 124-moddasiga ko'ra tarbiya koloniyalarida:

- o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan mahkumlar kattaroq yoshdagi mahkumlardan;

- birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlar ilgari ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o'tagan mahkumlardan alohida saqlanadilar.²⁸

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar uchun mo'ljallangan kasb-hunar ta'limi va kasb tayyorgarligi sinfi hamda texnik xonalari boshqa binolardan ajratib qo'yilgan bo'ladi. Turar joy zonasi hududida sport zali yoki bir vaqtning o'zida barcha mahkumlarni safga tizish uchun maydon, stadion, zarur sport inventari kompleksi mavjud maydonchalar bilan jihozlanadi.

Tarbiya koloniyasi hududi balandligi 3 (uch) metrdan kam bo'lmagan devor bilan o'raladi.

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar. Ular belgilangan *eng kam ish haqining ikki yarim baravarigacha* bo'lgan summaga oziq ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar yil mobaynida 6 marta qisqa muddatli va 6 marta uzoq muddatli uchrashuv, 12 marta telefon orqali so'zlashuv, 6 ta posilka yoki yo'qlov, oltita banderol olish huquqiga ega.

Tarbiya koloniyalarida ham mahkumlarni *yengillashtirilgan imtiyozli va oddiy sharoitlari* mavjud. Bundan tashqari mahkumning intizomsizligi, ichki tartib-qoidalarini doimiy buzuvchilariga nisbatan qo'llaniladigan *hibsxonalar* ham mavjud, hibsxonalariga kiritib qo'yilgan mahkumlarning sharoiti albatta, og'irlashtiriladi.

²⁸ JIKning ushbu moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga (O'z R ning 2003 yil 12 dekabrda Qonuni) qadar, voyaga yetmaganlar ozodlikdan mahrum etish jazosini **umumiy va kuchaytirilgan tartibli koloniyalarda** o'tashi nazarda tutilgan edi.

Tarbiya koloniyalarida mahkumlarga tarbiyachilar tayinlanadi. Tarbiyachilar mahkumlarning kundalik faoliyatlarini belgilab beradi, nazorat qiladi va boshqaradi. Tarbiya koloniyalarida mahkumni engillashtirilgan sharoitga o'tkazish yoki hibsonaga kiritib qo'yishni tarbiyachining tavsiyasiga ko'ra koloniya boshlig'ining buyrug'i bilan hal qilinadi.

JIKning 126-moddasiga ko'ra, voyaga yetmagan mahkumlarga umumiy rag'batlantirish choralaridan tashqari, muassasa hududidan tashqarida o'tkaziladigan madaniy-tomosha va sport tadbirlarini ko'rishga yuborish, qisqa muddatli uchrashuv o'rniga ota-onasi, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoki yaqin qarindoshlari kuzatuvida sakkiz soatgacha bo'lgan muddatga erkinlikka chiqarish; hibsonada bo'lish muddatini qisqartirish tariqasida rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin.

Tarbiya koloniyasida hibsonaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo 13 yoshdan 16 gacha etti sutkagacha, 16 va undan katta yoshdagi mahkumlarga esa 10 sutkagacha muddatga qo'llaniladi. Ularning sayr qilish muddati sutkasiga 2 soat qilib belgilanadi.

Mahkumlar 21 yoshga to'lganidan, salbiy tavsifga ega mahkumlar esa 18 yoshga to'lganidan keyin jazoni davom ettirish uchun tarbiya koloniyasidan umumiy tartibli koloniyaga o'tkaziladi.

8. Alohida toifadagi mahkumlar tomonidan

jazoni o'tash xususiyatlari²⁹

O'zbekiston Respublikasi JIK ning 23 bob, 130-133-moddalari alohida toifadagi mahkumlar tomonidan jazoni o'tash xususiyatlarini belgilaydi.

Jinoyat ijroiya kodeksining mazmuniga ko'ra alohida toifadagi mahkumlar bu:

- mahkuma homilador ayollar;

²⁹ «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari. - Toshkent, 2001. 11-bet. 45-paragraf, 208-213 bandlar.

- uch yoshgacha bolasi bor ayollardir.

Ushbu toifadagi mahkumlarga muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash, bolalarini jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi bolalar uyiga joylashtirish, bolalarini joylashtirib kelish va uchrashish uchun muassasa doirasidan chetga chiqish huquqiga ham ega.

Mahkuma ayollarga voyaga yetmagan bolalari bilan 5 sutkagacha muassasa hududidan tashqarida yashash imkoniyati bilan uzoq muddatli uchrashuv berilishi mumkin. Shuningdek, ijobiy tavsifga ega mahkuma ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod etilgan vaqt mobaynida, bolasi uch yoshga to'lgunga qadar koloniya hududidan tashqarida yashashga ruxsat etilishi mumkin.

Ular xona tipidagi turar joylarda joylashadilar va nazorat ostida bo'ladilar, ertalab turishdan kechki yotish vaqtigacha yo'nalishlar doirasida erkin yurish huquqidan foydalanadilar, fuqarolar kiyadigan kiyimda yuradilar, puldan cheklanmagan miqdorda foydalanishlari, cheklanmagan miqdorda banderol, posilka, yo'qlovlar olish hamda jo'natish, qisqa muddatli uchrashuvlar olish huquqiga ega, ular odatda ish vaqtidan bo'sh vaqtda beriladi.

Jazoni o'tash tartibi muntazam ravishda buzilgan va homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod qilish davri tugagan, bola uch yoshga to'lgan bo'lsa, imtiyozlar bekor qilinish mumkin.

Jazoni ijro etish muassasalarida bolalar uyi tashkil etilishi mumkin, ya'ni faqat mahkuma ayollar saqlanadigan koloniyalar qoshida bolalar uyi tashkil etilishi nazarda tutiladi. Mahkuma ayollar uch yoshga to'lmagan bolalarini bolalar uyiga joylashtirishga va ishdan bo'sh vaqtlarida ular bilan birga bo'lishga haqli. Bola uch yoshga to'lgandan keyin esa, onasining roziligi bilan qarindoshlariga, homiylik va vasiylik organining qaroriga binoan boshqa shaxslarga yoki tegishli bolalar uyiga yuborilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalari bor ayollarga qarindoshlarinikiga, vasiylarinikiga bolalarni joylashtirib kelish uchun 4 sutkagacha muassasa hududida bolalari bor ayollarga bir yilda bir marta ular bilan uchrashish uchun 7 sutkagacha bo'lgan muddatga chetga chiqishga ruxsat etiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Jazoni ijro etish koloniyalari tushunchasi va turlarini ayting.
2. Manzil-koloniyalarda jazoni o'tash davomida mahkumlarning huquqiy holati qanday?
3. Manzil-koloniyalarda mahkumlarga nisbatan qanday intizomiy choralar qo'llanilishi mumkin?
4. Umumiy tartibli koloniyalarda qanday mahkumlar jazoni o'tashlari mumkin?
5. Qattiq tartibli koloniyalarda qanday mahkumlar jazoni o'taydilar va ularning huquqiy holati qanday?
6. Alohida toifadagi mahkumlar toifasiga kimlar kiradi va ular qo'shimcha qanday imtiyozlardan foydalanadi?

I topshiriq. Tarbiya koloniyalarida jazoni ijro etish xususiyatlarini ko'rsatib bering.

II topshiriq. P., 18 yoshga to'lgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun olti yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan vaqtda, oltita posilka olgan. 18 yoshga to'lgandan keyin umumiy tartibli koloniyaga jazoni o'tash uchun yuborilgan. Umumiy tartibli koloniyada unga boshqa posilka olishi mumkin emasligini aytishgan.

P.ning bu boradagi huquqiy holatini tahlil qiling va ushbu masalaning echimini toping.

III topshiriq. Mahkum Sh. ga uzoq muddatli uchrashuvga uning xotini kelganligini, u ko'pi bilan bir sutka uchrashishi mumkinligini va ma'muriyat boshqa vaqt berolmasligini, boshqalarning ham navbati kelganligini aytishdi. Ushbudan norozi bo'lgan Sh. xotini bilan uchrashishdan bosh tortdi va prokurorga shikoyat ariza bilan murojaat qildi.

Prokuror nomidan Sh. ga javob xati tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Adolat- qonun ustuvorligida //Xalq so'zi. 30 avgust 2001 y.

2. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'qqizinchi sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi. 30 avgust. 2002 y.
3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi //O'zbekiston ovozi. 29 yanvar 2005 y.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – T.: Adolat, 2008. - 45-135 moddalar.
5. Abduxalikov M.A., Payzullaev Q. va boshq. Jinoyat- ijroiya huquqi. Albom sxemalar.- Toshkent, 2005. – B. 27-50.
- 6.Ugolovno-ispolnitelnoe pravo. Kurs leksiy. – Toshkent: Akademiya MVD. 2002, – S. 69-134.
7. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mas'ul muharrir: B. J.Ahrorov, -Toshkent, 2008. 87-108-b.
- 8.Shamansurov A. Zakonodatelnoe obespechenie ugolovno-ispolnitelnoy sistemi Respubliki Uzbekistan. - Tashkent, 2000. – S. 84-106.

6 - MAVZU. JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA

REJIM

Reja:

1. Jazoni ijro etish muassasalarida rejim tushunchasi.
2. Jazoni ijro etish muassasalarida rejimning asosiy xususiyatlari.
3. Mahkumlarning oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishi.
4. Mahkumlarning uchrashuvlari.
5. Mahkumlarning telefon orqali so'zlashuvlari.
6. Muassasa doirasidan chetga chiqish asoslari.

Darsning maqsadi. Jazoni ijro etish muassasalarida rejimning tushunchasi va mohiyatini ochib berish, mahkumlarni nazorat qilish, ularning narsa va buyumlari, tintuv va ko'zdan kechirish, o'qotar qurol qo'llash asoslari to'g'risida tushuncha berish.

Dars o'tish vositalari. Jazoni ijro etish muassasalarida rejimni ifoda etuvchi sxemalar, sud amaliyoti materiallari, jinoyat-ijroiya kodeksi normalarining tahlili, ko'rgazmali qurollar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, xalqaro-huquqiy hujjatlari, O'z R IIV ning 2001 yil 08 maydagi 118-sonli «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari», proyektor.

Dars o'tish usullari. Rejaga muvofiq har bir savolni mavjud materiallar asosida tanishtirib berish, seminar mavzulari bilan tanishtirish, mavzuga oid qonun hujjatlarini seminar mashg'ulotlarida keng tahlil qilish, munozarali jihatlar yuzasidan savol-javoblar, klaster usuli orqali jazoni ijro etish muassasalarida rejimni o'rgatish.

1.Jazoni ijro etish muassasalarida rejim tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi JIK 11 bob, 62-83 moddalari jazoni ijro etish muassasalaridagi rejimni tartibga soluvchi qoidalarni nazarda tutadi. Ma'lumki, qonunda rejim tushunchasi ochib berilmagan, ammo jinoyat ijroiya qonunchiligida nazarda tutilgan normalarni e'tiborga olib, **jazoni ijro etish muassasalarida rejim**

deganda - mahkumlarni huquqi va manfaatlarini himoya qilish, o'rnatilgan majburiyatlarni bajarilishini nazorat qilish, mahkum va muassasa ma'muriyatining shaxsiy xavfsizligini ta'minlash, o'q-otar qurol qo'llash asoslari, mahkumlarning huquqlarini amalga oshirishni ta'minlovchi va jazoni ijro etish yoki o'tashdan kelib chiqadigan, qonun bilan o'rnatilgan va tegishli normativ hujjatlarga mos keladigan tartibdir.

Demak, yuqoridagilarga ko'ra, rejim quyidagilarni ta'minlaydi:

- mahkumni batamom ajratib qo'yish, ularni qo'riqlash va nazorat qilib turishni;
- mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek ularning o'z majburiyatlarini ado etishini;
- muayyan toifadagi mahkumlarni alohida-alohida saqlashni;
- muassasa turiga qarab mahkumlarni har xil sharoitda saqlashni;
- mahkumlarning va muassasa xodimlarining xavfsizligini.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini tashkil qilishda va uni o'tashni belgilashda aynan rejim katta ahamiyatga egadir. Jumladan, jazoning maqsadini amalga oshirish, mahkumning va u sodir etgan jinoyatning xavfliligiga davlat munosabatini belgilashda aynan rejim qoidalarining belgilanishi katta ahamiyat kasb etadi. Mahkumni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalashda jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalarining turli xilda tashkil etilganligi rejimning bir-biridan farq qilishligidan dalolat beradi. Mahkumning jazoni o'tash sharoitining o'zgartirilishi deganda ham rejimning o'zgarganligi tushuniladi. Qonunga binoan, mahkumni jazoni o'tash jarayonida turma qamog'ini jazoni o'tash koloniyalariga, umumiy yoki qattiq tartibli koloniya o'rniga manzil-koloniyalariga o'tkazish mumkinligi belgilangan. Bunday o'zgarish, asosan, rejimning o'zgartirilganligini anglatadi.

Rejim talablariga muvofiq jazoni ijro etish muassasalarida ichki tartib-qoida talablari belgilanadi va u tartib-qoidaga barcha mahkumlar ham, ma'muriyat ham buysonishi talab etiladi. Ichki tartib-qoida JIK normalariga binoan va Ichki ishlar

vazirligining maxsus instruksiyaviy yo'riqnomalari va buyruqlariga muvofiq belgilanadi.

Har bir jazo ijro etish muassasalarida mahkumlarni nazorat qilish, tekshirish yoki qo'riqlash qoidalarini ham aynan rejimning xususiyatiga muvofiq tashkil etiladi. Mahkumlarni nazorat qilish va tekshirishda turli xildagi texnikaviy vositalardan foydalanishlariga ruxsat etiladi, jumladan, elektron texnik vositalar, avdiovizual vositalar, kuzatish asboblari va hokazolardan foydalanishlari mumkin.

2. Jazoni ijro etish muassasalarida rejimning asosiy xususiyatlari

Jazoni ijro etish muassasalarida rejimning quyidagi xususiyatlarini ajratish mumkin: jazolash, tarbiyalash, rejimni ta'minlovchi xususiyati va ijtimoiy nazorat kabi xususiyatlar.

Rejimning *jazolash xususiyati* mahkumlarni jamiyatdan ajratib intizomiy javobgarlik bilan bog'liq bo'lgan turli huquqiy cheklashlarni nazarda tutadi (masalan, hibsxonaga kiritib qo'yish va boshq.).

Rejimning jazolash xususiyati ikki aspektda namoyon bo'ladi:

- birinchidan, mahkumlarni jamiyatdan ajratib, ular orasida intizomni ta'minlaydi;
- ikkinchidan, jamiyat xavfsizligini ta'minlaydi.

Rejimning *tarbiyalash xususiyati* mahkumni muayyan tartib qoidalariga o'rgatish va jazoni o'tash tartibiga rioya qilishini ta'minlash orqali namoyon bo'ladi.

Rejimning *ijtimoiy nazorat* funksiyasi jinoyatchilikni oldini olishga va unga qarshi kurashishni qamrab oladi.

Amaldagi jinoyat-ijroiya qonunchiligiga binoan, mahkumlarni nazorat qilishning tintuv qilish va ko'zdan kechirish tartib-qoidasi ham o'rnatilgan. Mahkumlarni, jazoni ijro etish muassasalarining turar joylarini, turar joy zonalari va ishlab chiqarish ob'ektlari hududlarini ko'zdan kechirish, tintuv qilish reja

asosida, shuningdek qo'qqisdan o'tkazilishi mumkin. Ko'zdan kechirish va tintuvni o'tkazishdan maqsad, muassasalarda foydalanish man etilgan narsalar va ashyolarni, shu jumladan qurol-yarog', giyohvand moddalar, alkogolli ichimliklar, pul, valyuta va qimmatliklar, portlovchi, yonuvchi va tez alanganuvchi moddalarni, qochishni amalga oshirishga yordam beradigan narsalarni aniqlash, fosh etish hamda olib qo'yishdan iborat.

Mahkumlarni tintuv qilish to'liq yoki noto'liq tarzda amalga oshirilishi mumkin. Tintuvni o'tkazishdan oldin mahkumga nima sababdan uni tintilayotgani ma'lum qilinadi. To'liq tarzdagi tintuv mahkumni echintirib, uning tana a'zolarini ham ko'zdan kechirib chiqishga asoslanadi, u yopiq joyda o'tkaziladi. SHaxsiy tintuv qilish mahkum bilan bir jinsda bo'lgan shaxs tomonidan o'tkazishga ruxsat etiladi (JIK 67-moddasi). Mahkumdan tortib olingan buyumlar mahkum jazoni to'liq o'tab bo'lganiga qadar saqlab qo'yilishi va ozod etilganida qaytarib berilishi yoki davlat hisobiga o'tkazib yuborilishi, yoxud yo'q qilib tashlanishi ham mumkin. Agar bu buyumlar davlat hisobiga o'tkazib yuboriladigan bo'lsa, maxsus bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va bu bayonnoma prokuror tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'ladi. Mahkumni, uning buyumlarini yoki muassasada bo'lgan boshqa shaxslarni ham ko'zdan kechirish mumkin.

Har bir muassasada mahkumlarni nazorat qilish, ularning huquqbuzarlik yoki jinoyatlarining oldini olish yoki sodir etilgan jinoyatlarini aniqlash maqsadida tezkor qidiruv faoliyati tashkil etiladi. Tezkor qidiruv faoliyati mahkumlar muassasadan qochganida uni ushlab choralarni ko'radi. Agar mahkum umumiy rejimdan qochgan bo'lsa, u qattiq rejimli muassasaga o'tkaziladi. Ushlangan mahkumlarni boshqa mahkumlarga o'rnak bo'lishligi maqsadida shu muassasaga olib kelinadi.

Tezkor qidiruv faoliyati muassasada mahkumlar va muassasa xodimlarining xavfsizligi choralarni ham amalga oshiradi. Uni nazorat qilish, qo'riqlash, hatto soqchilik faoliyatlarini ham amalga oshirishlari mumkin. Mahkumlar yoki xodimlarning xavfsizligi holatlari buzilganida yoki buzilish xavfi tug'ilganida o'qotar qurol qo'llashga ham ruxsat etilishi mumkin.

Tezkor qidiruv faoliyati muassasa mahkumlarning jinoyatlarini fosh etish va dastlabki tergovni amalga oshirishda katta faoliyat olib boradi. Jumladan, mahkumlarni sodir etgan jinoyatlarini, uning muassasaga tushgunga qadar sodir etgan jinoyatlarini aniqlaydilar, surishtiruv va hatto tergov ishlarini ham amalga oshiradilar.

Jazoni ijro etish muassasalarida favqulodda holatlarda alohida holat joriy qilinishi mumkin. Bunday vaqtlarda ham tezkor qidiruv faoliyatidan foydalaniladi. Tezkor qidiruv faoliyati tashqaridan jinoyat qidiruv bo'limlari faoliyatidan yordam kuchlari olishlari ham mumkin. Favqulodda sharoit holatlari vaqti muassasa boshlig'i tomonidan bir oygacha muddatga e'lon qilinadi va shu vaqtda alohida qoida joriy etiladi. Bunday sharoitlarda muassasa rejimiga vaqtinchalik o'zgarishlar kirishi mumkin. Tezkor qidiruv faoliyati Ichki ishlar vazirligining maxsus buyro'q va yo'riqlari asosida faoliyat olib boradi. Alohida hollarda uning amal qilishi yana o'ttiz sutkagacha uzaytirilishi mumkin.

Muassasada xavfsizlikni ta'minlash va mahkumlarni tinchlantirish maqsadida bir qator vosita va usullardan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Jumladan, rezina tayoqlar, qo'l kishanlar, xizmat itlari, tinchlantirish ko'ylagi, suv purkagich va hatto o'qotar qurol vositasidan ham foydalanishga yo'l qo'yiladi. Lekin ushbu vositalarni faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina qo'llash mumkin. Jumladan, mahkumning jazavaga tushishi va beboshligini to'xtatishga qaratilgan tadbirlar ishlatilgan va ular samara bermagan taqdirdagina *tinchlantirish ko'ylagini* qo'llashga yo'l qo'yiladi. Tinchlantirish ko'ylagi batamom ajratib qo'yilgan joyda (intizomiy bo'linmada yoki kontrolerlarning xonasida) faqat muassasa boshlig'i yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs ko'rsatmasi asosida, tibbiyot xodimining ruxsati bilan va uning kuzatuvi ostida qo'llaniladi. Jazavaga tushgan mahkum tinchlantirish ko'ylagida uzil-kesil tinchlangunga qadar, lekin ikki soatdan ko'p turmasligi kerak. Tibbiyot xodimining tibbiy ko'rsatmalariga ko'ra tinchlantirish ko'ylagini qo'llab bo'lmasligi yoki bunday ko'ylakni qo'llashni to'xtatish to'g'risidagi talabi darhol bajarilishi kerak.

Tinchlantirish ko'ylagi voyaga yetmaganlarga, ayollarga, yurak kasallarga va sog'ligi ko'tarmaydigan mahkumlarga qo'llanilmaydi. Rezina tayoqchalar, qo'l kishanlar, xizmat itlari, suv purkagichlari ichki xavfsizlik sharoitlarida ishlatiladi. Ichki xavfsizlik sharoitlariga mahkumlarning hujumi, ommaviy tartibsizliklari, mahkumlarning qochishi xavfining tug'ilishi kabi holatlar tushuniladi. Maxsus vositalarni voyaga yetmaganlarga, homilador ayollarga, kasalligi aniq ko'rinib turgan mahkumlarga, nafaqa yoshidagilarga qo'llanilmaydi. Lekin ularning ham ommaviy yoki guruh tarkibida tahdid yoki hujum qilishlari bundan mustasno (JIK 70-moddasi).

Maxsus vositalar qo'llanilganda mahkumlarga etkazilgan zararining har bir hodisasi haqida prokuraturaga xabar qilinadi. Bunday oqibatlar javobgarlikka asos bo'la olmaydi.

Muassasa xavfsizligini ta'minlash jarayonida o'qotar quoldan foydalanish maxsus qoidalar bilan tartibga solinadi. Mahkumlarga nisbatan o'qotar qurol alohida hollarda, eng so'nggi chora sifatida, agar boshqa vositalar bilan jinoyatning oldini olish imkoni bo'lmasa, qo'llaniladi. O'qotar qurolni qo'llashdan oldin, odatda, qurol qo'llanilishi mumkinligi haqida ogohlantirish va yuqoriga qarab ogohlantiruvchi o'q otish kerak. Qo'qqisidan qilingan hujum, qurolli yoki maxsus jangovar texnika vositalaridan, uchish apparatlari yordamida va boshqa qaytarib bo'lmas vositalardan foydalangan holda hujum jarayonlarida ogohlantiruvchi o'q otish talab etilmaydi. Shuningdek, garovga olinganlarni qo'qqisidan hujum qilib qutqarish chog'ida, tunda yoki korong'ilikda ham qo'qqisidan hujum qilish chog'ida ogohlantiruvchi o'q otish talab etilmaydi. O'qotar qurol qo'llanilgan holatda maxsus bayonnoma tuzilib, tegishli prokurorga xabar qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasalarining rejim turiga qarab mahkumlarning huquqiy holatlari bir-biridan farq qiladi. Ularning huquqiy holatlari mahkumlar sharoitidan tortib ularga sarflanadigan sarf-xarajatlarda, ularning oziq-ovqat yoki eng zarur narsalarni sotib olishlarining chegaralangan qiymatlarida, mahkumlarga beriladigan uchrashuvlar va telefon orqali so'zlashuvlarga ruxsat berish, mahkumlarning olishiga ruxsat beriladigan posilka, yo'qlov, banderol va pul

jo'natmalari muassasa buxgalteriyasidagi mahkumning hisob varaqasiga kelib tushadi.

3.Mahkumlarning oziq-ovqat mahsulotlarini va eng zarur narsalarni sotib olishi

JIK ning 75-moddasiga ko'ra, mahkumlarga oziq-ovqat va eng zarur buyumlar sotib olishda o'zlarining hisob raqamidan pul o'tkazish yo'li bilan sarf qilishga ruxsat etiladi. Ularning hisob raqamidagi jamg'arma o'zlarining majburiy mehnatdan topgan daromadlari yoki yaqin qarindoshlari tomonidan jo'natmalari hisobiga tashkil etilishi mumkin. Bu xarajatlar ham maxsus belgilangan qiymatdan oshmagan holda xarajat qilishga ruxsat beriladi. Belgilangan xarajatlar qiymati rag'batlantirish yo'li bilan qo'shimcha xarajatlarga ruxsat berishga yo'l qo'yilishi mumkin. Jumladan, mahkumlarni engillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazilganida, mehnat rejalarini oshirib bajarganida, turli xil bayramlarda belgilangan minimal ish haqining o'n foizi mikdorida qo'shimcha sarflashga ruxsat berilishi mumkin.

Mahkumlarga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotish uchun koloniyalarda magazinlar tashkil etiladi. Ma'muriyat har bir mahkumga oyiga kamida uch marta magazinga kirish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Mahkumlar kun tartibida ajratilgan va ish jadvali bilan tasdiqlangan vaqtda magazinga (do'konga) kiradilar.

Turmalarining kameralaridagi hamda umumiy, qattiq tartibli va maxsus tartibli koloniyalarning karserlaridagi mahkumlarni oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni xarid qilish uchun olib chiqish taqiqlanadi. Ular uchun oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar jazoni ijro etish muassasalarining xodimlari tomonidan sotib olinadi. Turmalarining kameralaridagi hamda umumiy, qattiq tartibli va maxsus tartibli koloniyalarning karserlaridagi mahkumlar oyiga bir marta eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishlari mumkin.

JIKning 75-moddasining 4-qismiga ko'ra, bir oy davomida sarflashga ruxsat etilgan pulning umumiy summasi quyidagi miqdorlardan oshmasligi kerak:

- umumiy tartibli koloniyalarda – belgilangan eng kam ish haqi miqdorining uch baravaridan;

- qattiq tartibli koloniyalarda – belgilangan eng kam ish haqining ikki yarim baravaridan;

- maxsus tartibli koloniyalarda – belgilangan eng yarim baravaridan;

- tarbiya koloniyalarida, ixtisoslashtirilgan davolash muassasalarida, shuningdek, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, homilador ayollar va jazoni ijro etish muassasasidagi bolalar uyida bolasi bo'lgan ayollar uchun - belgilangan eng kam ish haqining uch yarim baravaridan oshmasligi kerak.³⁰

Muassasa boshlig'i yangi kelgan mahkumga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ellik foizigacha, manzil-koloniyalarda esa to'liq miqdorigacha bo'lgan summada avans berishga haqli.

Mahkumning sog'lig'i yomonligi yoki salomatligi yomonlashishining oldini olish maqsadida tibbiy xulosaga binoan qo'shimcha oziq-ovqat, kiyim-bosh va poyabzal sotib olishga ruxsat berilishi mumkin.

Koloniyalarda jazoni o'tayotgan, shuningdek, xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun turmalarda qoldirilgan mahkumlarga muassasaga etib kelgan kunidan boshlab, mahkumlarga rejim turiga qarab posilka, banderollar va yo'qlovlar, shuningdek, pul jo'natmalari olish va jo'natishga ruxsat beriladi.

Mahkumlarga jo'natilgan posilka, yo'qlov va banderollar tekshiruvdan o'tkaziladi va mahkumga berish mumkin emas, degan xulosaga kelinsa, mahkumga berilmaydi va qaytarib yuborilishi kerak. Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalarida ko'rsatilishicha, mahkumlarga quyidagi narsa va buyumlar, moddalarni yuborish taqiqlangan: o'q-

³⁰ JIKning 75-moddasi to'rtinchi qismi O'z R JIK o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi **2003 yil 30 avgustdagi Qonuniga** asosan tubdan o'zgardi, ushbu qonun qabul qilingunga qadar, umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarda eng kam oylik ish haqining etmiş besh foizidan oshmagan miqdorda, turmada ellik foizidan oshmagan miqdorda, tarbiya koloniyalarida eng kam oylik ish haqi miqdorida sarflashga ruxsat beriladi

otar va sovuq qurollarning barcha turi, pul, qimmatli buyumlar va qimmatli qog'ozlar, optik priborlar, alkogoli ichimliklarning barcha turi, atir, odekolon va spirt asosida tayyorlangan boshqa mahsulotlar, giyohvand moddalar, uyali telefonlar, radiotelefon va peydjerlar, pichoqlar, soqol olish apparatlari, uchi o'tkir va sanchiladigan narsalar, boltalar, o'yin kartasi, fotoapparatlar, rangli qalamlar, buyoqlar, qora qog'oz, musiqa asboblari va boshq.

Yo'qlov yoki posilka olib kelgan shaxs belgilangan shakldagi arizani ikki nusxada yozib imzolaydi. Kontroler mahkum yo'qlov olish huquqiga egaligini, yo'qlovning og'irligini, turini tekshirib ko'radi va yo'qlovni qabul qiladi, arizaning bir nusxasini yo'qlov olib kelgan shaxsga tilxat bilan qaytarib beradi, ikkinchi nusxasini esa mahkum yo'qlovni olganligi haqida unga imzo chekkandan keyin alohida yig'ma jildga qo'shib qo'yadi.

Posilkalar kimning nomiga kelgan bo'lsa, shu shaxsning hozirligida ochiladi hamda ichidagi narsalar ko'zdan kechiriladi, uning ichidan chiqqan narsalar maxsus daftarga qayd etiladi.

Mahkumlarga o'zlarining hisoblariga adabiyotlar, gazeta va jurnallar sotib olishlariga yoki obuna bo'lishlariga ruxsat beriladi.

4. Mahkumlarning uchrashuvlari

Mahkumlarni yaqin qarindosh-urug'lari, oila a'zolari va bola-chaqalari bilan aloqada bo'lib turish masalalari ham hal qilingan. Bu masalalar uchrashuv, xat yozishmalari va telefon orqali so'zlashuv bilan amalga oshiriladi.

Uchrashuv ikki xilda bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli va uzoq muddatli uchrashuv. Qisqa muddatli uchrashuv to'rt soatgacha alohida ajratilgan joyda o'zaro suhbatlashish uchun beriladi. *Qisqa muddatli uchrashuv* qarindoshlari va boshqa shaxslarga ham berilishi mumkin. Mahkumning yaqin qarindoshlari, er-xotin, ota-ona, bolalari, o'g'il (qiz) qilib olingan shaxslar, aka-ukalar, opa-singillar, buvalar, nevaralar bilan uzoq muddatli uchrashuvga ruxsat beriladi.

Uzoq muddatli uchrashuv ikki turga bo'linadi. Jumladan, muassasa doirasida—bir sutkadan uch sutkagacha va muassasa doirasidan tashqarida—uch sutkadan besh sutkagacha berilishi mumkin. JIKning 82-moddasida: «Mahkumlarning alohida hollarda muassasa doirasidan chetga chiqishi mumkin» deyilgan.

Uzoq muddatli uchrashuvda mahkum bilan birga yashash uchun maxsus alohida xonalar tashkil etiladi. Uchrashuvga ruxsat jazoni ijro etish muassasasining boshlig'i yoki uning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari tomonidan beriladi. Mahkum bilan uchrashuvga kelgan shaxs uchrashuvga ruxsat olish uchun muassasa boshlig'ining nomiga ariza beradi. Uchrashuvga kelgan fuqarolarning shaxsini, shuningdek, ularning mahkumlar bilan qarindoshlik aloqasini tasdiqlovchi hujjatlar pasport, shaxsiy guvohnoma, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma (voyaga yetmaganlar uchun), nikoh to'g'risidagi guvohnomadir. Uchrashuvga kelgan shaxslar muassasa boshlig'i yoki uning o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi. Mazkur shaxslar uchrashuv vaqtidagi xulq-atvor qoidalari to'g'risida, nolegal yo'qlovlar berganlik uchun javobgarlik va buning oqibatlari xususida, shu jumladan belgilangan qoidalar buzilgan taqdirda uchrashuv darhol to'xtatib qo'yilishi to'g'risida ogohlantiriladi. Mahkumga ikkitadan ko'p bo'lmagan katta yoshli shaxslar bilan uchrashuvga ruxsat etiladi, mahkumning voyaga yetmagan farzandlari ular bilan birga bo'lishi mumkin.

Uchrashuvga mahkumlar orasta ko'rinishda kelishlari talab etiladi, uzoq muddatli uchrashuvlar vaqtida ularga uchrashuvga kelgan shaxslar keltirgan fuqarolar kiyadigan kiyim kiyib yurishga ruxsat beriladi, uchrashuv tugagandan keyin bu kiyimlarni ularni olib kelgan shaxslarning o'zi qaytarib olib ketadilar. Mahkumlar uchrashuvdan oldin va uchrashuvdan keyin to'liq tintuv qilinadi. Ularga uzoq muddatli uchrashuv o'tkaziladigan xonaga o'zlari bilan yuvinishtaranishda ishlatiladigan va chekish uchun zarur narsalarni olib kirish imkoniyati beriladi.

JIKning 77-moddasiga ko'ra, mahkumlarga yaqinlari bilan imkoniyat bo'lsa, telefon orqali so'zlashuvga ham ruxsat beriladi, bunday so'zlashuvlar muassasa

ma'muriyati nazorati ostida o'tkaziladi va ularning haqi O'zbekiston Pochta va telekommunikasiyalar agentligi tomonidan belgilanadigan tarif asosida mahkumning shaxsiy hisobvarag'idagi mablag' hisobidan to'lanadi.

Telefon orqali so'zlashuvlar miqdori jazoni ijro etish muassasasining tartib turiga hamda mahkum saqlanayotgan sharoitga qarab belgilanadi. Mahkum telefon orqali so'zlashuv uchun ruxsat olganda faqat bir abonent bilan bog'lanish huquqiga ega. Telefon orqali so'zlashuv muddati 10 minutdan oshmasligi kerak. Dastlabki telefon orqali so'zlashuv qamoqda saqlab turilgan vaqtda bu imkoniyatdan foydalangan yoki foydalanmaganligidan qat'iy nazar, jazoni ijro etish muassasasiga yetib kelgan birinchi kundan boshlab berilishi mumkin³¹.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan mahkumlar cheklanmagan miqdorda xat va telegrammalar olishi hamda jo'natishi mumkin. Mahkumlarning xatlari va boshqa jo'natmalari senzuraдан o'tkaziladi, jazoni manzil-koloniyalarda o'tayotgan shaxslar bundan mustasno.

Mahkumning xatlarni yuborishi faqat jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati orqali amalga oshiriladi. Takliflar, arizalar va shikoyatlarni muassasa ma'muriyatini chetlab o'tib, nolegal yo'llar bilan jo'natish saqlash rejimini buzish hisoblanadi. SHu maqsadda koloniyalarda pochta qutilari qo'yilib, ularni shunga vakolat berilgan mansabdor shaxslar har kuni ochib tekshiradilar. Xatlar elimlanmasdan pochta qutilariga tashlanadi yoki ma'muriyat vakillariga beriladi.

Mahkumlarning mansabdor shaxslarga, prokuror yoki sudga yozgan xatlari senzura qilinmaydi, bunday xatlar bir sutkaning ichida tegishli joyga jo'natilishi lozim. Davlat organlari, gazetalar va jurnallarning tahririyatlari, jamoat birlashmalari va ularning mansabdor shaxslariga yo'llangan, bu organlar, tashkilotlar va birlashmalar o'z nizomiga ko'ra yoki ularning mansabdor shaxslari vakolat doirasiga ko'ra hal etishga vakolatli bo'lmagan masalalar qamrab olingan takliflar, arizalar va shikoyatlar ko'rsatilgan manzilga yuborilmaydi. SHikoyat bergan mahkumga bu xususda tushuntirish berilib, undan tilxat olinadi hamda

³¹ «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari. - Toshkent, 2001. 31-bet. 44-paragraf, 204-band.

taklif, ariza yoki shikoyatni tegishli vakolatli organga, tashkilotga yoxud mansabdor shaxsga yo'llash tavsiya etiladi.

Mahkumlarning radioeshittirishlardan foydalanishlariga keng imkoniyatlar yaratiladi. Shu maqsadda mahkumlarning yotoqxonasi, ish joylari, ularning dam olish uchun mo'ljallangan joylari va boshqa joylari muassasa hisobidan radiolashtiriladi va doimiy ravishda mahkumni tashqi dunyoda bo'layotgan o'zgarish va yangiliklardan xabardor bo'lishlariga imkoniyat yaratiladi.

6. Mahkumlarning alohida hollarda muassasa doirasidan chetga chiqishi

JIKning 82-moddasiga ko'ra, mahkumlarga alohida hollarda muassasa hududidan tashqariga chiqish qoidalari belgilab berilgan. Jazoni o'tash jarayonida turli xil voqealar - yaqin qarindoshining vafot etganligi yoki hayoti uchun xavfli bo'lgan og'ir kasalligi, mahkumga yoki uning oilasiga jiddiy moddiy zarar etganligi kabi hodisalar mahkumni muassasadan tashqariga chiqishiga va uyiga borib kelishiga asos bo'la oladi. Qonunga binoan, mahkumning muassasadan tashqariga chiqishiga uyga borib-kelish vaqti (to'rt sutkagacha)dan tashqari etti sutkagacha vaqt beriladi. Agar mahkum yangi baxtsiz hodisa yoki boshqa uning qaytishi uchun to'siq bo'ladigan voqealar natijasida qayta olmasa, mahkum borgan joydagi ichki ishlar organlarining ruxsati bilan yana besh sutkagacha ruxsat berilishi mumkin. Bu haqda, albatta, muassasa ma'muriyatiga xabar qilinadi.

Mahkum muassasadan tashqariga chiqishi zarur bo'lganida, zarurat asosini ko'rsatib ma'muriyatga ariza bilan murojaat qiladi. Ma'muriyat arizaga bir sutka ichida javob berishi lozim. Ma'muriyat arizaga rad javobi berishga ham haqli. Mahkumning muassasadan tashqariga chiqish xarajatlari mahkum yoki uning qarindoshlari hisobiga amalga oshiriladi. Muassasadan tashqariga chiqishga ruxsat berilmagan mahkum o'z vaqtida muassasaga qaytmasa, u ichki ishlar organlari tomonidan ushlab, muassasaga qaytariladi. Bunday hol mahkumni jazoni o'tashdan buyin tovlagan deb hisoblanishga asos bo'lishi mumkin.

O'ta xavfli retsidivistlarga, umrbod ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida

ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslarga, o'ta og'ir jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarga, majburiy davolanayotgan va yuqumli kasalga chalingan mahkumlarga muassasadan tashqariga chiqishlariga ruxsat berilmaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Jazoni ijro etish muassasalari rejim deganda nimani tushunasiz?
2. Jazoni ijro etish muassasalarida rejim qanday asoslarga ko'ra belgilanadi?
3. Mahkumlarga qanday hollarda o'q-otar qurollarni ishlatish mumkin?
4. Qisqa uchrashuv nima, u uzoq muddatli uchrashuvdan qanday farq qiladi?
5. Qanday holatlarda jazoni ijro etish muassasalarida alohida holat joriy etiladi?
6. Qanday hollarda maxsus vositalarni ishlatish mumkin?

I topshiriq. O'z R JIKning 62-83 moddalari bilan tanishib chiqing.

II topshiriq. Seminar bo'yicha konspekt daftaringizda quyidagi misollar orqali jazoni ijro etish rejimi va sharoitini o'zgartish mumkin bo'lgan holatlar sxemasini chizing:

- a) O'ta xavfli retsidivist N., 12 yilga ozodlikdan mahrum qilingan edi (jazoning besh yili turmada o'tash belgilangan), axloqan tuzalish yo'liga o'tdi;
- b) qattiq tartibli koloniyadan manzil-koloniya o'tkazilgan mahkum saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topildi;
- v) manzil-koloniya jazoni o'tayotgan K. saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topildi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. Adolat- qonun ustuvorligida//Xalq so'zi, 2001,30 avgust.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Birinchida marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslarning jazo o'tash sharoitlarini liberallashtirish to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Axborotnomasi. – Toshkent, 2003.

3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent, 2008. - 62-83 moddalar.

4. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Ma'. muh. B.Ahrorov. – Toshkent, 2008. 108-126-b.

5. Uголовno-ispolnitelnoe pravo. Kurs leksiy. – Toshkent: Akademiya MVD, 2002. – S.104-122.

6. Abduxalikov M. va bosh. Jinoyat ijroiya huquqi. Albom sxemalar. –T., 2005. – B. 35-42.

7. Inog'omov Sh.H. Ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilinganlarning jazoni o'tash sharoitlarini tasniflash va differensiyalash: muammolar va ularni hal etish yo'llari. – Toshkent: Adolat, 2001. – 183 b.

7-MAVZU. MAHKUMLARNING MODDIY-MAISHIY TA'MINOTI. RAG'BATLANTIRISH VA INTIZOMIY JAZO CHORALARI

Reja:

1. *Mahkumlarning moddiy-ta'minoti tushunchasi va asosiy jihatlari.*
2. *Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar mehnati.*
3. *Mahkumlar ta'limi.*
4. *Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.*
5. *Rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari.*

Darsning maqsadi. Jazoni ijro etish muassasalarida moddiy-maishiy ta'minot tushunchasi va turlarini ochib berish, mehnatining huquqiy asoslarini ko'rsatish, rag'batlantiruvchi va intizomiy choralarni tahlil qilish, talabalarda bu boradagi bilim ko'nikmalarni hosil qilish.

Dars o'tish vositalari. Mavzuning asosiy jihatlari yorituvchi sxemalar, sud amaliyoti materiallari, jinoyat-ijroiya kodeksi normalarining tahlili, ko'rgazmali qurollar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, xalqaro-huquqiy hujjatlar, O'z R IIV ning 2001 yil 08 maydagi 118-sonli «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari», proyektor.

Dars o'tish usullari. Rejaga muvofiq har bir savolni mavjud materiallar asosida tanishtirib berish, seminar mavzulari bilan tanishtirish, mavzuga oid qonun hujjatlarini seminar mashg'ulotlarida keng tahlil qilish, klaster va aqliy hujum usullari, munozarali jihatlar yuzasidan savol-javoblar, test so'rovlari.

1. Mahkumlarning moddiy-ta'minoti tushunchasi va asosiy jihatlari

Mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti JIKning 12 bobi normalari bilan tartibga solinadi va 84-87 moddalarni qamrab oladi. Mahkumlarni axloqan tarbiyalash va ularni halol mehnatga o'rgatish jarayonida ularning moddiy-maishiy ta'minotining qonun normalari bilan tartibga solinishi katta ahamiyatga ega. *Mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti* – bu ularning qonunda nazarda tutilgan

yashash joyi, ust-bosh, ovqat ta'minoti, tibbiy-sanitariya ta'minoti kabi masalalardir.

Mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti masalasi maxsus O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tartibga solinadi. Mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti normalari ularning qaysi tartibli koloniyalarda saqlanayotganligiga ham bog'liq.

Mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti masalalari ham ularning jazoni o'tash jarayonlarida o'zgarishi mumkin. Jumladan, ularni rag'batlantirish yoki intizomiy jazolash masalalarini qo'llash, ularning moddiy-maishiy ta'minot huquqlarida ham o'zgaradi. Lekin bunday o'zgarish ham qonun darajasida tartibga solinadi. Ma'muriyat o'zboshimchalik bilan mahkumlar moddiy-maishiy holatlari talablarini o'zgartira olmaydi, o'zgartirishga urinish yoki uni bajarmaslik mahkumlarning ijtimoiy va xalqaro huquqlarini buzish deb baholanishi mumkin.

Jazoni ijro etish va tarbiya koloniyalarida mahkumlar umumiy turar joylarda yoki xonalarda saqlanadilar, turmalarda esa kameralarda saqlanadilar. Mahkumlarning turarjoylari sharoiti sanitariya-gigiena talablariga muvofiqlashtiriladi. JIKning 84-moddasida har bir mahkumga yashash maydonining eng kam bo'lishi mumkin bo'lgan maydon sathlari belgilangan, ya'ni

- umumiy turar joylarda - ikki kvadrat metr;
- tergov hibsxonalari va turmalarning umumiy kameralarida - ikki yarim kvadrat metr;
- ayollar va voyaga yetmaganlar saqlanadigan koloniyalardagi umumiy turar joylar uch kvadrat metr;
- bemorlar saqlanadigan palatalarda - to'rt kvadrat metrdan kam bo'lmasligi lozim.

Mahkumlarga yotish uchun alohida joy, ko'rpa-to'shak, choyshab va kerakli inventar beriladi.

Jazoni ijro etish koloniyalarining yashash uchun mo'ljallangan qismida yashash uylarida ovqatlanish xonasi, dam olish xonasi, shifoxona, o'qish va kasb-hunar o'rganish xonalari, do'kon, klub, kir yuvish va hammom, kutish va

uchrashuv xonalari, kir quritish xonasi, kiyimbosh va poyabzallarni ta'mirlash xonalari, navbatchilar xonasi, mahkumlarning shtabi, kamera tipidagi xonalari, nazorat qilish va o'tkazish joylari, yoz mavsumlarida mahkumlarning saf tortishi, sport bilan shug'ullanishi va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish maydonlari, ibodat qilish uchun mo'ljallangan xonalari va boshqa inshootlari bo'lishi lozim. Mahkumlarning yashash uylarida yuvinish, hojatxonalar, ayollar koloniyalarida gigiena xonalari bo'lishi kerak.

Qishki mavsumlarda mahkumlar yashash joylari maxsus isitilib, harorat 18-20° bo'lishi ta'minlanadi.

Mahkumlarning yashashlari uchun mo'ljallangan hududdan tashqarida ishlab chiqarish inshootlari, muassasa ma'muriyati binosi, harbiy soqchilar joylashtirilgan bino, omborxona, oziq-ovqat saqlanadigan xonalar, garaj, isitish anjomlari, xo'jalik xonalari va boshqa inshootlar bo'ladi.

Mahkumlarga alohida karavot, ko'rpa-yostiq, ikki kishiga bitta tumbochka, stul bilan ta'minlanadi. Masalan, umumiy va qattiq tartibli koloniyalardagi, maxsus tartibli koloniyalarning oddiy turar joylaridagi, tarbiya koloniyalaridagi yotoqxonlar ta'min etiladigan inventar va narsalar quyidagicha: qattiq simto'rli bir qavatli yoki ikki qavatli metall krovatlar, krovatlarning yoniga qo'yiladigan tumbochkalar (har ikki mahkumga bitta), 10-12 mahkum o'tirishiga mo'ljallangan stol, taburetkalar, ichimlik suvi solinadigan bakcha krujkasi bilan, osma soat, oshxona pichoqlari³² (har ellik mahkumga bitta hisobidan), konserva ochadigan pichoqcha (bitta yashash seksiyasiga ikkita), qaychi (har ellik mahkumga bitta), dazmol (bitta yashash seksiyasiga bitta), ustki kiyimlar uchun veshalka, ro'zg'or xolodil'nigi (bitta yashash seksiyasiga bitta). Har bir karavotnint oyoq tarafiga mahkum haqidagi ma'lumotlar yozilgan belgilar osib qo'yiladi.³³

Muassasa hududida mahkumlarning qisqa muddatli va uzoq muddatli uchrashuvlari uchun mo'ljallangan joylari tashkil etiladi. Bunday joy, odatda,

³² Oshxona pichoqlari, konserva ochadigan pichoqchalar va qaychilar tamg'alanadi hamda ro'yxati bilan birgalikda navbatchida saqlanadi. Dazmol maishiy xonada, u bo'lmasa navbatchida saqlanishi mumkin.

³³ «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari. - Toshkent, 2001. 60-bet. 13-paragrafning 41 bandiga ilova.

mahkumlarning yashash zonalari joylarida tashkil etiladi va ma'muriyat vakili va soqchilar bilan qo'riqlanadi. Uzoq muddatli uchrashuv joylari mehmonxona ko'rinishida bo'lib, u erda metall simto'rli ikkita krovat va o'rin-ko'rpa, krovat yoniga qo'yiladigan tumbochka, ovqatlaniladigan stol, ikki-uchta stul, kiyim veshalkasi yoki shkafi, deraza parda, suv solinadigan idish stakani bilan, osma soat, televizor bo'ladi. Ushbu xonalarda shuningdek oshxona gaz plitasi va xolodilbnigi bilan, sanitariya bo'lmasi, issiq suvli dushxona, xoll jihozlanadi, zaxirada ikki-uchta bolalar krovati bo'lishi nazarda tutiladi³⁴.

O'z R JIK ning 85-moddasiga ko'ra, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga kishi organizmining normal hayotini ta'minlaydigan ovqat beriladi. Bu borada ovqat normasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan mahkumlarning sog'lig'i holatiga, ularning yoshi, bajarayotgan ishining xususiyati va og'irligiga qarab belgilanadi. Mahkumlarga ularni ishga jalb etgan korxona, muassasa va tashkilotlar mablag'lari hisobidan qo'shimcha ovqat berilishi mumkin.

Mahkum emizikli va homilador ayollarga, voyaga yetmaganlar, 1 va 2-guruh nogironlari va kasalmand mahkumlarga hamda og'ir mehnatga jalb qilingan mahkumlarga beriladigan ovqat boshqalarnikidan farq qilishi mumkin. Ularga oshirilgan miqdorda ovqat beriladi va tibbiy xulosa asosida qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari olishga ruxsat etiladi. Bir kunda uch mahal ovqatlantirilish tartibiga amal qilinadi.

Mahkumlarni ust-bosh bilan ta'minlash tartibi JIKning 86-moddasiga binoan amalga oshiriladi. Mahkumlarga Respublika byudjetidan belgilangan namunada kiyim, mavsumga qarab, mahkumning jinsi va iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda ichki kiyim va poyabzal beriladi.

Mahkumlarga tibbiy xizmat ko'rsatish masalasi ham yo'lga qo'yilgan³⁵ (JIK 87- moddasi).

³⁴ O'sha joyda, 109-bet, 40-paragrafning 179-bandiga ilova.

³⁵ **Bu haqda batafsil qarang:** O'zbekiston Respublikasi IIV tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar tibbiy ta'minoti bo'yicha Qoidalar // O'zbekiston Respublikasi IIVning 2002 yil 3 sentyabrda buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Mahkumlarga tibbiy-sanitariya xizmati ko'rsatish uchun jazoni ijro etish muassasasi qoshida davolash bo'limi mavjud. Bu bo'limlar mahkumlarga tibbiy xizmat ko'rsatish vazifasini amalga oshiradilar (Tibbiy markazlari, shifoxonalari, jumladan ruhiy, yuqumli kasalliklar shifoxonalari, qisqa muddatli tuberkulyoz I va II guruh nogironlari uchun tibbiy ro'yxatga olish uchun maxsus koloniyalar tashkil etilgan). Bu koloniyalarda kundalik yoki shifoxonada davolanish uchun sharoitlar yaratilgan. Yuqumli kasalliklar, tanosil va orttirilgan immunitet xastaligi kasalligi, giyohvand va alkogol kasallarini saqlash va davolash uchun maxsus muassasa tashkil etiladi. Tanosil kasalliklari bilan og'riganlar esa davolanish jarayonida koloniyaning tibbiy bo'limlarida boshqa mahkumlardan ajratilgan holda davolanadilar. Mahkumlar dastlabki tibbiy nazorat jarayonlarida boshqa mahkumlar bilan birga saqlanadilar.

1. Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarning mehnati

O'z R JIKning 13 bob, 88-96 moddalari mahkumlarni mehnatga jalb qilish masalalarini nazarda tutadi.

Mahkumlar jinsi, yoshi, sog'lig'ining holati, mehnat qobiliyati va iloji boricha ixtisosini inobatga olgan holda mehnatga jalb etiladi. Ularning mehnatga oid munosabatlari O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari va jinoyat-ijroiya qonunida nazarda tutilgan normalar bilan tartibga solinadi.

Jazoni ijro etish muassasasiga kelib tushgan mahkumlar meditsina va malakalashtirish hamda tasniflash komissiyasida mahkumlarning mehnat qilish qobiliyatlari ham aniqlanadi.

Oltmish yoshdan oshgan erkaklar, ellik besh yoshdan oshgan ayollar, I va II guruh nogironlari mehnatga o'z xohishlariga ko'ra jalb etiladilar.

Mahkuma homilador ayollar homiladorlik va tug'ish munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan muddatga ishdan ozod qilinadi.

Mahkumlarning xususiy shaxslar foydasiga mehnat qilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, ularning mehnatidan:

a) jazoni ijro etish muassasalarining boshqarmalari, bo'limlari va bo'linmalarida;

b) harbiy bo'linmalarining shtablarida hamda shaxsiy tarkib joylashgan qurol-yarog' va hujjatlar saqlanayotgan joylarda;

v) sotuvchi, buxgalter, oziq-ovqat omborlarining, shuningdek, murakkab va qimmatbaho uskunalar omborlarining mudiri tariqasida;

g) dori vositalari, shuningdek, portlovchi va zaharlovchi moddalarning hisobini yuritish, ularni saqlash va berish bilan bog'liq ishlarda va boshqa ishlarda foydalanish taqiqlanadi³⁶.

JIKning 90-moddasiga binoan, jazoni ijro etish muassasalarida o'tayotgan mahkumga olti kunlik ish haftasi belgilangan. Ularning ish vaqti rejimini ijro etish muassasasining ma'muriyati belgilaydi va umumiy ish vaqtining eng ko'p normasidan oshib ketmasligi kerak.

Inson sog'lig'iga zararli ishlarda ishlaganlarning va voyaga yetmaganlarning ish vaqti mehnat qonunlarida ko'zda tutilgan umumiy asoslarda belgilanadi. Ish vaqti davomida bir soat tushlik vaqti belgilanadi.

Mahkumlarni ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish va bayram kunlarida ishga jalb etishga, ishlab chiqarish zarurati bo'lgan taqdirda, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan ish vaqtidan tashqari ishlarning eng ko'p muddatiga rioya etgan holda yo'l qo'yiladi.

Ish vaqtini jamlab hisobga olish joriy etilganda, mahkumlar ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish va bayram kunlarida yoki tungi ishlarga jalb etilgan taqdirda mehnat To'g'risidagi qonun hujjatlarida voyaga yetmagan shaxslar, 1 va II guruh nogironlariga nisbatan belgilangan cheklashlarga rioya etilishi shart.

Mahkuma homilador ayollar, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalari qoshidagi bolalar uylarida bolasi bor ayollar ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam

³⁶ «Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari. - Toshkent, 2001. 38-bet. 53-paragraf, 259-264 bandlar.

olish va bayram kunlarida ishga yoki ish vaqti jamlab hisobga olinadigan rejimda ishlashga o'zlarining roziligi bilan jalb etilishi mumkin. Mahkumlarning ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram kunlaridagi ishlari uchun ikki hissa haq to'lanadi.

Ishni boshlash va tugallash vaqti koloniyaning kun tartibiga muvofiq ravishda koloniyaning boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar jazoni o'tayotgan vaqtda jazo muddati uzluksiz bo'lganligi uchun mehnat ta'tili olishga ruxsat berilmaydi. Manzil koloniyalarda jazoni o'tayotganlar bundan mustasno.

Manzil koloniyalardagi mahkumlar muddati 15 kundan iborat haq to'lanadigan har yilgi mehnat ta'tiliga chiqish huquqiga ega. Ushbu holda mahkumga muassasa hududidan tashqariga chiqish huquqi beriladi. Mahkum jazoni ijro etish koloniyasining intizomiy bo'linmasi turar joylarida saqlangan vaqt haq to'lanadigan har yilgi mehnat ta'tili berish uchun zarur muddatga qo'shib hisoblanmaydi.

JIKning 92-moddasiga binoan mahkumlarning mehnatiga haq to'lash, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq haq to'lanadi.

Mahkumlar belgilangan ish normalarini bajargan hollarda, belgilangan ish haqining eng kam miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda haq to'lanadi.

Mahkumlarga to'lanadigan ish haqi ularning hisobvarag'iga o'tkaziladi va ish haqlaridan ularning barcha to'lovlariga o'tkazilishi mumkin, jumladan, nafaqa to'lash, daromad solig'i, pensiyaga ushlab qolish kabi to'lovlardan qolgan qiymatdan, sudning ijro varaqasiga binoan to'lanadigan to'lovlar yoki boshqa to'lovlar to'lanishi mumkin.

JIKning 93-moddasiga ko'ra, mahkumlarni haq to'lanmaydigan ishlarga ham jalb qilinishlari mumkin. Haq to'lanmaydigan ishlarga, asosan, koloniya hududini obodonlashtirish, madaniy-maishiy sharoitni yaxshilash holatlarida jalb qilinadilar. Haq to'lanmaydigan ishlarga mahkum haftasiga ikki soatdan oshmagan holda jalb qilinadi.

JIKning 96-moddasiga ko'ra, mahkum ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar ajratilmaydi. Mahkum jazodan ozod bo'lganidan so'ng davlat pensiya ta'minoti olish huquqiga ega bo'ladi.

2. Mahkumlarning ta'limi

JIKning 100-moddasiga ko'ra, jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning umumiy o'rta ta'limi tashkil etiladi. Muassasa ma'muriyati mahkumlarga ta'lim olish va mustaqil ta'lim olshi uchun sharoitlar yaratib beradi.

Yoshi o'ttizdan oshgan mahkumlar, I va II guruh nogironlari o'z xohishlariga ko'ra ta'lim olishga jalb etiladilar.

Mahkumlarning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olishiga yo'l qo'yilmaydi, ammo manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotgan mahkumlar sirdan o'qishi mumkin. Muassasalarning ma'muriyati maktablar hamda kasb-hunar ta'limi yo'nalishidagi o'quv dargohlari ishiga har taraflama yordam beradi hamda o'quv jarayonini nazorat qilib boradi.

O'quv yurtlarida ta'lim olayotgan mahkumlar imtihonlarni topshirish vaqtida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishdan ozod etiladilar. Ana shu davr uchun ularga ish haqi O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga ko'ra hisoblab chiqariladi.

3. Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarga nisbatan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish

Mahkumlarni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash maqsadida ularga nisbatan tarbiyaviy ta'sir choralari qo'llaniladi. Mahkumlarning tarbiyaviy ta'sir choralarining vazifalari JIKning 97-moddasida belgilab berilgan. Mahkumlarni axloqan tarbiyalashning asosiy vazifasi ularni jamiyat qonun talablariga, axloq-odob talablariga, bilim va madaniy saviyalarini oshirishga, shuningdek, tarbiyaviy ta'sir choralari ularning jamiyatga munosabatini, mehnatga munosabatini va uning ruhiy munosabatlarini ijobiy mukammallashtirishga qaratiladi. Mahkumlarga

qo'llaniladigan tarbiyaviy ta'sir choralari qo'llash, koloniya ichki kun tartibiga va mahkumlarning ish vaqtlariga ta'sir ko'rsatmagan holda tashkil etiladi.

Mahkumlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ish har bir mahkumning shaxsiga xos xususiyatlarni, muassasa turini, jazo muddatini va saqlash sharoitini inobatga olgan holda tashkil etiladi hamda yakka tartibda, guruh-guruh qilib yoxud ommaviy shaklda olib boriladi.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy ta'sir choralari har bir mahkumning huquqiy, axloqiy va jismoniy xususiyatlarini tushuntirish ko'rinishlarida tashkil etiladi.

Ommaviy shakldagi tarbiyaviy ishlar otryadlar tarkibida olib boriladigan choralarni nazarda tutadi.

Mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlarni o'tkazishda jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining barcha vakillari, shuningdek mahkumlarni o'zlari ishtirok etadilar. Mahkumlarning tarbiyaga oid tadbirlardagi ishtiroki muassasa ma'muriyati tomonidan har taraflama rag'batlantirilib boriladi hamda ularning axloq tuzalish darajasini aniqlashda e'tiborga olinadi.

Turmalarda, maxsus tartibli koloniyalarning kamera tipidagi xonalarida va koloniyalarning intizomiy bo'linmalarida mahkumlar bilan tarbiyaviy ish bevosita kameralarda guruh-guruh qilib va yakka tartibdagi tadbirlar shaklida olib boriladi. Koloniya va turmalarda mahkumlar jamoalari Kengashlari tuzilishi mumkin. Ushbu Kengashlar qoshida turli seksiyalar, xususan huquqbuzarliklar profilaktikasi va ichki tartib, ommaviy-ishlab chiqarish, ommaviy-madaniy, umumiy ta'lim va hunar-texnika ta'limi, jismoniy tarbiya va sport ishlari, maishiy-sanitariya, savdo va umumiy ovqatlanish seksiyalari faoliyat ko'rsatadi.

Mahkumlarning huquqiy tarbiya ishlarini tashkil qilish har xil bo'lib, IIV tomonidan ishlab berilgan dastur asosida olib boriladi.

4. Rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari

Ozodlikdan mahrum qilinganlarning ta'lim-tarbiyasi va ularga qo'llaniladigan majburlov choralari amalga oshirishda rag'batlantirish va

intizomiy jazolashning ahamiyati katta. Mahkumlarni rag'batlantirish yoki intizomiy jazolash choralari JIKning 16-bobi 102-112 moddalari bilan tartiga solinadi.

Rag'batlantirish choralari mahkumlarga ijobiy xulqi, mehnatga halol munosabatda bo'lishi, kasb-hunar o'rganishdagi yutuqlari, muassasaning faoliyatidagi faol ishtiroki va tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishdagi faolligi uchun qo'llaniladi. Rag'batlantirish yuqorida ta'kidlangan holatlarning barchasi uchun umumiy tarzda yoki alohida bittasi uchun ham qo'llanilishi mumkin. Rag'batlantirish choralari JIKning 102-moddasig ko'ra:

- tashakkur e'lon qilish, ilgari qo'llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash, yorliq, qimmatli sovg'a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash, qo'shimcha posilka, yo'qlov yoki yo'qlov olishga ruxsat berish, qo'shimcha uchrashuv yoki telefon orqali so'zlashuv huquqi berish, oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun pul qiymatini ko'paytirish, engillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish holatlari qo'llaniladi.

Mahkumlarga JIKning 75-moddasi uchinchi qismida belgilangan mahkum uchun sarflanadigan pul xarajatlariga yana qo'shimcha *o'n foiz* sarflashga ruxsat berilishidan farqli pul mukofoti bilan taqdirlash ham mumkin.

Mahkumlarni axloqan tuzatish, uni halol mehnatga o'rgatish va jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-intizomiga buysunishini ta'minlash uchun, unga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan intizomiy jazo choralari ham belgilangan. Jumladan, JIKning 105-moddasiga binoan mahkumga nisbatan quyidagi *intizomiy choralar* qo'llaniladi:

- ogohlantirish, hayfsan e'lon qilish, engillashtirilgan saqlash sharoitini bekor qilish, intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish, jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzuvchi mahkumlarni manzil koloniyadan umumiy yoki qattiq tartibli koloniyaga, qattiq tartibli koloniyadan maxsus tartibli koloniyaga, koloniyadan turmaga o'tkazib qo'yish tarzidagi choralar belgilangan.

Mahkum intizomiy jazo ustidan yuqori mansabdor shaxs, prokuror yoki sudga ariza bilan shikoyat qilishi mumkin. Intizomiy jazoning amal qilish muddati, u qo'llanilgan kundan boshlab bir yildan oshmasligi kerak.

Jazoni ijro etish muassasalarining *intizomiy bo'linmalariga* quyidagilar kiradi:

- manzil-koloniya va tarbiya koloniyalarining hibsonalari;
- umumiy va qattiq tartibli, maxsus tartibli koloniyalarning hibsonalari va karserlari;
- tergov hibsonalarining va turmalarining karserlari.

Mahkumlar *hibsonalar va karserlarga* 15 sutkagacha, tarbiya koloniyalarining *hibsonalariga* esa 10 sutkagacha kiritib qo'yiladi.

Jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzuvchi mahkumlar umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning karserlariga olti oygacha, ayollar saqlanadigan koloniyalarda uch oygacha bo'lgan muddatga o'tkazilib qo'yiladi.

Umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning karserlariga o'tkazilgan mahkumlar quyidagi huquqlarga ega: oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun belgilangan eng kam ish haqi miqdorining etmiş besh foizigacha pul sarflash, har kuni muddati ikki soatlik sayrdan foydalanish.

Maxsus tartibli koloniyalar, tergov hibsonalari va turmalarining karserlarida mahkumlar yakka saqlanadi.

Rag'batlantiruvchi va intizomiy jazo choralari muassasa boshliqlari yoki ularning o'rnini bosuvchilar tomonidan qo'llaniladi.

Jazoni o'tash tartibini kamida ikki marta qo'pol tarzda buzgan va buning uchun intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi jazoga tortilgan mahkum, agar har bir intizomiy jazo belgilangan tartibda olib tashlanmagan yoki bekor bo'lmagan bo'lsa, (shuningdek muassasa hududidni o'zboshimchalik bilan 24 soatdan ko'proq muhlat mobaynida tashlab ketgan mahkum ham manzil koloniyada) *saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi* deb topiladi. Ular engillshatirilgan sharoitga, manzil-koloniya o'tkazilmaydi, shuningdek, jazoni

o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish, yoki engilrog'i bilan almashtirishga taqdim etilmaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Mahkumlar moddiy-maishiy ta'minoti ozodlikdagi fuqarolarnikidan qanday farq qiladi?
2. Mahkumlar qanday asoslarga ko'ra, dam olish va bayram kunlari mehnatga jalb qilinishi mumkin?
3. Mahkumlarga qanday miqdorda ish haqi to'lanadi va u nimalarga asoslanadi?
4. Qanday hollarda mahkumlar moddiy javobgarlikka tortiladi?
5. Mahkumlarga nisbatan qanday rag'batlantiruvchi va intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin?

I topshiriq. O'z R JIKning 84-112 moddalari bilan tanishib chiqing.

II topshiriq. Jazoni o'tayotgan P guruh nogironi K. muntazam ravishda ishga chiqishdan bosh tortib kelganligi uchun intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yilgan. Bu haqida norozilik bildirib, prokurorga shikoyat ariza yozgan, o'zining P guruh nogironi ekanligini, qonunga ko'ra ishga chiqmasligi mumkinligini va shuning uchun ishlamaganligini, bundan keyin ham ishga chiqmasligini ta'kidlagan.

Ushbu holat yuzasidan prokurorning javob xatini tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Adolat- qonun ustuvorligida //Xalq so'zi. 2001 y. 30 avgust.
2. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'qqizinchi sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi. 2002. 30 avgust.

3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. –T.: Adolat, 2008. 84-112 moddalar.
4. Abduxalikov M.A., Payzullaev Q. Va boshq. Jinoyat- ijroiya huquqi. Albom sxemalar.- Toshkent, 2005.- B.44-54.
5. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo. Kurs leksiy. –Toshkent: Akademiya MVD, 2002. - S. 125-138.
6. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mas'ul muharrir: B. J.Ahrorov, -T. 2008. – B. 126-136.
7. Shamansurov A. Zakonodatel'noe obespechenie ugolovno-ispolnitel'noy sistemy Respubliki Uzbekistan. - Tashkent, 2000. - S. 84-106.
8. Inog'omov Sh.H. Ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilinganlarning jazoni o'tash sharoitlarini tasniflash va differensiyalash: muammolar va ularni hal etish yo'llari. – Toshkent: Adolat, 2001. – 183 b.

8 - MAVZU. UMRBOD OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISH

Reja:

- 1. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tushunchasi.*
- 2. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibi.*
- 3. Avf etish to'g'risida iltimosnoma berish.*

Darsning maqsadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tushunchasi va tartibi, ushbu jazoga hukm etilgan mahkumlarning huquqiy holatini ochib berish, afv etish to'g'risida iltimosnoma berish tartibi haqidagi tushunchalar.

Dars o'tish vositalari: xalqaro konvensiyalar, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilganlarning huquqiy holatini ifoda etuvchi sxemalar, statistika materiallari, Jinoyat ijroiya kodeksi normalari, sud amaliyoti materiallari, O'z R Prezidenti I.A.Karimovning «O'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi» Farmoni, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, proyektor.

Dars o'tish usullari. Leksiya va seminar mashg'ulotlarini munozara tarzida olib borish, xulosa qilish, mavzu yuzasidan savol-javoblar tashkil qilish, test savollari, o'zaro savol-javoblar.

1. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimini isloh qilishning eng muhim vazifasi jinoyat, jinoyat-prosessual qonun hujjatlari, jinoiy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi.

O'lim jazosini bekor qilinishi va uning o'rniga uzoq muddatga yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini nazarda tutilishi, O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan jarayonlarning muhim yo'nalishi bo'ldi. Mamlakat mustaqillikka erishgan paytda jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida o'lim jazosini nazarda tutuvchi 30 dan ortiq moddalardan mavjud edi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yilgi Jinoyat kodeksida bunday moddalar soni 13, 1998

yilda -8, 2001 yilda 4 tagacha kamaytirildi. 2003 yilda jinoyat qonunchiligini liberallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng, faqat ikki turdagi jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlarini sodir etganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan edi. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 15 iyunida qabul qilingan «O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga ko'ra, Jinoyat kodeksining 51-moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi mustahkamlandi.³⁷

Jazo tizimiga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini kiritilishi, jinoyat uchun jazo tayinlash tizimini liberallashtirishning yana bir ifodasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining bu borada jinoyatga oid siyosati umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llashga nisbatan jahon tendensiyalariga to'la mos keladi hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e'lon qilingan insonparvarlik va odillik tamoyillarini izchil ifoda etadi.

Boshqa davlatlar jinoyat qonunlaridan farqli ravishda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ushbu jazo o'lim jazosining o'rniga yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosining bir turi, muqobil jazo sifatida emas, balki Jinoyat kodeksi 43-moddasining «z» bandiga ko'ra, asosiy jazolardan biri sifatida nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 51-moddasining 1-qismiga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi favqulodda jazo chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yishdan iboratdir. U faqat ikki jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik (JK 97-moddasining «qismi) va terrorizm (JK 155-moddasining 3-qismi) uchun tayinlanishi mumkin. Bu borada ba'zi bir chet mamlakatlarni jinoyat qonunlarini

³⁷ **Bu haqida batafsil qarang:** O'zbekiston Respublikasining «O'lim jazosini bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. - № 6 (1374). 2007.

o'rganish shundan dalolat beradiki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash doirasi boshqa davlatlarda ancha yuqori. Jumladan, Daniya Jinoyat kodeksiga ko'ra, ushbu jazo – 9 turdagi, SHvesiyada – 13 turdagi, Belarus Respublikasida – 14, Gollandiyada – 19 turdagi, Moldovada – 24, Germaniya va Pol'shada – 5 turdagi, Fransiyada – 18 turdagi jinoyatlar uchun qo'llash nazarda tutilgan.

Rossiya Federasiyasi Jinoyat qonunchiligida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'ta og'ir jinoyatlar, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik (JK 105-m. 2-q.), davlat yoki jamoat arbobining hayotiga tajovuz qilish (JK 277-m.), odil sudlovni amalga oshirayotgan shaxsning hayotiga tajovuz qilish (JK 295-m.), genosid (JK 357-m.), huquqni muhofaza qilish organ xodimining hayotiga tajovuz qilish (JK 317-m.) kabi jinoyatlar uchun nazarda tutilgan.

Germaniya Jinoyat kodeksiga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi quyidagi jinoyatlar: agressiya, davlatga xoinlik qilish, Vatanga xoinlik qilish, odam o'ldirish, bosqinchilik, og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan yong'in, transport haydovchisiga bosqinchilik yo'li bilan hujum qilish, genosid va boshqa jinoyatlar uchun nazarda tutilgan.

Shvesiyada ham ushbu jazo ko'proq davlatga qarshi jinoyatlar, ayrim harbiy jinoyatlar, shaxsga qarshi jinoyatlar uchun nazarda tutilgan bo'lib, u 21 yoshga to'lmagan shaxsga tayinlanishi mumkin emas.

Yuqoridagilar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligi bo'yicha ushbu jazoni tayinlash chegrasi ham boshqa davlatlarnikidan farq qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonuniga ko'ra, ushbu jazo ayolga, o'n sakiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas. Chet mamlakatlar, jumladan, Fransiya, Avstriya, Shvesiya, Shveysariya, AQSH, Daniya va boshqa mamlakatlar qonunlariga ko'ra, ushbu jazoni tayinlashda alohida qoidalar, cheklashlar nazarda tutilmagan.

Angliyada umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashda sud jinoyat sodir etilishidagi barcha holatlarni va jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsga oid xususiyatlarini e'tiborga oladi. Sud ushbu jazoni faqat «jiddiy» jinoyatlar uchun tayinlashi mumkin (Jinoyat va jazo to'g'risidagi Qonunning 2 § 1-q.) Ushbu qonunga ko'ra, odam o'ldirishga suiqasd qilish, dalolatchilik qilish, odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir shikast etkazish, nomusga tegish, yoki nomusga tegishga suiqasd qilish, 13 yoshdan kichik qizlar bilan jinsiy aloqa qilish va boshqa jinoyatlar jiddiy jinoyatlar deb topilishi mumkin. YUqoridagi ko'rinadiki, ushbu davlatning Jinoyat qonuniga ko'ra, tamom bo'lmagan, ya'ni jinoyatga suiqasd qilganlik uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash mumkin. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi esa, bu borada qilmishning boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga etkazilmaganligi, ijtimoiy xavfli oqibatlarni yuz bermaganligini e'tiborga olgan holda tamom bo'lmagan, ya'ni jinoyatga suiqasd qilganlik uchun ushbu jazoni tayinlash to'g'risidagi qoidalarni mustahkamlamaganligi adolatlidir.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ushbu jazo Jinoyat qonuni maxsus qism moddalarida, muqobil (alternativ) jazo sifatida nazarda tutilgan. Ya'ni umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan moddalar sanksiyasida ushbu jazo uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga muqobil jazo sifatida nazarda tutilgan. Vaholanki, boshqa mamlakatlar, jumladan AQSH jinoyat qonunchiligiga ko'ra, u muqobil jazosi sifatida emas, balki yakka tartibda mutloq jazo sifatida qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Respublika Jinoyat qonuni bo'yicha, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ushbu jazoga hukm etilgan shaxslar boshqa davlatlardagi kabi, muddatidan ilgari shartli ravishda javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin emas. Rossiya Federasiya Jinoyat kodeksining 79-moddasi 5-qismiga ko'ra, jazoning 25 yilini o'tagan, saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilmagan, jazoni o'tash davomida og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etmagan

shaxslar, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashdan shartli ravishda ozod qilinishi mumkin.

O'lim jazosining bekor qilinish munosabati bilan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining mustahkamlanishi, o'z navbatida Jinoyat-ijroiya qonunchiligi tizimida ham muhim o'zgarishlarga olib keldi, bu borada Jinoyat-ijroiya qonunida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibi va shartlarini nazarda tutuvchi huquqiy tizim ishlab chiqildi. Ushbu jazoni jazoni ijro etish shartlari, tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi beshinchi bo'lim 24-bob, 136-140 moddalari bilan tartibga solinadi.

Ta'kidlash kerak, ushbu jazoni ijro etish tartibi va shartlari bu boradagi xaqaro huquqiy hujjatlarda, jumladan, Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (1955 yil 30 avgust) da aks etgan asosiy talab va sharoitlarga javob beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonuniga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash va ijro etish qoidalari bu borada insonparvar tamoyillarga yo'naltirilganligi bilan diqqatga sazovor bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega:

-*birinchidan*, amaldagi jinoyat qonunida umrbod ozodlikdan mahrum qilish asosiy jazo bo'lib, u favqulodda hollarda qo'llanilishi mumkin;

-*ikkinchidan*, u ayolga, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas;

-*uchinchidan*, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat tamom bo'lgan jinoyatlar uchun tayinlanishi mumkin;

-*to'rtinchidan*, qonunda belgilangan tartibda faqat ikki turdagi, ya'ni aybni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik va terrorizm jinoyatlari uchun qo'llanilishi mumkin;

- *beshinchidan*, jazoni o'tashda mahkumlar alohida huquqiy holatga ega.

2. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibi va shartlari

O'zbekiston Respublikasi JIKning 120-moddasiga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar jazoni maxsus tartibli kolonyalarda o'taydilar. Bu borada JIKning 130-140 moddalari umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash tartibi va shartlarini belgilaydi.

Mahkumlar kameralarga ko'pi bilan ikki kishidan joylashtiriladilar. Ularning iltimosiga ko'ra yoki zarurat taqozo etganda mahkumlar bir kishilik kameralarda saqlanishlari mumkin.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar jazoni *qattiq, odatdagi* va *yengillashtirilgan* saqlash sharoitlarida o'tashlari mumkin. Shuningdek, JIKning 136-moddasiga ko'ra, ushbu jazoga hukm etilgan mahkumlar jazoning dastlabki o'n yilini qattiq saqlash sharoitlarida o'taydilar. Faqatgina jazoning kamida o'n yilini o'tagan va belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan mahkumlar odatdagi saqlash sharoitlariga o'tkazilishlari mumkin. Yuqoridagilar bilan birga, tayinlangan jazoning o'n besh yilini o'tagan, intizomiy jazo olmagan mahkumlar yengillashtirilgan saqlash sharoitlariga o'tkazilishlari mumkin.

O'z R JIK ning 137-moddasiga ko'ra, ushbu jazoga hukm qilingan bitta mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi to'rt kvadrat metrdan kam bo'lishi mumkin emas.

Jazoni *qattiq saqlash sharoitlarida* o'tayotgan mahkumlar o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan belgilangan eng kam ish haqi miqdorining etmish besh foizigacha bo'lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, yil mobaynida bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, bitta posilka yoki yo'qlov, bitta banderol olish huquqiga ega.

Jazoni *odatdagi saqlash sharoitlarida* o'tayotgan mahkumlar o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'laridan eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur

narsalar sotib olish, yil mobaynida bir marta uzoq muddatli va bir marta qisqa muddatli uchrashuv, ikki marta telefon orqali so'zlashuv, ikkita posilka, ikkita banderol olish huquqiga ega.

Jazoni yengillashtirilgan *saqlash sharoitlarida* o'tayotgan mahkumlar o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'laridan eng kam ish haqining bir yarim baravarigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, yil mobaynida bir marta uzoq muddatli va ikki marta qisqa muddatli uchrashuv, uch marta telefon orqali so'zlashuv, uchta posilka yoki yo'qlov, uchta banderol olish huquqiga ega.

Mahkumlar saqlash sharoitlaridan qat'iy nazar, har kuni bir yarim soatgacha sayr qilish huquqiga ega. Ularning mehnati odatdagi va engillashtirilgan saqlash sharoitlarida saqlanayotgan shaxslar uchun ish kameralarida tashkil etiladi.

Umrbod ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarga o'z navbatida rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin. Xususan JIKning 139-moddasiga ko'ra, quyidagi *rag'batlantirish choralari* qo'llanilishi mumkin:

- ilgari qo'llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash;
- yorliq, qimmatli sovg'a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash;
- qo'shimcha posilka, yo'qlov yoki banderol olishga ruxsat etish;
- oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun pul summasini ko'paytirish. Shuningdek, jazoni o'tashning engillashtirilgan sharoitlariga belgilangan tartibda o'tkazilgan mahkumlarga nisbatan rag'batlantirish tartibida uchrashish va telefon orqali so'zlashish imkoniyati ham berilishi mumkin.

Ushbu jazoga hukm etilgan mahkumlarga quyidagi *intizomiy choralar* qo'llanilishi mumkin:

- hayfsan;
- intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish.

Odatdagi va yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida belgilangan tartibni ashaddiy buzuvchi deb topilgan mahkumlar yengillashtirilgan saqlash

sharoitlaridan odatdagi yoki qattiq saqlash sharoitlariga va odatdagi saqlash sharoitlaridan qattiq saqlash sharoitlariga o'tkazilishlari mumkin.

3. Afv etish to'g'risida iltimosnoma berish

Afv etish - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan huquqiy akt bo'lib, bu asosda jinoyat sodir etgan shaxs sud tomonidan tayinlangan jazodan ozod qilinishi yoki jazo yengillashtirilishi yoxud boshqasiga almashtirilishini nazarda tutadi.

Afv etish amnistiya bilan farqli ravishda javobgarlikdan ozod qilishga qaratilmagan bo'lib, agar amnistiya gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va mahkumlarga nisbatan umumiy kechirishni o'z ichiga qamrab olsa, afv etish, muayyan bir mahkumni kechirish aktidir.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni afv etish to'g'risida iltimosnoma berish asoslari O'z R JK ning 76-moddasida nazarda tutilgan bo'lib, JIKning 140-moddasi ushbu jazoga hukm etilgan mahkumlarning afv etish to'g'risida iltimosnoma berish tartibini belgilaydi.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan har qanday mahkum tomonidan berilishi mumkin emas. Chunki qonun bu borada bir necha xususiyatlarni e'tiborga oladi:

- mahkum tomonidan tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganligi;
- jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tganligi;
- belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, shuningdek mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lgan mahkumlar.

Nazorat uchun savollar

1. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining mohiyati nimada?

2. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibi qanday?
3. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlarni huquqiy holati qanday?
4. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan mahkumlarga nisbatan qanday intizomiy va rag'batlantirish choralari qo'llaniladi?
5. Qanday holatlarda va asoslarga ko'ra mahkumlar afv etish to'g'risida iltimosnoma berishi mumkin?

I topshiriq. O'z R JIKning 136-140 moddalari bilan tanishib chiqing.

II topshiriq. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan Sh. hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng qattiq betob bo'lib qoldi va zarur tibbiy yordam berishlarini so'rab, muassasa ma'muriyatiga murojaat qildi. Muassasa ma'muriyati mahkumning davolanishga muhtojligiga qaramasdan, uning hisobvarag'ida puli yo'qligini e'tiborga olib, tibbiy yordam tashkil qilish talabini rad etdi.

Muassasa ma'muriyatining harakati qonuniy asosga egami?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident I.Karimovning O'z.R. Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2007 y. 31 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi Farmoni. 2005 yil 1 avgust.
3. «O'lim jazosini bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 15 iyundagi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. - №6 (1374).- 2007.

4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. –Toshkent: Adolat, 2008. 136-140 moddalar.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2011. – 51-modda.
6. Ugolono- ispolnitelnoe pravo Rossii. Uchebnik. – Moskva: Yurist, 2005. – S. 427-430.

9 - MAVZU. HARBIY XIZMATCHILARGA NISBATAN XIZMAT BO'YICHA CHEKLASH, QAMOQ VA INTIZOMIY QISMGA JO'NATISH TARIQASIDAGI JAZOLARNI IJRO ETISH

Reja:

1. *Harbiy xizmatchilarga qo'llaniladigan jazolar tushunchasi va mohiyati.*
2. *Xizmat bo'yicha cheklash va qamoq jazosini ijro etish tushunchasi va tartibi.*
3. *Intizomiy qismga jo'natish jazosini ijro etish tushunchasi va tartibi.*
4. *Rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari.*

Darsning maqsadi. Harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy qismga jo'natish, qamoq, xizmat bo'yicha cheklash jazolarini ijro etish tartibi va sharoitlarini ochib berish, JIKning bu boradagi normalari tahlili, ushbu jazolarga hukm etilgan harbiy xizmatchilarning huquqiy holatini o'rgatish.

Dars o'tish vositalari. Qonun hujjatlari, sxemalar, statistika materialari, Jinoyat-ijroiya kodeksi normalari, sud amaliyoti materiallari, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, proektor.

Dars o'tish usullari: Leksiya va seminar mashg'ulotlarini munozara tarzida olib borish, xulosa qilish, mavzu yuzasidan erkin fikrlashga undovchi o'zaro savol-javoblar tashkil qilish.

1. Harbiy xizmatchilarga qo'llaniladigan jazolar tushunchasi va mohiyati

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ettinchi bo'limi 279-302 moddalarida harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Jinoyat qonunida harbiy tartibga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilishi, o'z navbatida ularga alohida jazo choralari tayinlashni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi JKning 47-moddasi xizmat bo'yicha cheklash jazosi va 49-moddasi intizomiy qismga jo'natish jazolarini nazarda tutadi.

JKning 47-moddasiga ko'ra xizmat bo'yicha cheklash – ofiserlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi, praporshchik, michman va harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko'rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta'minotining o'n foizidan o'ttiz foizigacha bo'lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iboratdir.

JK 49-moddasiga ko'ra intizomiy qismga jo'natish – muddatli harbiy xizmatchilarni sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo'lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali, muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etishdir. U uch oydan bir yilgacha muddatga qo'llaniladi. Sud ish holatlaridan kelib chiqib, uch yildan ko'p bo'lmagan ozodlikdan mahrum qilish o'rniga shu muddatga intizomiy qismga jo'natish jazosini qo'llashi mumkin.

Ma'lumki, harbiy xizmatchilarga quyidagilar kiradi: muddatli harbiy xizmat; safarbarlikka chaqiruv zahirasiidagi harbiy xizmat; shartnoma bo'yicha harbiy xizmat.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmatni o'tayotgan zahiradagi harbiy xizmatchilar, xizmatga bo'linadigan haqiqiy harbiy xizmatda turgan shaxslar harbiy xizmatchilar hisoblanadi.

Bundan tashqari xizmatni favqulodda vaziyatlar vazirligining markaziy devonida va unga tegishli tashkilotlarda; O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining Maxsus avariya-tiklash boshqarmasida; O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy muhandis-qurilish tarkibida o'taydigan shaxslar tan olinadi.

1997 yil 25 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya Kodeksiga birinchi marta harbiy xizmatchilarga nisbatan xizmat bo'yicha cheklash, qamoq va intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazolarni ijro etishni nazarda tutadi.

Ushbu normalar Kodeksning 6-bo'lim, 25-26-bob, 141—160-moddalarida aks ettirilgan bo'lib, u:

– xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish tartibini va ushbu jazoni o'tash muddatini hisoblash, xizmat bo'yicha cheklash vaqtida pul ta'minotidan chegirib qolish, tarbiyaviy ishlarni olib borish tartibi, mahkumning xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazo ijrosini tugatish, harbiy xizmatdan bo'shatilganda jazoni almashtirish, qamoq tariqasidagi jazoni o'tash tartibini;

– intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi, moddiy-maishiy ta'minot va tibbiy xizmat ko'rsatish, mahkumlarning posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalari olishi hamda yuborishi, mahkumlarning yozishmalari, mahkumlarning ta'tillari va mehnati, mahkumlarning tarbiyasi va ta'limi, ularni rag'batlantirish choralari, ularga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazo choralari, rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llash tartibi, jazoni o'tash vaqtini harbiy xizmat muddatiga qo'shib hisoblash qoidalarini o'z ichiga oladi.

2. Xizmat bo'yicha cheklash jazosini ijro etish asoslari va tartibi

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 141-moddasi xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi mustahkamlaydi. Unga ko'ra, xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazo ijrosini mahkum harbiy xizmat o'tayotgan joydagi komandir (boshliq) tomonidan ijro etiladi.

Komandir hukm nusxasini va sud farmoyishini olganidan keyin uch kun ichida quyidagilarni ko'rsatgan holda buyruq chiqaradi:

- mahkum harbiy xizmatchini lavozim va harbiy unvondan ko'tarishga taqdim etmaslik asosi va muddati;
- harbiy xizmatchiga navbatdagi harbiy unvon berish hamda pensiya tayinlash uchun uning xizmat muddatiga qo'shib hisoblanmaydigan vaqt;
- mahkumning pul ta'minotidan davlat foydasiga o'tkaziladigan chegirma miqdori.

Sud hukmiga ko'ra xizmat bo'yicha cheklangan harbiy xizmatchining pul ta'minotidan chegirma lavozim va harbiy unvonga doir maoshdan hisoblab chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 144-moddasi mahkum harbiy xizmatchi harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy qism qo'mondonligiga u bilan tarbiyaviy ishlarni o'tkazish majburiyatini yuklaydi.

Xizmat bo'yicha cheklash jazo muddati mobaynida mahkum harbiy xizmatchining lavozimi va harbiy unvoni oshirilishi mumkin emas.

Qonun harbiy xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish muddatidan oldin tugatilishini (JIK 147- moddasi) ham nazarda tutadi.

Muddatidan oldin ozod qilish asoslari turli xil bo'lishi mumkin. Birinchidan, shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilish yoki ushbu turdagi jazoni engilroq jazo bilan almashtirish, ikkinchidan, afv qilish yoki amnistiya aktlarining qo'llanilishi, uchinchidan, ushbu jazo bilan jazolangan harbiy xizmatchining xizmatni o'tashning alohida sharoitlari bilan bog'liq holatlarni belgilash.

Mahkum harbiy xizmatchilarga nisbatan qamoq tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 148-moddasi bilan tartibga solinadi. Qamoq jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar ushbu jazoni garnizon gaupvaxtasida o'taydilar.

Ofiserlar, shartnoma asosida xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar va muddatli xizmat harbiy xizmatchilari bir-biridan alohida saqlanadi.

Harbiy sud tomonidan sudlangan, sudlanuvchilar, ayblanuvchi va gumon qilinuvchi bo'lgan harbiy xizmatchilar intizomiy tartibda ushlangan va qamalganlardan alohida saqlanadi. Bu holatda mahkumlar sudlanuvchi va ayblanuvchilardan alohida saqlanadi.

Gauptvaxtalarda alohida saqlash harbiy xizmatchining harbiy unvoniga qarab ham nazarda tutiladi. Ofiserlik tarkibidagi shaxslar boshqa kategoriyadagi mahkum harbiy xizmatchilardan alohida saqlanadi. SHuningdek, ya'ni praporshik, michman, starshina, serjant unvoniga ega bo'lgan harbiy xizmatchilar ham oddiy tarkibdagi mahkum harbiy xizmatchilardan alohida saqlanadi.

Mahkum harbiy xizmatchilarga nisbatan quyidagi *rag'batlantirish choralari* qo'llanilishi mumkin: tashakkur e'lon qilish, ilgari qo'llanilgan intizomiy jazo chorasini olib tashlash, har kuni sayr vaqtini 1 soatga ko'paytirish, qamoqda bo'lgan vaqtining hammasini yoki bir qismini harbiy xizmatni o'tashning umumiy muddatiga qo'shish. Bunday turdagi rag'batlantirish choralari qo'llash uchun asos bo'lib mahkum harbiy xizmatchilarning namunali xulq-atvori nafaqat huquqda itoatkor xulqida, shuningdek, gauptvaxta doirasida amalga oshiriladigan turli xildagi tadbirlarda faol qatnashishida ham ifodalanishi lozim.

Mahkum harbiy xizmatchilarga intizomiy jazo choralari sifatida xayfsan, 10 sutkagacha bo'lgan muddatga karserga o'tkazish qo'llanilishi mumkin. Mahkum harbiy xizmatchilarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash uchun asos jazo o'tash tartibini buzgan harakatlari bo'lishi mumkin.

3. Intizomiy qismda saqlash tariqasidagi jazoni ijro etish

Intizomiy qismda saqlash ko'rinishidagi jazoni ijro etish masalalari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 149-moddasida belgilangan. Ushbu jazo chaqiriq bo'yicha, shuningdek oddiy askar va serjant tarkibidagi lavozimlarda shartnoma bo'yicha xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga nisbatan tayinlanadi.

Intizomiy qism garnizonning boshqa harbiy qismlaridan ajratilgan holda joylashtiriladi. Intizomiy qismga rahbarlik Mudofaa vazirligiga yuklatiladi. Mahkumlarni joylashtirish va xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan binolar joylashgan hudud mustahkam devor va 2,5 metrdan past bo'lmagan 2 qatorli sim tortilgan va lozim texnik qo'riqlar vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Mahkumlar saqlanadigan binoning deraza va eshiklarida temir panjara bo'lishi shart.

Intizomiy qismga jo'natishga hukm qilingan shaxslar hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar gauptvaxtada saqlanadi. Mahkumlarga intizomiy qismda harbiy nizomlar talablariga mos ravishda maishiy-yashash sharoiti yaratib beriladi. Ularni

oziq-ovqat, ust-bosh va boshqa narsalar bilan ta'minlash, shuningdek ularga tibbiy xizmat ko'rsatish belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak.

Intizomiy qismda mahkumlar qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlar olish huquqiga ega. Mahkumlarning qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan qisqa muddatli uchrashuvi oyda bir marta to'rt soatgacha bo'lgan muddatga beriladi. Bunday uchrashuvlar ishdan va mashg'ulotlardan bo'sh vaqtda, maxsus jihozlangan xonada, intizomiy qism vakili kuzatuvi ostida o'tkaziladi.

Mahkumlarning yaqin qarindoshlari bilan uzoq muddatli uchrashuvlari yiliga uch marta uch sutkagacha bo'lgan muddatga beriladi.

Intizomiy qismda jazoni o'tayotgan mahkumlar har oyda bita posilka yoki yo'qlov va cheklanmagan miqdorda banderollar olish huquqiga ega. Ularning nomiga kelgan pullar shaxsiy hisob varag'iga o'tkazilib, bu haqda mahkumlarga xabar beriladi. Intizomiy qismda mahkumlar cheklanmagan miqdorda xat va telegrammalar olishi hamda jo'natishi mumkin, ular jo'natadigan xatlarni ochish taqiqlanadi. Mahkumlarga ta'tillar berilmaydi. Ammo alohida hollarda, ya'ni JIKning 154-moddasida ko'rsatilgan hollarda intizomiy qism doirasidan chetga chiqishga ruxsat berilishi mumkin.

Mahkum harbiy xizmatchilar harbiy tayyorgarlik bilan birga mehnat ham qilishlari kerak.

Intizomiy qismda *umumiy va engillashtirilgan* sharoit o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi mahkum harbiy xizmatchilarni rag'batlantiruvchi keng doiradagi choralar tizimini nazarda tutadi. Ularga quyidagi *rag'batlantirish choralari* qo'llaniladi: a) tashakkur e'lon qilish; b) ilgari qo'llanilgan intizomiy jazoni olib tashlash; v) bir oyga qo'shimcha bir marta uchrashuv yoki telefon orqali suzlashuvga ruxsat berish; g) mahkumni axloqan tuzalغانlar qatoriga qo'shish;

Mahkum harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan *intizomiy jazo choralari*: a) xayfsan; b) qattiq xayfsan; v) navbatdan tashqari beshtagacha naryadni tayinlash; g) 15 sutkagacha gaupvaxtaga joylashtirish; d) axloqan tuzalayotganlar qatoridan chiqarish.

Nazorat uchun savollar

1. Xizmat bo'yicha cheklash jazosini ijro etishda qanday holatlar inobatga olinadi?
2. Harbiy xizmatchilarga nisbatan qamoq jazosini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
3. Intizomiy qismga jo'natish jazosiga hukm qilingan mahkumlarning huquqiy holati qanday?

I topshiriq. Xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga jo'natish jazosiga hukm qilingan shaxslarning huquqiy holatini sxematik ravishda tahlil qilingan.

II topshiriq. O'z R JIKning 141-160 moddalari bilan tanishib chiqing.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Adolat- qonun ustuvorligida //Xalq so'zi. 2001 y. 30 avgust.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi //O'zbekiston ovozi. 2005.29 yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. –Toshkent: Adolat, 2008. - 141-160 moddalar.
5. Abduxalikov M.A., Payzullaev Q. va boshq. Jinoyat- ijroiya huquqi. Albom sxemalar.- Toshkent, 2005.- B. 74-78.
6. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mas'ul muharrir: B.J.Ahrorov, -Toshkent, 2008. – B. 147-161.
- 7.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2011. - 47 va 49 moddalar.

10 - MAVZU. JAZONI O'TASHDAN OZOD QILISH

Reja:

1. *Jazoni o'tashdan ozod qilish tushunchasi va huquqiy asoslari.*
2. *Jazoni ijrosini tugatish.*
3. *Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilish tartibi.*

Darsning maqsadi. Jazoni o'tashdan ozod qilish asoslari va tartibini yoritib berish, jazoni ijrosini tugatish asoslarini ko'rsatib, mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash, ularga moddiy yordam ko'rsatish, hisob-kitob masalalarini tahlil qilish.

Dars o'tish vositalari. Sxemalar, JIK normalari, sud amaliyoti materiallari, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, proyektor.

Dars o'tish usullari. Jazoni o'tashdan ozod qilish borasida yuzaga keladigan munozarali jihatlar yuzasidan suhbat tarzida savol-javoblar, erkin fikrlashni yo'lga qo'yish, tahlil, xulosa, jazodan ozod qilishni klaster usuli orqali bayon qilish.

1. Jazoni o'tashdan ozod qilish tushunchasi va huquqiy asoslari

Jazodan ozod qilish bu jazoni o'tash jarayonini tugaganligidan dalolat beradi, jazodan ozod qilish nafaqat Jinoyat ijroiya qonunchiligi, balki Jinoyat va Jinoyat protsessual qonunlari bilan ham tartibga solinadi. O'z navbatida jinoyat qonuni jazodan ozod qilish turlari va asoslarini, jinoyat protsessual qonuni ushbu choralarni adolatli qo'llash mezonlarini, jinoyat-ijroiya qonunchiligi esa jazodan ozod qilishning tartibi va shartlarini tartibga soladi.

Jazodan ozod qilish, o'z navbatida jazoni o'tash davomida qo'llanilgan barcha huquqiy cheklashlarni bartaraf etishda, sudlanganlikdan tashqari uning boshqa ko'pgina huquqiy oqibatlarini bekor bo'lishida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi JIKning ettinchi bo'lim 28-30 bob, 163- 173-moddalari jazoni o'tashdan ozod qilish masalalariga bag'ishlangan. JIKning 163-moddasiga

ko'ra, sud tomonidan tayinlangan jazo muddati tugagunga qadar mahkum quyidagi hollarda jazoni o'tashdan ozod qilinishi mumkin:

- Muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish;
- jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda;
- kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi tufayli;
- amnistiya akti yoki avf etilganligi tufayli.

Tayinlangan jazoni o'tab bo'lganligi tufayli jazodan ozod qilish, uning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Jazo uning muddati o'tganidan keyin o'talgan hisoblanadi. Jazoni ijro etish muddatlari esa o'z navbatida bu borada sudning hukmini ijro etishga mas'ul shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ozod qilish. O'z R JKning 73-moddasida ta'kidlanishicha, ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash va axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilishi mumkin. Ushbu holda shaxs ijro qilinmagan qo'shimcha jazolarni o'tashdan ham ozod qilinadi.

Jazodan ozod etishning ushbu turi mazmuniga ko'ra shartli bo'lib, u sud tomonidan tayinlangan jazoning o'talmagan qismida mahkumni yangi jinoyat sodir qilmasligi sharti bilan ozod qilishda ifodalanadi. YA'ni jazoning o'talmagan qismi o'zining mohiyati jihatidan sinov muddati hisoblanadi va shu muddatda mahkum yangi jinoyat sodir etsa, sud yangi sodir etilgan jinoyatning jazo muddatiga (JK 60-m. – bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash) o'talmay qolgan jazo muddatini qo'shib hisoblaydi.

Mahkumlarni muddatidan ilgari shartli ozod qilish tartibi va shartlari Jinoyat-ijroiya kodeksining 164-moddasi bilan tartibga solinadi.

Mahkum Jinoyat kodeksining 73-moddasida nazarda tutilgan muddatlar, ya'ni ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini, og'ir jinoyati uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud

tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini, o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki engilrog'i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin ozod qilinishi mumkin.

Mahkum ushbu ko'rsatib o'tilgan muddatlarni o'tab bo'lganidan keyin bir oylik muddat ichida jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati uni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoning o'talmagan qismini engilroq jazo bilan almashtirishga taqdim etish masalasini agar mahkum yoki uning advokati tegishli iltimosnoma bilan sudga bevosita murojaat etmagan bo'lsa ko'rib chiqishi hamda taqdim qilish yoki rad etishi haqida qaror chiqarishi shart.

Ma'muriyat mahkumni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga yoki jazoni engilrog'i bilan almashtirishga taqdim etishni rad etgan taqdirda mahkum yoki uning advokati sudga tegishli iltimosnoma bilan murojaat etishga haqli.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoning o'talmagan qismini engilroq jazo bilan almashtirish, jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining taqdimnomasiga binoan sud tomonidan qo'llaniladi. Taqdimnoma muassasa rahbari tomonidan imzolanib, unda mahkumning xulq-atvori, mehnatga, ishga va o'qishga munosabati aks etgan hamma ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak. Mahkumni jazodan shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilishga taqdim etish to'g'risidagi masala ijobiy hal etilgandan so'ng, jazoni muddatidan oldin shartli ozod qilish haqidagi taqdimnoma, tavsifnoma va mahkumning shaxsiy ishi sudga yuboriladi.

Sud mahkumni muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etishni yoki engilrog'i bilan almashtirishni rad etgan taqdirda, bu haqida ajrim chiqqan kundan boshlab kamida olti oy o'tganidan keyin taqdimnoma takroran kiritilishi yoki iltimosnoma takroran berilishi mumkin.

Mahkumni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod etish haqidagi taqdimnomaning rad etilishiga quyidagi hollar sabab bo'lishi mumkin:

- mahkumni noinsoflik bilan mehnatga yondoshishi yoki ijtimoiy foydali mehnatdan voz kechishi;
- jazoni o'tash tartibini qo'pol buzilishi;
- muntazam ravishda intizom buzilishi.

Quyidagi mahkumlar jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi mumkin emas:

- umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilinganlar;
- o'ta xavfli retsdivistlar;
- uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchisi, yoxud shu guruhlarda qatnashib jinoyat sodir etganlar;
- javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish, O'zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslar, jinoiy uyushma tashkil etish va boshqa shu kabi jinoyatlarni sodir etib, jazoni o'tayotgan mahkumlar.

Kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik oqibatida jazodan ozod qilishga taqdim etish tartibi. Jinoyat kodeksining 75-moddasiga ko'ra, shaxs hukm chiqarilgandan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek, jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o'tashdan ozod qilinishi lozim.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 165-moddasi bunday shaxslarni jazodan ozod qilishga taqdim etish tartibini nazarda tutadi, unga ko'ra, jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati sudga tibbiy komissiya xulosasi va mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildini yuboradi. Mahkumni ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq tariqasidagi jazodan kasalligi tufayli ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining maxsus tibbiy komissiyasi xulosasi asosida kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 534-moddasiga binoan mahkum jazoni o'tayotgan vaqtida jazoni o'tashga to'siq bo'ladigan surunkali ruhiy kasallikka yoki boshqa og'ir kasallikka³⁸ duchor bo'lgan taqdirda sud jazoni ijro qilinishiga mutasaddi organning taqdimnomasiga binoan, maxsus tibbiy komissiyaning xulosasiga asosan, mahkumni o'talmay qolgan jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risida ajrim chiqarishga haqli.

Harbiy xizmatchilarni jazodan ozod etish o'ziga xos xususiyatga ega. Jinoyat-ijroiya kodeksining 165-moddasi 5-qismida ko'rsatilishicha, harbiy xizmatchilarni intizomiy qismga jo'natish yoki xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma tegishli harbiy tibbiy komissiyaning ularni harbiy xizmatga yaroqsiz deb topishi haqidagi xulosasi asosida kiritiladi. Ayol harbiy xizmatchilar xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham ozod qilinadi.

Harbiy xizmatga yaroqli yoki yaroqsizlik masalasini harbiy-tibbiy komissiyasi hal etadi. Agar komissiya mahkumni sog'ligi yomonligi sababli harbiy xizmatga yaroqsiz deb topsa (jazoni ijro etish qismidagi), harbiy qism qo'mondonligi sudga mahkumni jazodan ozod qilish yoki o'talmagan qismini engilrog'i bilan almashtirish haqidagi taqdimnomani sudga taqdim etadi.

Homilador ayol harbiy xizmatchilarni xizmat bo'yicha cheklash jazosidan muddatidan oldin ozod qilish uchun jazoni ijro etish muassasasi yoki organ rahbari JK 75-moddasi va JIK 165-moddasiga asosan jazoni o'tashni keyinga qoldirish to'g'risidagi taqdimnomani sudga taqdim etadi. Taqdimnoma bilan birga sudga (homiladorlik to'g'risidagi) tibbiy ma'lumotnoma va mahkumning shaxsiy

³⁸ **Masalan,** sil kasalligi va nafas organlari sistemasi kasalliklarining II-III darajasi, qandli diabet, (insult miqdori kuniga 60 birlikdan ortiq), bosh miya shishi, orttirilgan yoki tug'ma yurak nuqsoni (yurak ishemiya, kardiomiopatiya kasalligi), gipertonik kasaligining III bosqichi, jarohatlar oqibatidagi anatomik nuqsonlar, qo'l-oyoqlarning yuqori yoki pastki qismini kesib tashlash, shuningdek bita yuqori va bitta quyi qo'l-oyoqlarni kesish va boshq.)// **«Og'ir kasallikka chalingan mahkumlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish va ularni kasalligi tufayli jazoni o'tashdan ozod qilishga taqdim etish qoidalari».** 2008 yil. <http://www.norma.uz>.

ishi taqdim etiladi. Homiladorlik va tug'ish ta'tili berilgan vaqtdan boshlab sud mahkumni keyingi jazoni o'tashdan ozod qiladi.

Amnistiya akti yoki avf etish o'zining yuridik tabiatiga ko'ra, sudga taaluqli bo'lmagan akt hisoblanib, uni qabul qilish vakolati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga tegishlidir.

Afv etish bu Prezident tomonidan chiqariladigan huquqiy akt bo'lib, bu asosida jinoyat sodir etgan shaxs sud tomonidan tayinlangan jazodan ozod qilinishi yoki yengillashtirilishi yoxud boshqasiga almashtirilishi mumkin. Avf etish akti shaxsning Prezidentga iltimosnoma yuborishi bilan amalga oshiriladi va iltimosnoma bilan quyidagilar ilova qilinadi:

- mahkumning anketasi;
- jazoni ijro etish muassasasining mahkum haqidagi xarakteristikasi (tavsifnoma);
- sog'ligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- da'voning bahosi to'langanligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- mahkumning ma'lumotnomasi.³⁹

2. Jazo ijrosini tugatish

JIKning 167-moddasiga muvofiq jazo ijrosini tugatish asoslari berilgan. Bular:

- mahkumning sud tayinlagan jazo muddatini o'taganligi;
- JIKning 163-moddasida nazarda tutilgan hollarda mahkumning jazoni o'tash muddatidan ilgari ozod qilinishi;
- sud hukmining bekor bo'lishi va ish yuritishning tugatilishi;
- hukmning nazorat tartibida o'zgartirilishi va jazoning shartli hukm bilan almashtirilishi;
- mahkumning o'limi.

³⁹ **Bu haqda batafsil qarang:** O'zbekiston respublikasi Prezidentining 1997 yil 11 sentyabrdagi Farmoni asosida tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida avf etishni amalga oshirish to'g'risidagi Nizom». № PF-1839.

Jazo ijrosini tugatish vaqti sud hukmi bilan bog'liq bo'lib, jazoni ijro etuvchi organlar jazo o'tashning oxirgi kunini aniqlashda shu muddatlarga asoslanadi, jazoni ijro etishning oxirgi kunini belgilaydilar.

Jazoning ijrosini tugatish muddati kunlar, oylar va yillar bilan hisoblanadi. Agar jazo muddati dam olish yoki bayram kuni tugaydigan bo'lsa, mahkum ushbu dam olish yoki bayram kunidan bir kun oldin ozod qilinadi. Muddat oylar bilan hisoblangan taqdirda bu muddat keyingi oyning tegishli kuni, agar mazkur oyda shunday kun bo'lmasa, shu oyning oxirgi kuni tugaydi.

JIKning 168-moddasi 3-qismida ta'kidlanishicha, agar jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati mahkumni muddatidan ilgari ozod qilish to'g'risidagi hujjatlarni ish kuni tugagunga qadar olgan bo'lsa, ular shu zahoti, ish kuni tugagandan keyin olgan bo'lsa, ertasi kuni ertalab ijro etiladi.

Axloq tuzatish ishiga hukm qilingan shaxslarga quyidagi asoslarda jazoning ijrosi tugatiladi:

- a) sud hukmi bilan belgilangan jazo muddatini o'tab bo'lganda;
- b) amnistiya akti qo'llanganda;
- v) avf etilishi sababli;
- g) sud hukmi bekor bo'lgani uchun jinoyat ishi, ish yurgizishdan to'xtatilgan taqdirda;
- d) hukm bo'yicha belgilangan jazo turi o'zgartirilganda;
- e) O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining tegishli moddalari asosida muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilganda;
- j) qonunda ko'rsatilgan boshqa asoslarda.

Shuningdek, quyidagi hollarda mahkumlar hisobdan chiqariladi:

- a) yashash joyini o'zgartirganligi sababli jazoni ijro etish inspeksiyasi xizmat qilayotgan hududdan tashqariga chiqib ketgan shaxslar;
- b) vafot etganlar;
- v) axloq tuzatish ishini o'tashdan qasddan bosh tortganligi uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan shaxslar;
- g) yangi jinoyat sodir etib, ozodlikdan mahrum etilganlar.

Mahkumning hisobdan chiqarilgan kuni va asosi haqida uning hisob varaqasiga, axloq tuzatish ishiga hukm qilingan shaxslarning hisobini olib boruvchi jurnalga hamda mahkumning shaxsiy yig'ma jildiga belgi kiritiladi. Axloq tuzatish ishini o'tashdan ozod qilingan shaxslarga jazo muddatini o'tagani haqida ma'lumotnoma beriladi.

Haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriluvchilar jazo muddatini o'tab bo'lganlaridan so'ng bu haqda tegishli tuman yoki shahar mudofaa ishlari bo'limiga xabarnoma jo'natiladi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi hisobidan chiqqan shaxslarning ish joyi ma'muriyatiga mahkumning mehnat daftarchasiga tegishli yozuv kiritish uchun muvofiq ma'lumotnoma yuboriladi.

Jazoni ijro etishning tugatilishidan yana bir asos bu mahkumning vafot etganligidir.

Mahkum vafot etgan taqdirda jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati bu haqda zudlik bilan prokurorga va yuqori instansiyaga axborot beradi, shuningdek bir sutkalik muddat ichida marhumning yaqin qarindoshlaridan biriga telegramma orqali xabar qiladi.

Marhum vafot etgan har bir holat yuzasidan xizmat tekshiruvi olib boriladi va tekshiruv hujjatlariga majburiy tartibda sud-tibbiyot ekspertiza yoki patalogo-anatom shifokorning xulosasi ilova qilinadi. O'z navbatida har qanday holatda ham mahkumning jasadi qarindoshlariga berilmaydi, agar mahkum zo'rlik ishlatish, yuqumli kasalliklar va boshqa sabablar bilan vafot etgan bo'lsa, uning jasadini berish to'g'risidagi masala yuqori tashkilotlar tomonidan hal etiladi.

Marhum haqida xabar berilganidan keyin 48 soat ichida uning oila a'zolari jasadni olib ketmasa, muassasa ma'muriyati mahkumni o'zlari dafn etadilar va marhum to'g'risida muassasa joylashgan hududdagi fuqarolik holatlarini qayd etish organlariga belgilangan shaklda xabarnoma yuboradi, ushbu xabarnoma asosida uning vafot etganligi to'g'risida guvohnoma beriladi.

3. Jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilish tartibi

JIK ning 30-bob, 171-173 moddalari jazodan ozod qilish tartibini nazarda tutadi.

JIKning 171-moddasiga muvofiq jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning jazoni o'tash muddati tugashiga uzog'i bilan 3 oy qolganda uni ozodlikka chiqarishga tayyorlash, mehnat va turmushda o'rganishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, uning muassasadan ozod bo'lgandan keyingi huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish maqsadida mahkum bilan tarbiyaviy ishlarni olib boradi.

Jazoni o'tash muddati tugayotgan mahkumlar mehnat va turmushda o'rnashish bo'yicha inspektor bilan suhbatga taklif etilib, ularning mehnat va turmushda o'rnashishga ehtiyoji, foydali alqalari, oilasi, qarindoshlari va yaqinlari bilan o'zaro munosabatlari bor-yo'qligi, ozod bo'lgandan keyin boradigan joyi, hayotiy rejalari, aniqlanadi. SHuning bilan birgalikda ularning ozod bo'lgandan keyingi huquq va majburiyatlari tushuntiriladi, ijtimoiy reabilitasiya masalalari yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Mehnat va turmushda o'rnashishga ehtiyoji bo'lgan shaxslar bilan suhbat o'tkazilgach, ular alohida hisobga qo'yiladi va ular haqidagi ma'lumotlar tuman (shahar) hokimliklarining ijtimoiy moslashuv Markaziga yuboriladi. Ma'lumotlar ichiga mahkum ozod bo'ladigan sana, uning tavsifnomasi, ixtisosi, muayyan kasbi bor-yo'qligi va boshqa ma'lumotlar aks ettiriladi.

Chet ellik fuqaroligidagi mahkumlarni ozod qilinajagi haqidagi axborot jazoni o'tash muddati tugashiga uch oydan kam bo'lmagan vaqt qolganda O'z R Tashqi ishlar vazirligiga, tegishli davlatning diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalariga xabar berishi uchun yuboriladi.

Sil kasalligiga chalingan, OITS bilan kasallangan, shuningdek, jazo muddatini o'tash vaqtida alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolash kursini o'tayotgan yoxud o'tab bo'lgan mahkumlarga nisbatan, ozod bo'lishidan kamida muddati bir oy oldin, OITS bilan kasallanganlar Markaziga, sil kasalliklari, narkologiya dispanserlariga yoki ozod bo'layotgan shaxs muqim

yashash uchun borishi mo'ljallangan hududdagi sog'liqni saqlash organlarining davolash muassasalariga xabarnoma yuboriladi.

Jazoni o'tash muddati tugashiga ikki kun qolganda esa, muassasa buxgalteriyasi ular bilan hisob-kitob qiladi, bunda mahkumga o'zi tanlagan yashash joyiga etib olishi uchun yo'l hujjatlari, belgilangan norma bo'yicha borar manzilga etib olishiga mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari, shaxsiy yig'majildidagi hujjatlari, ya'ni pasport, mehnat daftarchasi, tug'ilganlik va nikoh to'g'risidagi guvohnomalar, attestat va boshqa hujjatlar, muassasa omboridagi shaxsiy buyumlari qaytarib beriladi.

Ozod etilayotgan shaxsning arizasiga ko'ra, yashashni mo'ljallayotgan joyga etib olishi uchun oziq-ovqat mahsulotlari o'rniga pul kompensasiyasi berilishi mumkin. Shuningdek, ozod etilayotgan shaxslarga fuqarolar kiyadigan mavsumiy kiyim va poyabzal, ularni sotib olishga puli bo'lmasa, arizasiga ko'ra kiyim va poyabzal bepul beriladi.

Jazoni ijro etish muassasa ma'muriyati I va II guruh nogiron mahkumlar, homilador ayollar va yosh bolasi bor mahkuma ayollar, shuningdek voyaga yetmagan mahkumlarni ozod etish sanasi to'g'risida ularning qarindoshlari yoki boshqa shaxslarga jazoni o'tash muddati tugashiga kamida bir oy qolganda xabarnoma yuboradi.

Nazorat uchun savollar

1. Qanday asoslarga ko'ra shaxs jazodan ozod qilinishi mumkin?
2. Qanday asoslarga ko'ra shaxs jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi mumkin?
3. Jazo ijrosini tugatishning huquqiy asoslari nimada?
4. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilishning tartibi qanday?

I topshiriq. O'z R JIK ning 163-173 moddalari bilan tanishib chiqing.

II topshiriq. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlar N. va Sh.larning jazoni o'tash muddati 21 martda tugashi kerak edi. Mahkumlar muassasa boshlig'iga ariza bilan murojaat qilib, ularni 20 martda ozod qilishlarini

iltimos qilishdi. Ularning ushbu murojaatini muassasa boshlig'i rad etib, to'liq kalendar muddat o'tmaguncha jazodan ozod qilinishi mumkin emasligini ta'kidladi.

Ushbu holda muassasa boshlig'i qonuniy harakat qilganligini aniqlang.

III topshiriq. G., 2007 yil 12 yanvar kuni jazoni o'tashdan ozod qilinishi kerak edi. U bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilinmaganligi uchun, 12 yanvar 2007 kuni to'liq hisob-kitob qilinib, faqat 14 yanvar kuni G. jazoni o'tashdan ozod qilindi.

Jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'ri qo'llanilganmi?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga sudlangan shaxslarning jazo o'tash sharoitlarini liberallashtirish to'g'risida»gi Farmoni // 2003 yil 26 sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent, 2008. - 163-173 moddalar.
3. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mas'. muh. B.Ahrorov. – Toshkent, 2008. - - B. 159-173.
4. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo. Kurs leksiy. – Tashkent: Akademiya MVD, 2002.
5. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo Rossii. – Moskva: Yurist. – S. 433-453.
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2011. - 73,75,76 moddalari.
7. Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib Qoidalari //O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2001 yil 08 maydagi 118- buyrug'i.

11 - MAVZU: BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI IJRO ETISH

Reja:

1. *Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari tushunchasi. SHartli hukm qilinganlar ustidan nazorat.*
2. *Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etish.*
3. *Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburlov choralarini qo'llash.*

Dars o'tish maqsadi. Shartli hukm qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralarini ijro etish tartibi to'g'risida talabalarda tushuncha hosil qildirish, JIK ning bu boradagi normalari bilan tanishtirish.

Dars o'tish vositalari. Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish tartibini aks etiruvchi sxemalar, JIK normalari, qonun hujjatlari, sud amaliyoti, darsliklar va o'quv qo'llanmalari, proyektor.

Dars o'tish usullari. Shartli hukm qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etish tartibini tahlil qilish, munozarali holatlar yuzasidan ekspress savol, topshiriqlar berish, talabalarning ushbu masalalar yuzasida munozarali jihatlarini mustaqil tahlil qilishni shakllantirish, aqliy hujum usuli, o'zaro savol-javob.

1. Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari tushunchasi

Amaldagi Jinoyat-ijroiya kodeksining 174-moddasiga ko'ra boshqa jinoyat huquqiy ta'sir choralariga: shartli hukm qilish, tibbiy yusindagi majburlov choralari hamda voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi JK 72-moddasining 1-qismiga ko'ra, agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan turib ham uning

xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, *shartli hukm* qo'llashi mumkin.

Shartli hukm qilinganlar uchun sinov muddati belgilanib, u bir yildan uch yilgacha tayinlanishi mumkin. JK 72-moddasining 4-qismiga ko'ra, shartli hukm qilinganlar ustidan ichki ishlar organlari, harbiy xizmatchilar xulqi ustidan esa, harbiy qism yoki muassasaning qo'mondonligi nazorat olib boradi.

Shartli hukm qilingan shaxslarning hisobini olib borish, ularning hulq-atvori ustidan nazorat olib borishni ichki ishlar idoralari jazoni ijro etish inspeksiyalari tashkil etadi.

O'z R JIK ning 32-bob, 176-180 moddalari shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazorat qilish qoidalarini tartibga soladi.

Shartli hukm qilingan shaxslarni turar joylari bo'yicha hulq-atvori ustidan nazoratni profilaktika xodimlari bilan hamkorlikda amalga oshiradilar.

Mahkumlarga nisbatan tezkor qidiruv ishlarini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining me'yoriy hujjatlariga asosan olib boriladi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi:

- a) mahkumlarning hisobini olib boradi;
- b) zarur hollarda ularga ishga joylashishda yordam beradi;
- v) mahkumlarning hulq-atvori ustidan nazorat olib borishni tashkil etadi;
- g) sinov muddati davomida mahkumlar tomonidan sud hukmi bo'yicha yuklatilgan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash choralari ko'radi;
- d) sinov muddati davomida mahkumlar o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmasalar yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun ularga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir choralari qo'llanilgan bo'lsa, jazoning shartlilikini bekor qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritadi;
- e) sinov muddati davomida jazoning shartlilikini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, sinov muddati tugashi bilan uning hulqi ustidan nazoratni to'xtatish to'g'risida IIB boshlig'iga bildirgi orqali ma'lum qiladi;

j) mahkumlarning hisobini olib borish, hulq-atvori ustidan nazorat qilish, ularga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini tahlil qiladi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi (ajrimi) mahkumni hisobga olishga asos bo'lib hisoblanadi va mahkumlarning hisobini olib borish jurnalida qayd etiladi. Suddan kelib tushgan hukm nusxasi ichki ishlar bo'limi ro'yxatiga olinib, rahbariyat tomonidan ko'rib chiqilib, jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimiga topshiriladi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi tomonidan:

a) mahkumlar bilan suhbat o'tkazilib, jazo o'tash shart-sharoitlari tushuntiriladi;

b) ishlash va o'qish joylari ma'muriyatlaridan mahkumlarga nisbatan tavsiyanomalar so'raladi, kerak bo'lgan paytda ma'muriyat a'zolari bilan uchrashuv o'tkaziladi;

v) mahkumlar tomonidan jamoat tartibini buzish hollari sodir etilganligini aniqlash maqsadida har oyda ichki ishlar bo'limining ma'lumot kartotekasi bilan tanishiladi;

g) sud tomonidan belgilangan majburiyatlarning bajarilishi (har chorakda kamida bir marotaba) tekshiriladi, ularni bajarmay yurgan shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko'riladi. Natijasi haqida ma'lumotnoma tuzilib, nazorat yig'ma jildiga qo'shib boriladi;

d) sud tomonidan ro'yxatdan o'tib turish majburiyati yuklatilgan mahkumlarni ro'yxatdan o'tkazish amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi mahkum tomonidan quyidagi huquqbuzarliklar sodir etilganda, sudga taqdimnoma kiritadi:

a) sinov muddati davomida jamoat tartibini yoki mehnat intizomini buzganligi uchun ma'muriy yoki intizomiy jazo qo'llangan bo'lsa;

b) shartli hukm qilingan muayyan muddat mobaynida ishga yoki o'qishga kirmagan, etkazilgan zararni bartaraf etmagan, ichki ishlar organining ruhsatisiz turar joyini o'zgartirgan, ro'yxatdan o'tish uchun kelmayotgan, hamda hukmda ko'rsatilgan boshqa majburiyatlarni bajarmayotgan bo'lsa;

v) shartli hukm qilingan shaxsning nazoratdan bo'yin tovlash maqsadida yashiringaniga etarli asos bo'lsa.

Mahkumlar yashash joyini tashlab ketsa jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimlari tomonidan uning qaerdaligini aniqlash choralari ko'riladi va bu maqsadda:

a) mahkumning qarindosh va tanishlari uning qaerda bo'lishi mumkinligini aniqlash maqsadida surishtiriladi;

b) manzillar ma'lumotxonasidan va boshqa tegishli davlat organlaridan hamda uy daftaridan mahkumning turar joyidagi ro'yxatdan chiqmagani aniqlanadi;

v) o'qish yoki ish joyidagi kadrlar bo'limidan mahkumning qaerda bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslar orqali aniqlash choralari ko'riladi;

g) yashiringan shaxsni aniqlash maqsadida uning qarindoshlari turar joylarida joylashgan hududdagi ichki ishlar bo'limiga so'rovlar yuboriladi;

d) tibbiy muassasalarda mahkumlar to'g'risida biror ma'lumot bor-yo'qligi tekshiriladi;

e) ichki ishlar bo'limlarida ushlangan, hibsga olinganlar, sudlanganlar, hamda qidiruvda bo'lganlar ro'yxati ko'rib chiqiladi;

m) mahkumlarni aniqlash maqsadida ko'zda tutilgan boshqa choralar ham qo'llaniladi;

z) to'plangan hujjatlar alohida yig'ma jildda taxlanib, nazorat yig'ma jildiga qo'shiladi;

i) agarda bir oy muddatda qidirilayotgan shaxsni aniqlashni iloji bo'lmasa, jazoni ijro etish inspeksiyasida to'plangan hujjatlar bilan xulosani va sud hukmining nusxasini unga nisbatan qidiruv e'lon qilishni so'rab, mahkumning turar joyi bo'yicha ichki ishlar bo'limi boshlig'iga topshiradi. Mahkumning nazoratdan bo'yin tovlash maqsadida yashiringani uchun etarli asos bo'lsa, shartli hukmni bekor qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritiladi.

Quyidagi hollarda mahkum ustidan nazorat to'xtatilib, hisobdan chiqariladi:

- a) shartli hukm qilinganlarning sinov muddati tugaganidan so'ng. Sinov muddati tugagan kuni xodim bu haqda ichki ishlar bo'limi boshlig'i nomiga bildirgi orqali ma'lum qilib, uning yozma ko'rsatmasiga asosan;
- b) shartli hukm bekor qilinib, hukm bo'yicha jazo o'tash uchun yuborilganda;
- v) amnistiya to'g'risidagi akti qo'llanilishi bilan;
- g) avf etilish munosabati bilan;
- d) yangi jinoyat sodir qilgani uchun hukm qilinganda;
- e) mahkum vafot etganda.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 18-moddasining 3-qismiga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan va sud tomonidan aqli noraso deb topilgan shaxsga nisbatan *tibbiy yo'sindagi majburlov choralari* qo'llanilishi mumkin.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoiy jazo hisoblanmaydi. Uni qo'llash uchun shaxsda ruhiy kasallik alomatlari mavjud bo'lishi kerak yoki alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikka yo'liqqan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ruhiy kasallik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan ularni davolash va ularning yangi ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etishning oldini olish maqsadida tayinlashi mumkin (Jinoyat kodeksining 91-moddasining 1-qismi).

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoiy jazodan farqli ravishda o'zgacha maqsadlarni nazarda tutadi, ya'ni ushbu choralarning maqsadlari avvalo ruhiy kasalga chalingan yoki alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlik kasalligiga yo'liqqan shaxslarni davolashdan, ruhiy holatini yaxshilashdan iborat. SHuning bilan birgalikda ularni imkoni bo'lmasa, jismoniy jihatdan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etishni oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Jinoiy jazo o'z xususiyatiga ko'ra shaxsni sodir etgan qilmishi uchun jazolashdan iborat bo'lsa, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jazolashni nazarda tutmaydi. Shuningdek tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilganda,

jazodan farqli ravishda sudlanganlik oqibati kelib chiqmaydi. Yuqoridagilar bilan birga, jinoiy jazo, hamma vaqt ma'lum bir muddatlarga, miqdorda tayinlanadigan bo'lsa, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining muddatlari sud ajrimida ko'rsatilmaydi. Ularning muddati shaxsning ruhiy holatiga bog'liqdir.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

1. Jinoyat kodeksi maxsus qismida ko'rsatilgan qilmishlarni aqli norasolik holatida sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin;
2. Jinoyat sodir etgandan keyin aqli noraso bo'lib qolgan shaxslarga nisbatan;
3. Jinoiy jazoni o'tash vaqtida ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan;
4. Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 87-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud deb topsa, voyaga yetmagan shaxsni jinoiy jazodan ozod qilib *majburlov choralari*ni tayinlashi mumkin.

JKning 88-moddasiga ko'ra, voyaga yetmaganlarga:

- a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so'rash;
- b) o'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga etkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash;
- v) voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish.

2. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etish

Ruhiy kasallarga nisbatan tibbiy yusindagi majburlov choralarini qo'llash qoidalari O'z.R.JIKning 33-bob, 181-194 moddalari bilan tartibga solinadi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomasiga asoslanadi.

JIKning 181-moddasiga ko'ra, ruhiy kasallarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari sog'liqni saqlash organlari tomonidan sudqpsixiatriya ekspertizasi xulosasiga muvofiq quyidagi tartibda tayinlanadi:

- majburiy ambulatoriya kuzatuv va psixiatrda davolash- bemorning yashash joyidagi psixonevrologiya muassasalari tomonidan amalga oshiriladi;
- bemorni jamiyatdan batamom ajratib majburiy davolash- uning ruhiy holatiga qarab, umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonalarida yoki umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonalarining sog'liqni tiklash bo'linmalarida yoxud kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonalari yoki bo'linmalarida o'tkaziladi.

Alkogolizm, giyovandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari quyidagi tartibda qo'llaniladi:

- jamiyatdan batamom ajratib qo'yish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarga – sog'liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan umumiy asoslarda;
- qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxslarga- jazoni o'tash joyida, ozod etilganlardan so'ng davolashni davom ettirish zarurati bo'lganda esa - sog'liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Ichkilikbozlik va giyohvandlikdan majburiy davolanish belgilangan mahkumlar faqatgina shunday davolanish uchun ixtisoslashtirilgan maxsus jazoni ijro etish muassasasiga yuboriladi. Sud hukmi bilan ichkilikbozlik va giyohvandlikdan majburiy davolanish belgilangan mahkum JIEM ga kelganidan so'ng 3 kun muddat ichida psixiatr-narkolog shifokori ko'rigidan o'tkazilishi kerak. Psixiatr- narkolog shifokori birinchi suhbat chog'idayoq bemor mahkumni muassasada majburiy davolanishni tashkillashtirilganligi va uni o'tkazishni asosiy qoidalari bilan tanishtiradi. Majburiy davolanish kurslarini tugatmagan

mahkumlarni maxsus jazoni ijro etish muassasalaridan boshqasiga o'tkazish istisno tariqasida ayrim hollardagina amalga oshirilishi mumkin.⁴⁰

Sud-ruhiy ekspertiza bo'limida ruhiy holatini tekshirish uchun yuborilgan shaxslarga ularning yashashi, joylashishi, uchrashuvi, sayr qilishi, mehnat qilishda ishtirok etishi tashkil qilinib, shuningdek uning qochib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun tartib qoidalari belgilangan.

JIKning 185-moddasiga ko'ra, ruhiy kasalliklar shifoxonalarida davolanayotgan bemorlar quyidagi huquq va majburiyatlarga ega: har kuni sayr qilish, xatlar, posilka, yo'qlov va banderollar, shuningdek, pul jo'natmalari olish va yuborish; qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashish; boshqa mahbuslarga xalaqit bermagan holda namoz o'qish; oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olib, o'z yonida saqlashlari mumkin. Uchrashuv o'tkazish, peredacha, banderol va yo'qlovlar olish shifoxonaning ichki tartib-qoidalari bilan tartibga solinadi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlar kasallik turi, xulq-atvorning xususiyati, ruhiy va jismoniy holatini inobatga olib, ularni batamom ajratib qo'yishni ta'minlovchi hamda ular tomonidan YAngi ijtimoiy-xavfli qilmish sodir etish, qochish, saqlash rejimini buzish ehtimolining oldini olishni ta'minlaydigan sharoiti bor palatalarga joylashtiriladi.

Erkaklar va ayollar, kattalar va voyaga yetmagan shaxslar alohida saqlanadi.

Bir bemorga to'g'ri keladigan foydali normasi *besh kvadrat metrdan* kam bo'lishi mumkin emas. Bemorlarga ovqat va kasalxona kiyimi bepul beriladi, ularga uzoq muddatli uchrashuvlar berilmaydi, bemorning nomiga kelib tushgan pullar uning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkaziladi, eng zarur narsalarni pul o'tkazish yo'li bilan sotib olishlari mumkin.

Bemorni shifoxonadan chiqarishdan o'n kun oldin ruhiy kasalliklar shifoxonasi ma'muriyati bu haqda uning yashash joyidagi ichki ishlar organlariga, shuningdek uning qarindoshlari yoki vasiylariga xabar qilishi kerak. Ular

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi IIV tergov hibsonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar tibbiy taminoti bo'yicha **Qoidalar** // Toshkent, 2002.

shifoxonadan chiqarilgan vaqtda davolanishda bo'lgan vaqti to'g'risida ma'lumotnoma beriladi va yashash joyiga qarindoshlari yoki vasiylari yoxud tibbiy xodimlar kuzatuvida yuboriladi.

4. Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburlov choralarini qo'llash

JIK ning 34 bob, 195-197 moddalari voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralarini qo'llash qoidalarini tartibga soladi.

Voyaga yetmagan shaxs jabrlanuvchidan og'zaki yoki yozma ravishda, *uzr so'rashi* mumkin. Tarbiyaviy maqsadlarda sud voyaga yetmaganlar ishlayotgan joyda voyaga yetmagan shaxsning o'qish yoki ishlash joyida uzr so'raladi.

Voyaga yetmagan shaxsning *etkazilgan zararni* o'z mablag'lari hisobidan yoki o'z mehnati bilan to'lashi yoxud bartaraf etishi sud tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi. Agar sud voyaga yetmagan shaxsning daromadi etarlicha emasligi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lsa, bu chora qo'llanilmaydi.

Agar zarar bir necha voyaga yetmaganlar tomonidan etkazilgan bo'lsa, etkazilgan zararga ular birgalikda javobgar bo'ladilar, ayrim hollarda esa ularning ota-onalari yoki vasiylariga umumiy mulkiy javobgarlikning bir qismi yuklatilishi mumkin. Lekin bu ularga sudning chiqargan hukmi yoki qarori bilan javobgarlik yuklatilganda majburiy to'lov ularning mulkiga qaratilishi mumkin. SHuning uchun voyaga yetmagan shaxsning ota-onalari, vasiy yoki xomiylari sud tomonidan jinoyat ishida fuqaroviy javobgar yoki ularning vakillari tariqasida jalb etilishi mumkin. Bu haqda sud ajrim chiqaradi.

Voyaga yetmagan shaxslar xalq ta'limi organlarining maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtiriladi.

Maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilgan voyaga yetmaganlarga aksariyat hollarda ilgari ularga tarbiyaviy va boshqa turdagi choralar qo'llanilgan bo'ladi. SHuning uchun voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi inspeksiya

voyaga yetmaganlar bilan chuqurroq va qattiqroq yunalishda tarbiyaviy choralar qo'llashi lozim.

Nazorat uchun savollar

1. Boshqa huquqiy ta'sir choralari nima, ular qanday asoslarga ko'ra qo'llaniladi?
2. Qonunda shartli hukm qilinganlarning qanday majburiyatlari nazarda tutilgan?
3. Qanday asoslarga ko'ra sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlanadi?
4. Qanday asoslarga ko'ra ruhiy kasallar ko'chirilishi mumkin?
5. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralarini ijro etishning tartibi qanday?

I topshiriq. O'z R JIKning 174-197 moddalari bilan tanishib chiqing.

II topshiriq. Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish tartibini sxemada ifoda eting.

III topshiriq. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralarini ijro etish yuzasidan amaliyot materiallari bilan tanishib chiqing.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent, 2008. - 174-197 moddalar.
2. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Ma'. muh. B.Ahrorov. – Toshkent, 2008. – B. 173-187.
3. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo. Kurs leksiy. – Toshkent: Akademiya MVD, 2002. – S. 138-159.
4. Abduxalikov M.A. va boshq. Jinoyat-ijroiya huquqi. Albom sxemalar. – Toshkent, 2005. – B. 83-91.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2010. – 535, - 547-564, -565-586 moddalar.
6. O'zbekiston Respublikasi IIV tergov hibsonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar tibbiy ta'minoti bo'yicha Qoidalar /Toshkent, 2002.

7. Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid Yo'riqnoma // O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2001 yil 298-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. <http://www.norma.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2011. – 72, 88, 91-96 moddalar.

GLOSSARIY

ASOSIY JAZOLAR- jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan va JKning 43-moddasida nazarda tutilgan jazolardir. O'z RJKning 43-moddasiga muvofiq quyidagi jazolar asosiy jazolar hisoblanadi: jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, intizomiy qismga jo'natish, qamoq, x izmat bo'yicha cheklash, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

ASOSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR - inson va fuqarolarga yashashi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda o'z manfaat va ehtiyojlarini qondirishi uchun imkoniyat beruvchi huquq va erkinliklar yig'indisidir. Asosiy huquq va erkinliklarga inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlar va iqtisodiy-ijtimoiy huquq va erkinliklar kiradi.

AVF ETISH – sud hukmi bilan tayinlangan jazodan mahkumning iltimosnomasiga binoan uning gunohidan kechish. O'zbekiston Respublikasida avf etish Respublika Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

AXLOQ TUZATISH ISHLARI – jinoiy jazo turi. Mahkumni axloqan tuzatish – unda qonunga itoatkor xulq-atvorni, inson, jamiyat va mehnatga, turmush qoidalari hamda an'analariga hurmatni shakllantirishdan iborat. Axloq tuzatish ishlari ish haqining 10 foizidan 30 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iborat. Jazoning ushbu turi ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi.

AQLI NORASOLIK – ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish vaqtida shaxsning ruhiy kasalligi tufayli o'z harakatlari yuzsidan o'ziga hisob bera olmaydigan va o'z harakatlarini idora qila olmaydigan holati. Aqli noraso shaxslarga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanadi va u sog'liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan ijro etiladi.

AQLI RASOLIK – insonning ruhiy jihatdan sog'lom holati; jinoyat huquqida shaxsning sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishini jinoyat deb hisoblash va jinoiy javobgarlikka tortishning huquqiy shartlaridan biri.

BIR KISHILIK KAMERALAR – mahkumga nisbatan boshqa ta'sir choralarini qo'llash ijobiy natija bermagan hollarda, uni umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning karserlariga bir kishilik kameralarga o'tkazish. Bir kishilik kameralarda erkak mahkumlarni olti oyga qadar, ayol mahkumalarni esa uch oyga qadar saqlash belgilangan. Intizomiy jazo tariqasida ushbu chora qo'llanilganda mahkumlar uchrashuv, telefon orqali so'zlashuv, posilka, yo'qlov, banderollar olish hamda jo'natish taqiqlanadi.

BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA'SIR CHORALARI – jinoiy jazo hisoblanmaydigan, ammo sodir etilgan jinoyat uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan davlatning majburlov choralari hisoblanadi. B.J.H. T.CH.ga shartli hukm qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan majburlov choralari: jabrlanuvchidan uzr so'rash, etkazilgan zararni to'lash yoki bartaraf etish majburiyatini yuklash, maxsus o'quv-tarbiya muassasiga joylashtirish kiradi.

VIJDON ERKINLIGI – insonni (jinoyat-ijriya huquqida mahkumni) xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki qilmaslik huquqini ta'kidlovchi BMTning Bosh

Assambleyasi tomonidan 1981 y. 25 noyabrda qabul qilingan 36-55-son Rezolyusiyasida qayd qilingan insonning aossiy huquqlaridan biridir. JIK ning 12-moddasiga ko'ra, «mahkumlarga vijdon erkinligi kafolatlanadi. Ular har qanday dinga e'tiqod qilishga yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikka haqli».

GAUPTVAXTA – oddiy tarkibdagi harbiy xizmatchilar jinoyat sodir etib, qamoq jazosiga hukm qilingan hollarda jazoni o'tash joyining bir ko'rinishidir.

JAZO – O'z R JK ning 42-moddasiga muvofiq, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasi.

JAZONI IJRO ETISH ASOSI – jazoni ijro etish asos bo'ladigan prosessual hujjatlar bo'lib, ular sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi yoki qarori, shuningdek amnistiya yoki avf etish aktidir.

JAZO IJROSINI TUGATISH – mahkumning sud tayinlagan jazo muddatini o'tab bo'lishi, O'z R JIK 163-moddasida nazarda tutilgan hollarda mahkumning jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilinishi, sud hukmi bekor bo'lishi va ish yuritishning tugatilishi, hukmning nazorat tartibida o'zgartirilishi va jazoning shartli hukm bilan almashtirilishi, mahkumning vafoti bilan tugaydi.

JAZONI IJRO ETISH – O'z R JIK ga muvofiq, jazoni ijro etish tushunchasi jinoyat uchun sud tomonidan tayinlangan jazoni ijro etuvchi davlat organlari va muassasalari hamda sud tomonidan muayyan shaxsga nisbatan chiqarilgan individual hukmning ijrosini ta'minlashda u yoki bu darajada ishtirok etuvchi mansabdor shaxslarga taalluqlidir. O'z R JIK ning 14-moddasida jazolarni ijro etuvchi muassasalar va organlar ro'yxati keltirilgan bo'lib, ularga quyidagilardir: sud qarorlarini ijro etish departamenti, ichki ishlar organlari, harbiy qism qo'mondonligi, garnizon gaupvaxtalari.

JAZONI IJRO ETISH KOLONIYALARI – jazoni ijro etish muassasalaridan biri. O'z R JIK ga muvofiq, J.I.E.K. faqat voyaga etgan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan. Voyaga yetmagan mahkumlar esa jazoni tarbiya koloniyalarida o'taydilar. JIK da j.i.e.k. ning to'rt turi nazarda tutilgan: manzil, umumiy, qattiq va maxsus.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARI – O'z R JIK ning 45-moddasiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosi quyidagi muassasalar tomonidan amalga oshiriladi: koloniyalar, tarbiya koloniyalari, turmalar. Tergov hibsonalari ozodlikdan mahrum etishg hukm qilingan va xo'jalik xzmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan j.i.e.m. vazifasini bajaradi.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASI MA'MURIYATINING QONUNIIY TALABLARIGA Bo'YSUNMASLIK – ozodlikdan mahrum qilish joyida jazoni o'tayotgan shaxsning j.i.e.m.m.q.t.b.i yoxud ma'muriyatning o'z faoliyatini amlaga oshirishga boshqacha yo'sinda to'sqinlik qilishi, basharti, mahkumga nisbatan bir yil mobaynida jazoni o'tash tartibi talablarini buzganligi uchun jazoni o'tash tartibi talablarini buzganligi uchun jazoni ijro etish koloniyasining karseriga o'tkazish tariqasidagi jazo qo'llanilgandan keyin yoki turmaga o'tkazilganidan keyin sodir etilsa, O'z R JK 221-moddasiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

JAZONI IJRO ETISH MUDDATI – agar jinoiy jazo o'z vaqtida ijro etilmasa, u asta-sekin o'zining tarbiyalash va jinoyatchilikning oldini olishdagi ahamiyatini yo'qotib boradi. Bunday muddatni qonun chiqaruvchi organ tayinlangan jazo turi va muddati bilan bog'lab belgilangan.

JAZONI IJRO ETISHDA DIFFERENSIASIYA – bu prinsip, ayniqsa, ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mahkumlarning ijtimoiy xavfliligi, ularning ilgari ham jinoyat sodir etib jazo o'tab chiqqanligi, residivligi hamda sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi bu tamoyil asosida tartibga solinadi. Jazoni d.da mahkumlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra bir-biridan ajratilgan holda saqlash va ularga o'zlarining ijtimoiy xavfliligiga ko'ra majburlov choralarini qo'llash imkonini beradi.

JAZONI IJRO ETISHDA INDIVIDUALLASHTIRISH – mahkumlarni axloqan tuzatishga qaratilgan, uning ijtimoiy xavfliligi, sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab ajratish, otryad va brigadaga taqsimlash asosida amalga oshirish. Har bir mahkumga nisbatan qanday chora qo'llash masalalari J.i. deyiladi.

JAZONI IJRO ETISHDA PROKUROR NAZORATI - ta'sir choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar qonunda belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

JAZONI O'TASH JOYLARIGA KIRISH - davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari, ommaviy axborot vositalari vakillari va boshqa shaxslar jazoni ijro etuvchi muassasalar va organlarga kirish huquqiga ega. Shikoyatlarni ko'rib chiqishda, shuningdek fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini o'z tashabbusi bilan tekshirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) jazoni ijro etish muassasalariga moneliqsiz kirish huquqiga ega

JINOYAT-IJROIYA KODEKSI – 1997 yil 25 aprelda qabul qilinib, 1997 yil 1 oktyabrdan amalga kiritilgan. Mazkur kodeks jinoyat uchun tayinlanadigan jazo va boshqa ta'sir choralarini ijro etishga oid asosiy huquqiy hujjatdir.

JINOYAT-IJROIYA QONUNI VAZIFALARI - jazo ijrosini ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI – jazoni va boshqa ta'sir choralarini ijro etish tartibi va shart-sharoitlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat bo'lgan huquqning mustaqil tarmog'i.

INTIZOMIY JAZO – mahkumga qo'llaniladigan tas'ir chorasi. O'z R JIK ning 105-moddasida quyidagi intizomiy jazolar nazarda tutilgan: ogohlantirish, hayfsan, engillashtirilgan saqlash sharoitini bekor qilish, intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish, saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi mahkumlarni manzil koloniyadan umumiy tartibli koloniyaga o'tkazish.

INTIZOMIY QISM - sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida muddatli harbiy xizmatchilar jazoni o'tash uchun joylashtiriladigan, tartibi ancha qattiq bo'lgan maxsus harbiy qism.

KARSER (lot. sarcer – zindon, qamoq) – mahkumlarning yomon xulqi, ichki tartib-qoidaga bo'ysunmasligi natijasida qo'llaniladi.

MAHKUM – qonun bilan taqiqlangan muayyan jinoyatni sodir etgani uchun sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxs.

MANZIL KOLONIYALAR – ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash muassasi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniya; umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan, shuningdek tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniya.

MAXSUS TARTIBLI KOLONIYALAR- ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash uchun mo'ljallangan jazoni ijro etish muassasi. Maxsus tartibli koloniya ozodlikdan mahrum qilinib, o'ta xavfli retsidivist deb topilgan erkaklarni, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

MAHKUMLARNING HUQUQIY HOLATI – bu mahkumlarning asosiy (konstitusiyaviy) va jazoni o'tash jarayonida yuzaga keladigan maxsus huquqlaridir. Mahkumlarning huquqlari va majburiyatlari muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

MAHKUMNI AXLOQAN TUZATISH - unda qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, jamiyat turmushi qoidalari va an'alariga hurmat munosabatini shakllantirishdan iborat.

MAHKUMLARNING UCHRASHUVLARI - ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga qisqa muddatli va uzoq muddatli uchrashuv huquqi beriladi. Mahkumlarga qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan muddati to'rt soatgacha bo'lgan qisqa muddatli uchrashuvga ruxsat beriladi. Mahkumlarga yaqin bilan uzoq muddatli uchrashuv muassasa hududida yoki JIKning 114 va 130-moddalarida nazarda tutilgan hollarda, muassasa hududidan tashqarida ular bilan birga yashash huquqi bilan beriladi. Uzoq muddatli uchrashuv muddati quyidagicha belgilanadi: muassasa hududida - bir sutkadan uch sutkagacha, muassasa hududidan tashqarida esa - uch sutkadan besh sutkagacha.

TARBIYA KOLONIYALARI - voyaga etmay turib jinoyat sodir etgan mahkumlarni saqlashga va ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishga mo'ljallangan.

TURMALAR - ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan va bir qismini turma qamog'iga o'tash uchun hukm qilingan shaxslarni, shuningdek umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzganligi uchun o'tkazilgan shaxslarni saqlash uchun mo'ljallangan jazoni ijro etish muassasi.

PENITENSIAR (lot. penitentia – tavba qilish) – hozirgi kunda ko'pgina xorijiy davlatlarda jazoni ijro etish tizimi shunday deb yuritiladi.

PENITENSIAR RESIDIV - ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab chiqqan shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilishini o'z ichiga qamrab oladi.

UMUMIY TARTIBLI KOLONIYALAR – ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashga mo'ljallangan jazoni ijro etish muassasi. Ular quyidagilarga bo'linadi: og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar; o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar; og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan ayollar saqlanadigan koloniyalar.

QATTIQ TARTIBLI KOLONIYALAR - ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalari bo'lib, O'zR JIKning 48-moddasiga muvofiq, ular bir necha turlari nazarda tutilgan.

TESTLAR

№	Test topshirig'i	To'g'ri javob	Muqobil javob	Mukobil javob	Muqobil javob
1	Jinoyat-ijroiya huquqi qanday ijtimoiy munosbatlarni tartibga soladi?	jinoiy jazolarni ijro etishda yuzaga keladigan	jinoyat sodir etilishi bilan yuzaga keladigan	jinoyat ishlari bo'yicha ish olib borishda yuzaga keladigan	jinoiy jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarni ijro etishda yuzaga keladigan
2	Jazoni ijro etish asosi – bu:	faqat sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi	sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi, amnistiya yoki avf etish akti	faqat amnistiya yoki avf etish akti	sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan ta'minlash departamentining bu boradagi qarori
3	Quyidagilardan qaysi biri jazoni ijro etuvchi organ yoki muassasa hisoblanmaydi?	sud	prokuratura organlari,	harbiy qism qo'mondonligi	sud qarorlarini ijro etish departamenti
4	Quyidagilardan qaysi biri boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ yoki muassasa hisoblanmaydi?	prokuratura organlari	sud	xalq ta'limi organlari	sog'liqni saqlash organlari
5	Qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarga har kuni muddati ... soatlik sayr qilish vaqti beriladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	bir soatlik	uch soatlik	30 daqiqa	bir yarim soat
6	Qamoq jazosiga hukm qilingan voyaga yetmagan mahkumlarga har kuni muddati ... soatlik sayr qilish vaqti beriladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	ikki soat	uch soatlik	bir yarim soat	bir soatlik
7	Qamoq jazosiga hukm qilingan homilador ayollar, bolasi bor ayollarga har kuni muddati ... soatlik sayr qilish vaqti beriladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	uch soatlik	bir yarim soat	ikki soat	bir soatlik
8	Qamoq jazosiga hukm etilgan voyaga yetmagan mahkumlarga har oyda yaqin qarindoshlari bilan uchrashish uchun ... qisqa muddatli uchrashuv imkoniyati beriladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli</i>	bir marta uch soatgacha	uch marta bir soatgacha	ikki marta uch soatgacha	besh marta bir soatgacha

	<i>so'zlarni qo'ying.</i>				
9	Qamoq jazosiga hukm etilgan mahkumlarga qanday intizomiy jazolar qo'lanilishi mumkin?	ogohlantirish, hayfsan, karserga kiritish, sayrning ko'paytirilgan muddatini bekor qilish	faqat ogohlantirish, hayfsan, turmaga o'tkazish	ogohlantirish, karserga kiritib qo'yish, engillashtirilgan saqlash sharoitini bekor qilish	ogohlantirish, intizomiy bo'linmaga kiritish, hayfsan
10	Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etuvchi muassasalarni toping:	koloniyalar, qamoq uylari, tergov hibsxonasi	faqat turmalar, tergov hibsxonalari	faqat koloniyalar, tergov hibsxonalari	koloniyalar, tarbiya koloniyalari, turmalar
11	O'zbekiston Respublikasining «O'lim jazosini bekor qilinishi munosabati bilan O'z R ayrim qonun va hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?	2007 yil 11 iyul	2007 yil 15 iyun	2005 yil 1 avgust	2007 yil 29 avgust
12	O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi qachon qabul qilingan?	1997 yil 25 aprel	1997 yil 27 aprel	1994 yil 22 sentyabr	1995 yil 1 aprel
13	Umumiy tartibli koloniyalarda mahkumlarga bir oy davomida sarflashga ruxsat etilgan pulning umumiy summasi belgilangan..... oshmasligi lozim. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying</i>	eng kam ish haqi miqdorining uch baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining ikki baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining bir yarim baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining ikki yarim baravaridan
14	Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlarga bir oy davomida sarflashga ruxsat etilgan pulning umumiy summasi belgilangan..... oshmasligi lozim. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	eng kam ish haqi miqdorining ikki baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining uch baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining bir yarim baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining ikki yarim baravaridan
15	Qattiq tartibli koloniyalarda mahkumlarga bir oy davomida sarflashga ruxsat etilgan pulning umumiy summasi belgilangan..... oshmasligi lozim. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	eng kam ish haqi miqdorining ikki yarim baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining uch baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining bir yarim baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining ikki baravaridan
16	Turmalarda mahkumlarga	eng kam ish	eng kam ish	eng kam ish	eng kam ish haqi

	bir oy davomida sarflashga ruxsat etilgan pulning umumiy summasi belgilangan..... oshmasligi lozim. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	haqi miqdorining uch baravaridan	haqi miqdorining bir yarim baravaridan	haqi miqdorining ikki yarim baravaridan	miqdorining ikki baravaridan
17	Tarbiya koloniyalarida, ixtisoslashtirilgan davolash muassasalarida mahkumlarga bir oy davomida sarflashga ruxsat etilgan pulning umumiy summasi belgilangan..... oshmasligi lozim. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	eng kam ish haqi miqdorining ikki yarim baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining uch baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining uch yarim baravaridan	eng kam ish haqi miqdorining ikki baravaridan
18	Mahkumlarga qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan muddati ... bo'lgan qisqa muddatli uchrashuvga ruxsat beriladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	to'rt soat	uch soat	besh soat	bir sutka
19	Mahkumlarga yaqin qarindoshlari bilan muassasa hududida muddati ... bo'lgan uzoq muddatli uchrashuvga ruxsat beriladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	bir sutkadan uch sutkagacha	bir sutkadan besh sutkagacha	bir sutkadan olti sutkagacha	bir sutka
20	Mahkumlarga yaqin qarindoshlari bilan muassasa hududidan tashqarida muddati ... bo'lgan uzoq muddatli uchrashuvga ruxsat beriladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	o'n kungacha	bir sutkadan uch sutkagacha	bir sutkadan besh sutkagacha	uch sutkadan besh sutkagacha
21	Mahkumlarga alohida hollarda borish-kelish uchun ketadigan vaqtni hisobga olmagan holda ... sutkagacha bo'lgan muddatga jazoni ijro etish muassasasi doirasidan chetga chiqishga ruxsat etilishi mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	etti sutkagacha	besh sutkagacha	uch sutkagacha	to'qqiz sutkagacha
22	Quyidagi qaysi mahkumlarga alohida hollarda muassasa doirasidan tashqariga chiqishga ruxsat berilmaydi?	o'ta xavfli retsivistlar, umrbod ozodlikdan mahrum etilganlar, o'ta og'ir jinoyat sodir etganlar yuqumli kasallikka chalingan	faqat o'ta xavfli retsivistlar, umrbod ozodlikdan mahrum etilganlar	o'ta xavfli retsivistlar, umrbod ozodlikdan mahrum etilganlar, intizomiy jazo olganlar	faqat o'ta xavfli retsivistlar, karserdagi mahkumlar, yuqumli kasallikka chalingan mahkumlar

		mahkumlar			
23	Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar jazoning dastlabki o'n yilini saqlash sharoitlarida o'taydilar. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	qattiq	engillashtirilgan	og'ir	odatdagi
24	Umrbod ozodlikdan mahrum qilishning kamida o'n yilini o'tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan mahkumlar qattiq saqlash sharoitlaridan saqlash sharoitlariga o'tkaziladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	og'ir	engillashtirilgan	odatdagi	qattiq
25	Umrbod ozodlikdan mahrum qilishning kamida o'n besh yilini o'tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan mahkumlar odatdagi saqlash sharoitlaridan saqlash sharoitlariga o'tkaziladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	qattiq	odatdagi	og'ir	engillashtirilgan
26	Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni qattiq saqlash sharoitlarida o'tayotgan mahkumlar o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ... foizigacha bo'lgan summmaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari, eng zarur narsalar sotib olishi mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	etmish besh	etmish	bir baravari	bir yarim baravari
27	Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni odatdagi saqlash sharoitlarida o'tayotgan mahkumlar o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ... foizigacha bo'lgan summmaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari, eng zarur narsalar sotib olishi mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	bir baravari	etmish	etmish besh	bir yarim baravari
28	Umrbod ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni	bir yarim baravari	etmish	etmish besh	bir baravari

	engillashtirilgan saqlash sharoitlarida o'tayotgan mahkumlar o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ... foizigacha bo'lgan summmaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari, eng zarur narsalar sotib olishi mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>				
29	Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan bitta mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi qanday?	ikki yarim kvadrat metr	ikki kvadrat metr	to'rt kvadrat metr	to'rt yarim kvadrat metr
30	Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini engillashtirilgan saqlash sharoitlarida o'tayotgan mahkumlar yil mobaynida nechta banderol olish huquqiga ega?	ikkita	uchta	bitta	bunday huquqga ega emas
31	Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar, saqlash sharoitlaridan qat'iy nazar har kuni necha soat sayr qilish huquqiga ega?	bir yarim	bunday huquqga ega emaslar	bir soat	uch soat
32	Avf etish to'g'risidagi iltimosnoma umrbod ozodlikdan mahrum qilingan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning ...yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	yigirma besh	yigirma	o'n	o'n besh
33	Avf etish to'g'risidagi iltimosnoma uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning ...yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	o'n	yigirma besh	yigirma	o'n besh
34	Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan mahkum agar jazoni o'tash davrida qat'i tuzalish yo'liga o'tgan, intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga vijdonan munosabatda bo'lgan taqdirda, tayinlangan jazoning haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin avf etishni so'rab	yigirma	yigirma besh	o'n	o'n besh

	iltimosnoma berishi mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>				
35	Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan mahkum agar jazoni o'tash davrida qat'i tuzalish yo'liga o'tgan, intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga vijdonan munosabatda bo'lgan taqdirda, tayinlangan jazoning haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin avf etishni so'rab iltimosnoma berishi mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	o'n besh	yigirma besh	yigirma	o'n besh
36	Barcha chegirmalardan qat'iy nazar ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar shaxsiy hisobvarag'iga ularga yozilgan ish haqining kamida ... o'tkazib qo'yiladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	25 %	20%	50%	30%
37	Barcha chegirmalardan qat'iy nazar ozodlikdan mahrum qilingan oltmish yoshdan oshgan erkaklarning, ellik besh yoshdan oshgan ayollarning shaxsiy hisobvarag'iga ularga yozilgan ish haqining kamida ... o'tkazib qo'yiladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	50 %	20%	25%	30%
38	Barcha chegirmalardan qat'iy nazar ozodlikdan mahrum qilingan homilador ayollarning, I va II guruh nogironlarining shaxsiy hisobvarag'iga ularga yozilgan ish haqining kamida ... o'tkazib qo'yiladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	50 %	20%	25%	30%
39	Quyidagilardan qaysilari intizomiy bo'linmaga kiritilmaydi:	I guruh nogironlari, homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod etilgan, yonida	faqat og'ir va yuqumli kasallikka chalingan mahkumlar	faqat yuqumli kasallikka chalingan mahkumlar, I guruh nogironlari	I va II guruh nogironlari, ayollar, shu jumladan, yonida emizikli bolasi bor ayollar,

		emizikli bolasi bor ayollar			
	Sud hukmiga binoan, shuningdek umumiy, qattiq tartibli hamda tarbiya koloniyalaridan sudning ajrimi asosida o'tkazilgan voyaga yetmagan mahkumlar jazoni...koloniyalarda o'taydilar.	*manzil	kuchaytirilgan	engillashtirilgan	odatdagi
40	O'ta xavfli retsivistlar, umrbod ozodlikdan mahrum qilinganlar, yuqumli kasallikka chalingan bemorlar, majburiy davolanishdan o'tayotgan mahkumlar, mehnatga qobiliyatsiz mahkumlar... <i>Davom ettiring.</i>	manzil koloniyaga o'tkazilmaydi	jazoni faqat turmada o'taydilar	jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinadi	jazoni faqat maxsus tartibli koloniyalarda o'taydilar
41	Manzil koloniyada mahkumlar ...miqdorda uchrashuv olishlari mumkin. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.	cheklanmagan	har oyda bitta	har oyda uchta	har uch oyda bitta
42	Sud hukmiga binoan, manzil koloniyalardan intizomiy jazo tarzida o'tkazilgan mahkumlar, tayinlangan jazo ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan mahkumlar <i>Davom ettiring.</i>	jazoni umumiy tartibli koloniyada o'taydilar	jazoni faqat turmada o'taydilar	jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinadi	jazoni faqat qattiq tartibli koloniyalarda o'taydilar
43	Umumiy tartibli koloniyalarda mahkumlar yashaydilar. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	umumiy yotoqxonalarida	umumiy turar joylarda	umumiy yashash binolarida yoki umumiy turar joylarda	umumiy turar joylarda, kameralarda
44	Umumiy tartibli koloniyalarda mahkumlar belgilangan eng kam ish haqi miqdorining bo'lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	bir yarim	ikki baravarigacha	yarim baravarigacha	bir baravari
45	Umumiy tartibli koloniyalarda mahkumlar yil mobaynida nechta telefon orqali so'zlashuv, posilka, banderol olish huquqiga ega?	olti marta telefon orqali so'zlashuv, oltita posilka yoki yo'qlov, oltita banderol	cheklanmagan miqdorda	to'rt marta telefon orqali so'zlashuv, oltita posilka yoki yo'qlov, oltita banderol	olti marta telefon orqali so'zlashuv, to'rtta posilka yoki yo'qlov, oltita banderol
46	Qattiq tartibli	umumiy	umumiy turar	umumiy	umumiy turar

	koloniyalarda mahkumlar yashaydilar. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	yotoqxonalarida	joylarda	yashash binolarida yoki umumiy turar joylarda	joylarda, kameralarda
47	Qattiq tartibli koloniyalarda mahkumlar yil mobaynida nechta telefon orqali so'zlashuv, posilka, banderol olish huquqiga ega?	to'rt marta telefon orqali so'zlashuv, to'rtta posilka yoki yo'qlov, to'rtta banderol	cheklanmagan miqdorda	to'rt marta telefon orqali so'zlashuv, oltita posilka yoki yo'qlov, to'rtta banderol	olti marta telefon orqali so'zlashuv, to'rtta posilka yoki yo'qlov, oltita banderol
48	Sud hukmiga binoan kelgan, turmalar va maxsus tartibli koloniyalardan o'tkazilgan, turma qamog'i muddatini o'tab bo'lgan, manzil-koloniyalardan intizomiy jazo tarzida qaytarilgan mahkumlar ... <i>Davom ettiring:</i>	jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'taydilar	maxsus tartibli koloniyalarda o'taydilar	amnistiya aktiga ko'ra jazodan ozod qilinmaydilar	kuchaytirilgan tartibli koloniyalarga o'tkaziladi
49	Sud hukmiga binoan kelgan, umrbod ozodlikdan mahrum qilinganlar, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi avf etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar, qattiq tartibli koloniyalardan intizomiy jazo tarzida qaytarilgan mahkumlar ... <i>Davom ettiring:</i>	qattiq tartibli koloniyalarda o'taydilar	jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'taydilar	amnistiya aktiga ko'ra jazodan ozod qilinmaydilar	turmaga o'tkaziladi
50	Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar yashaydilar. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	kameralarda yoki umumiy yashash binolarida	umumiy yotoqxonalarda	umumiy yashash binolarida yoki umumiy turar joylarda	umumiy turar joylarda, kameralarda
51	Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar yil mobaynida nechta telefon orqali so'zlashuv, posilka, banderol olish huquqiga ega?	uch marta telefon orqali so'zlashuv, uchta posilka yoki yo'qlov, uchta banderol	*ikki marta telefon orqali so'zlashuv, uchta posilka yoki yo'qlov, uchta banderol	ikki marta telefon orqali so'zlashuv, uchta posilka yoki yo'qlov, to'rtta banderol	uch marta telefon orqali so'zlashuv, to'rtta posilka yoki yo'qlov, uchta banderol
52	Sud hukmiga ko'ra o'ta xavfli retsidivistlar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan mahkumlar, ijro etish koloniyalardan o'tkazilgan jazo o'tash tartibini ashaddiy buzuvchilar ... <i>Davom</i>	jazoni turmada o'taydilar	jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'taydilar	posilka, yo'qlov, banderol olishlari mumkin emas	avf etilmaydi

	<i>ettiring:</i>				
53	Turmalarda mahkumlar yil mobaynida nechta telefon orqali so'zlashuv, posilka, banderol olish huquqiga ega?	ikki marta telefon orqali so'zlashuv, ikkita posilka yoki yo'qlov, ikkita banderol	*ikki marta telefon orqali so'zlashuv, uchta posilka yoki yo'qlov, ikkita banderol	ikki marta telefon orqali so'zlashuv, uchta posilka yoki yo'qlov, to'rtta banderol	uch marta telefon orqali so'zlashuv, ikkita posilka yoki yo'qlov, uchta banderol
54	Turmalarda mahkumlarsaqlanadi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	yakka holda alohida kameralarda	umumiy kameralarda	umumiy yashash binolarida yoki umumiy turar joylarda	umumiy turar joylarda, kameralarda
55	Qattiq tartibli koloniyalarda mahkumlar necha marta qisqa muddatli va necha marta uzoq muddatli uchrashuv olish huquqiga ega?	uch marta qisqa muddatli va uch marta uzoq muddatli	to'rt marta qisqa muddatli va uch marta uzoq muddatli	uch marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli	bunday huquqga ega emas
56	Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar necha marta qisqa muddatli va necha marta uzoq muddatli uchrashuv olish huquqiga ega?	ikki marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli	to'rt marta qisqa muddatli va uch marta uzoq muddatli	uch marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli	bunday huquqga ega emas
57	Umumiy tartibli koloniyalarda mahkumlar necha marta qisqa muddatli va necha marta uzoq muddatli uchrashuv olish huquqiga ega?	to'rt marta qisqa muddatli va to'rt marta uzoq muddatli	to'rt marta qisqa muddatli va uch marta uzoq muddatli	uch marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli	olti marta qisqa muddatli va olti marta uzoq muddatli
58	Turmalarda mahkumlar necha marta qisqa muddatli va necha marta uzoq muddatli uchrashuv olish huquqiga ega?	ikki marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli	ikki marta marta qisqa muddatli va bir marta uzoq muddatli	uch marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli	bunday huquqga ega emas
59	Tarbiya koloniyalarida mahkumlar yil mobaynida nechta posilka, yo'qlov, banderol olishlari mumkin?	o'n ikki marta telefon orqali so'zlashuv, oltita posilka yoki yo'qlov, oltita banderol	o'n marta telefon orqali so'zlashuv, oltita posilka yoki yo'qlov, oltita banderol	oltita telefon orqali so'zlashuv, oltita posilka yoki yo'qlov, oltita banderol	cheklanmagan miqdorda telefon orqali so'zlashuv, oltita posilka yoki yo'qlov, oltita banderol
60	Tarbiya koloniyasida hibsonaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan mahkumlarga qanday muddatga qo'llaniladi?	etti sutkagacha	o'n sutkagacha	bu yoshdagi mahkumlar hibsonaga kiritilishi mumkin emas	olti sutkagacha
61	Tarbiya koloniyasida hibsonaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan mahkumlarga qanday	o'n sutkagacha	etti sutkagacha	sakkiz sutkagacha	olti sutkagacha

	muddatga qo'llaniladi?				
62	Tarbiya koloniyalarida mahkumlar belgilangan eng kam ish haqi miqdorining bo'lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	ikki yarim baravarigacha	uch yarim baravarigacha	ikki baravar	uch baravar
63	Tarbiya koloniyalarida jazoni o'tayotgan mahkumlar necha marta qisqa va uzoq muddatli uchrashuv olish huquqiga ega?	olti marta qisqa va to'rt marta uzoq	o'n ikki marta qisqa va olti marta uzoq	olti marta qisqa va olti marta uzoq	to'rt marta qisqa va uch marta uzoq
64	Voyaga yetmagan mahkumlar yigirma bir yoshga to'lganidan keyin, salbiy tavsifga ega mahkumlar esa o'n sakkiz yoshga to'lganidan keyin jazo o'tashni davom ettirish uchun tarbiya koloniyasidan <i>Davom ettiring.</i>	umumiy tartibli koloniyaga o'tkaziladi	manzil koloniyaga o'tkaziladi	turmaga o'tkaziladi	qattiq tartibli koloniyaga o'tkaziladi
65	Ayrim toifadagi mahkumlar – bu:	homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar	ijobiy tavsifga ega bo'lgan mahkumlar	saqlash rejimini buzuvchilar	faqat homilador mahkuma ayollar
66	Tarbiya koloniyasining hibsxonasiga kiritib qo'yilgan mahkumlarning sayr qilish muddati sutkasiga ... soat qilib belgilanadi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	bir	ikki	ikki yarim	uch
67	Maktabgacha yoshdagi bolalari bor mahkuma ayollarga bolalarini qarindoshlarinikiga, vasiylarinikiga yoki bolalar muassasalariga joylashtirib kelish uchun qanday muddatga muassasa doirasidan chetga chiqish huquqi beriladi?	15 sutkagacha	10 sutka	12 sutka	7 sutka
69	Ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilgan mahkumga bir vaqtning o'zida sodir etilgan to'rtta huquqbuzarlik uchun faqat ... davom ettiring.	bitta intizomiy jazo qo'llanadi	ikkita intizomiy jazo qo'llanadi	har biriga alohida jazo qo'llaniladi	uchta intizomiy jazo qo'llanadi
70	Ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilgan mahkumlarga tayinlangan intizomiy jazo huquqbuzarlik sodir	o'sha kuni	o'n kun	bir oy	o'n besh

	etilgan kundan boshlab.... ichida beriladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>				
71	Mahkumlar hibsonalar va karserlarga ...sutkagacha, tarbiya koloniyalarining hibsonalariga esa ... sutkagacha bo'lgan muddatga kiritib qo'yiladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	o'n besh o'n	o'n besh besh	olti uch	etti uch
72	Mahkumlarga nisbatan, agar ular jazavaga tushsalar, qancha vaqt davomida tinchlantirish kuylagi qo'llaniladi?	ikki soat	30 daqiqa	bir soat	uch soat
73	Qaysi mahkumlarga tinchlantirish kuylagi qo'llanilmaydi?	faqat homilador ayollar	faqat voyaga yetmaganlar	voyaga yetmaganlar, ayollar	voyaga yetmaganlar, ayollar, 60 yoshdan erkaklar
74	Qattiq tartibli koloniyadan manzil-koloniya o'tkazilgan mahkum saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topildi. <i>Mahkumning huquqiy holatini aniqlang:</i>	turmaga o'tkaziladi	maxsus tartibli koloniya o'tkaziladi	ogohlantirish tarzida intizomiy jazo qo'llaniladi	qattiq tartibli koloniyaning og'ir saqlash sharoitiga o'tkaziladi
75	Umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilgan SH. qattiq kasalligi sababli unga tibbiy yordam ko'rsatilishini so'rab, muassasa ma'muriyatiga murojaat qildi. Jazoni ijro etish ma'muriyati uning shaxsiy hisobvarag'ida puli yo'qligini vaj qilib, tibbiy yordam ko'rsatmadi. <i>Jazoni ijro etish muassasasining harakati to'g'rimi?</i>	yo'q, qonuniy asosga ega emas, tibbiy yordam ko'rsatilishi kerak	to'g'ri, chunki mahkumlarga shaxsiy hisobvarag'ida pul mavjud bo'lsa tibbiy yordam ko'rsatiladi	to'g'ri, chunki umrbod ozodlikdan mahrum etilganlarga ushbu qoida qo'llaniladi	to'g'ri, ushbu mahkumlarga faqat sog'liqni saqlash vazirligining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin
76	O'ta xavfli retsivist S. 12 yilga ozodlikdan mahrum qilingan edi (jazoning dastlabki besh yili turmada o'talgan), axloqan tuzalish yo'liga o'tdi. S. Ning huquqiy holatidagi o'zgarishni aniqlang.	engillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi	faqat qattiq tartibli koloniya o'tkaziladi	odatdagi sharoitga o'tkaziladi	umumiy tartibli koloniya o'tkaziladi
77	Manzil koloniyada jazoni o'tayotgan K. saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topildi. K.ning keyingi huquqiy holatini aniqlang:	umumiy tartibli koloniya o'tkaziladi	faqat qattiq tartibli koloniya o'tkaziladi	karserga kiritib qo'yiladi	turmaga o'tkaziladi

78	Jazoni o'tayotgan II. guruh nogironi K. ishga chiqishdan bosh tortib kelganligi uchun, intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yilgan. <i>Muassasa harakati qonunga asoslanganmi?</i>	yo'q, faqat hayfsan berilishi kerak edi	yo'q, II. guruh nogironi o'z xohishiga ko'ra jalb etiladi	yo'q, faqat engillashtirilgan saqlash sharoiti bekor qilinishi kerak edi	yo'q, faqat ogohlantirish berilishi kerak edi
79	Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan T.ning jazoni o'tash muddati 2010 yil 21 martda tugashi kerak edi. Ammo 21 mart bayram kuni ekanligi hisobga olinib, u 22 mart kechqurun jazodan ozod etildi. <i>Muassasaning harakati qonunga asoslanganmi?</i>	yo'q, noto'g'ri, bunday hollarda bir kun oldin ozod etiladi	to'g'ri, bayram kuni ekanligi hisobga olingan	yo'q, noto'g'ri, bunday hollarda uch kun oldin ozod etiladi	yo'q, noto'g'ri, bunday hollarda ertasiga ertalab ozod etiladi
80	Jazoni o'tayotgan 56 yoshli mahkuma SH. ishga chiqishdan bosh tortib kelganligi uchun, intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yilgan. <i>Muassasa harakati qonunga asoslanganmi?</i>	yo'q, SH.o'z xohishiga ko'ra jalb etiladi	yo'q, faqat hayfsan berilishi kerak edi	yo'q, faqat engillashtirilgan saqlash sharoiti bekor qilinishi kerak edi	yo'q, faqat ogohlantirish berilishi kerak edi
81	Muassasa doirasidan tashqaridan yashayotgan mahkuma V.ga har oyda uchta banderol, uchta posilka va yo'qlov olishga ruxsat etildi. <i>Muassasa harakati qonunga asoslanganmi?</i>	yo'q, u cheklanmagan miqdorda olishi mumkin	to'g'ri, JIK da ushbu qoida nazarda tutilgan	yo'q, har oyda uch marta posilka, yo'qlov banderol olishi mumkin	yo'q, umumiy tartibli koloniyalardagi qoidalar qo'llanilishi kerak edi
82	Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkum SH.ga jazavaga tushganligi uchun 4 soatga tinchlantirish kuylagi qo'llanildi. <i>Muassasa harakati qonunga asoslanganmi?</i>	yo'q, ikki soat qo'llanadi	yo'q, 30 daqiqa qo'llanadi	yo'q, bir soat qo'llanadi	yo'q, uch soat qo'llanadi
83	Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan voyaga yetmagan mahkum X.ga jazavaga tushganligi uchun 2 soatga tinchlantirish kuylagi qo'llanildi. <i>Muassasa harakati qonunga asoslanganmi?</i>	yo'q, voyaga yetmaganlarga qo'llanilmaydi	yo'q, 30 daqiqa qo'llanadi	yo'q, bir soat qo'llanadi	yo'q, uch soat qo'llanadi
84	Tergov hibsxonalarida ozodlikdan mahrum qilish	umumiy tartibli	turma	qattiq tartibli koloniyalar	tergov hibsxonasida

	jazosini o'tash uchun qoldirilgan mahkumlar jazoni qanday sharoitlarda o'taydilar?	koloniyalar			saqlanayotgan boshqa shaxslar singari
85	Jinoyat-ijroiya qonunchiligida nechta prinsip mustahkamlangan?	sakkizta	ettita	oltita	to'qqizta
86	Jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs jarimani hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab... muddat ichida ixtiyoriy to'lashi shart. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	bir oy	uch oy	olti oy	ikki oy
87	O'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan va jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab qanday muddat ichida ixtiyoriy to'lashi shart?	bir oy	uch oy	olti oy	ikki oy
88	Jarimani majburiy ijro etish muddati -	ikki oy	uch oy	bir oy	olti oy
89	Qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoga qo'shimcha ravishda tayinlangan muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi kim tomonidan ijro etiladi?	asosiy jazoni ijro etuvchi organ	faqat ichki ishlar organlari	tashkilot, muassasa va korxona rahbari	sud
90	Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlangan hollarda, u qaysi turdagi jazo bilan almashtiriladi?	shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish	qamoq	jarima	1 yilga ozodlikdan mahrum qilish
91	Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash muddatiga quyidagilar qo'shib hisoblanmaydi:	mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to'lanadigan kasallik vaqti, qamoqda saqlangan vaqt	faqat kasallik vaqti	faqat uzrsiz sabablarga ko'ra ishga chiqmagan vaqt	faqat jinoyat sodir etganligi munosabati bilan qamoqda saqlangan vaqt
92	Mahkumlar jazoni o'tash uchun qamoq uylariga tergov hibsxonasi ma'muriyati hukm qonuniy kuchga kirganligi to'g'risida sud xabarnomasini olgan kundan boshlab qanday muddat ichida jo'natiladi?	uch kunlik	o'sha zahoti	bir kunlik	besh kunlik
93	Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar necha kishilik kameralarda saqlanadilar?	ikki kishilik, to'rt kishilik yoki umumiy kameralarda	faqat bir kishilik kameralarda	to'rt kishilik yoki umumiy kameralarda	alohida kamerada
94	Qamoq jazosiga hukm etilgan mahkumlar pul o'tkazish yo'li bilan	yigirma foiz	o'ttiz foiz	o'n foiz	qonunda nazarda tutilmagan

	belgilangan eng kam ish haqi miqdorining necha foizidan oshmaydigan summaga eng zarur narsalarni sotib olishlari mumkin?				
95	Qamoq jazosiga hukm etilgan ayollar va voyaga yetmagan mahkumlarni karserga qanday muddatga kiritib qo'yish mumkin?	beshtutkagacha	ularga ushbu intizomiy jazo qo'llanilmaydi	uchsutkagacha	ettitutkagacha
96	Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jazoni ijro etish muassasasiga kelganlaridan qanday vaqt davomida posilka, yo'qlov va banderol olishlari mumkin?	o'sha kundan	uch kundan keyin	o'n kundan keyin	bir oydan keyin
97	Mahkumlarning prokuror nomiga yo'llangan taklif, ariza va shikoyatlari ko'zdan kechirilmaydi hamda ...sutkalik muddat ichida tegishliligi bo'yicha jo'natiladi. <i>Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.</i>	bir	uch	beshtutkagacha	ikkikutkagacha
98	Jazoni qaysi koloniyada o'tayotgan mahkumlarning xatlari va boshqa jo'natmalari senzurdan o'tkazilmaydi?	manzil koloniya	maxsus tartibli koloniya	qattiq tartibli koloniya	umumiy tartibli koloniya
99	Mahkum o'z yonida ko'pi bilan necha nusxa kitob va jurnal saqlashi mumkin?	o'n	beshtutkagacha	ikkikutkagacha	bir
100	Umumiy turar joylarda bir mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi qanday miqdordan kam bo'lishi mumkin emas?	uch kvadrat metr	ikkii yarim kvadrat metr	ikkikutkagacha kvadrat metr	to'rt kvadrat metr

B.B.B. METODI ASOSIDA TARQATMA MATERIALLAR

Mavzu: Jinoyat-ijroiya huquqi tushunchasi, predmeti, vazifalari

№	Tushuncha	Bilaman «+» Bilmyman «-»	Bildim «+» Bilaolmadim «-»
1	Jazolar		
2	Boshqa huququiy ta'sir choralari		
3	Jinoyat-ijroiya huquqi sub'ektlari		
4	Mahkum		
5	Jazoni ijro etish asosi		
6	Jinoyat-ijroiya huquqi prinsiplari		
7	Mahkumni axloqan tuzatish		
8	Axloqan tuzatishning asosiy vositalari		
9	Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining vazifasi		
10	Jinoyat-ijroiya qonuni normalarining tuzilishi		
11	Jinoyat-ijroiya qonuni tizimi		
12	Jazoni ijro etishda differensiasiya		
13	Jazoni ijro etishda individuallashtirish		
14	Majburlov vositalarini oqilona qo'llash		

Venna diagrammasi

Mavzu: Mahkumlarning huquqiy holati

Mahkumlarning huquqiy holati

Mahkum ajnabiy fuqarolarning
huquqiy holati

1	4	1
2	5	2
3	umumiy tomon.	3

3-ilova

“Insert usuli”

Mavzu: Jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari va qimoq jazolarini ijro etish

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Jazolarni ijro etuvchi organlar				
Jazolarni ijro				

etuvchi muassasalar				
Qamoq jazosida mahkumning huquqiy holati				
Jarimani ijro etish				

4-ilova

Klaster tuzish bo'yicha misol

Sudning ayblov hukmi

Alohida huquqiy holat

shaxsiy xavfsizlik huquqi

yuridik yordam olish

Alohida majburiyatlar

Mahkum

vijdon erkinligi

sudlangan

huquqlar cheklanishi

Jinoiy jazo qo'llanilgan
shaxs

M U N D A R I J A :

Kirish

1-MAVZU. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA VAZIFALARI.

2-MAVZU. MAHKUMLARNING HUQUQIY HOLATI.....

3-MAVZU. JARIMA, MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH, AXLOQ TUZATISH ISHLARI VA QAMOQ TARIQASIDAGI JAZOLARNI IJRO ETISH.....

4-MAVZU. OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISH.....

5-MAVZU. KOLONIYA VA TURMALARDA JAZONI O'TASH.....

6-MAVZU. JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA REJIM.....

7-MAVZU. MAHKUMLARNING MODDIY-MAISHIY TA'MINOTI.

8-MAVZU. UMRBOD OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISH.....

9-MAVZU. HARBIY XIZMATCHILARGA NISBATAN XIZMAT BO'YICHA CHEKLASH, QAMOQ VA INTIZOMIY QISMGA JO'NATISH TARIQASIDAGI JAZOLARNI IJRO ETISH.....

10-MAVZU. JAZONI O'TASHDAN OZOD QILISH.....

11-MAVZU. BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI IJRO ETISH

GLOSSARIY.....

TESTLAR.....

ILOVALAR

